

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

A.A. OMONOV, F.K. XOLMAMATOV

BANK ISHI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma
sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2021

UO‘K: 336.71(575.1)(075.8)

KBK: 65.262.1ya7

B 15

A.A. Omonov, F.K. Xolmamatov. Bank ishi. (O‘quv qo‘llanma) – T.: «Nihol print» OK, 2021. – 228 b.

ISBN 978–9943–7344-0-1

«Bank ishi» fanidan amaliy mashg‘ulotlar o‘tishda qo‘llaniladigan mazkur o‘quv qo‘llanma bakalavriyatning 5111000-Kasb ta’limi (5230700- Bank ishi), 5230600-Moliya, 5230700-Bank ishi, 5231500-Baholash ishi ta’lim yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan. Davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq tayyorlangan ushbu qo‘llanma “Bank ishi” fani mavzulari bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar, nazorat savollari, mustaqil ish mavzulari, mavzu bo‘yicha amaliy masalalar, testlar va ularning javoblari, krossvord va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan.

UO‘K: 336.71(075)-512.133

KBK: 65.262.1ya7

Taqrizchilar:

- Umarov Z.A. – Toshkent moliya instituti “Bank hisobi va audit” kafedrasida mudiri, dotsent, i.f.n.;
- Abdullayev O. A. – Toshkent moliya instituti “Bank ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.n.

ISBN 978–9943–7344-0-1

© «Nihol print» OK nashriyoti, 2021.

KIRISH

“Bank ishi” fani o‘quv qo‘llanmasi (amaliy topshiriqlar, testlar va masalalar to‘plami) bakalavriatning moliya, bank ishi, baholash ishi va boshqa yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan. E’tiborlisi, ushbu qo‘llanma (amaliy topshiriqlar, testlar va masalalar to‘plami)da mavjud mavzular “Bank ishi” bo‘yicha namunaviy, ishchi o‘quv dasturlarida rejalashtirilgan mavzular bo‘yicha tayyorlangan. O‘quv qo‘llanmaning har bir mavzusi bo‘yicha mavzuga oid asosiy ta’riflar va tushunchalar, mavzuga oid me’yoriy hujjatlar, tegishli masalalar, testlar, krossvord, talabalar bilimini mustahkamlash uchun nazorat savollari hamda glossariy keltirib o‘tilgan.

To‘plamda yigirma ikkita mavzuga oid amaliy mashg‘ulotlari, shuningdek, har bir mavzu uchun turli holatlarga oid amaliy masala, tayanch so‘z va iboralar, masalalar, testlar, asosiy ta’riflar va tushunchalar, mavzuga oid me’yoriy hujjatlar, krossvord va nazorat savollari ketma-ketlikda keltirilgan. Bu, o‘z navbatida, amaliy mashg‘ulot darslarini amaliy ma’lumotlar asosida, muhokama va munozara asosida tashkil etishga imkoniyat yaratadi.

Mashg‘ulotlar to‘plamining mavzulari banklar faoliyatini tashkil etish jarayoni, banklarning huquq va majburiyatlari, banklarning asosiy operatsiyalari va xizmatlari, ularni tashkil etish tartibi va huquqiy me’yorlari, banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, bankning moliyaviy holatini baholash, mijozlarning kreditga layoqatligini aniqlash va ularga xizmat ko‘rsatish talablari hamda bankning yakuniy hisobotini tayyorlashni o‘z ichiga olgan. Asosiysi, unda bank faoliyatining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha maqsad va vazifalar to‘g‘ri aniqlangan. Har bir bo‘limni bajarilishi bo‘yicha topshiriqlar va ko‘rsatmalar berilgan.

O‘quv qo‘llanmaning atroflicha o‘rganilishi, o‘z navbatida, bank ishini amalga oshirish jarayonining ketma-ketlik asosida bajariladigan ishlarini, ya’ni, uni bank faoliyatini tashkil etishdan toki banklarda yillik hisobot tuzish va rasmiylashtirishgacha bo‘lgan jarayonni bajarishga yordam beradi. Bundan tashqari, banklarning zamonaviy va innovatsion hamda raqamli bank xizmatlari bo‘yicha olgan bilimlarini yanada kengaytiradi va chuqurlashtiradi.

Mazkur qo‘llanma orqali talabalar o‘zini-o‘zi mustaqil nazorat qilishi va bilimlarini joriy nazoratdan o‘tkazishda foydalanilishlari mumkin. Talabalarga mustaqil ravishda banklar faoliyatini tashkil etish

va ular bo'yicha xulosasini tuzishga amaliy yordam ko'rsatadi va bilimlarni mustahkamlaydi.

O'quv qo'llanma to'g'risidagi fikr va mulohazalaringizni Toshkent moliya instituti "Bank ishi" kafedrasiga bildirishingiz mumkin.

1-MAVZU

BANK ISHI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Banklarni tashkil etish, ularning faoliyati va tugatilishi bilan bog'liq jarayonlar fanning obyekti hisoblanadi.

Fanni o'rganish metodlari uning maqsad va vazifalari bilan to'la mos keladi.

“Bank ishi” fanining maqsadi zamon talablari va jahon andozalariga to'liq javob bera oladigan oliy ma'lumotga ega bank xodimlarini tayyorlashdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun fanni o'rganish vazifalari mavjud bo'lib, ular tijorat banklarining klassik va zamonaviy operatsiyalari bilan chambarchas ravishda bog'liqdir. Qo'yilgan vazifalarga to'liq erishish uchun har bir vazifaga mos ravishda uni o'rganish metodlaridan foydalaniladi.

“Bank ishi” fani ushbu yo'nalish bo'yicha bakalavr kadrlarni tayyorlash bo'yicha Davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan barcha fanlar bilan o'zaro bog'liklikda o'rganiladi.

“Bank ishi” fani alohida fan bo'lishiga qaramasdan uning serqirra faoliyatining ayrim jihatlarini to'liq aks ettiruvchi nazariy va amaliy fanlar bilan o'zaro bog'liqda o'zlashtirish foydadan holi bo'lmaydi.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1992 yil 8 dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 11 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi (O'RQ-582-sonli) Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi (PQ-3270-sonli) Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr-dagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-3272-sonli) Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-3620-sonli) Qarori.

MAVZUGA OID MASALALAR

1.1-masala. Quyidagi jadvalda xalqaro reyting agentliklari hamda milliy reyting agentliklari tomonidan tijorat banklariga berilgan reyting baholari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

T/r	Bank nomi	Reyting agentligi nomi	Reyting bahosi	Milliy reyting agentligining reyting bahosi
1	“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati			
2	“O‘zbekiston sanoat-qurilish banki” aksiyadorlik tijorat banki			
3	“Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki			
4	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki			
5	O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki			
6	Chet el kapitali ishtirokidagi “Savdogar Bank” aksiyadorlik tijorat banki			
7	“Qishloq qurilish bank” Aksiyadorlik tijorat banki			
8	"Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki			

9	Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat banki			
10	“Asaka” aksiyadorlik tijorat banki			
11	“Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki			
12	Ziraat Bank Uzbekistan" aksiyadorlik jamiyati			
13	“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki			
14	“Aloqabank” Aksiyadorlik tijorat banki			
15	“Ipoteka-bank” aksiyadorlik tijorat ipoteka banki			
16	“KDB Bank O‘zbekiston” aksiyadorlik jamiyati			
17	“Turkiston” xususiy aksiyadorlik tijorat banki			
18	Eron “Soderot” bankining Toshkent shahridagi sho‘ba banki			
19	“Universal bank” Aksiyadorlik-tijorat banki			
20	“Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki			
21	“Ravnaq-bank” xususiy aksiyadorlik tijorat banki			
22	“Davr-bank” xususiy aksiyadorlik tijorat banki			
23	Chet el kapitali ishtirokidagi “Invest Finance Bank” aksiyadorlik tijorat banki			
24	“ASIA ALLIANCE BANK” aksiyadorlik tijorat banki			
25	“HI-TECH BANK” xususiy aksiyadorlik tijorat banki			

26	“Orient Finans” xususiy aksiyadorlik tijorat banki			
27	"Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat banki			
28	“O‘zagroeksportbank” aksiyadorlik tijorat banki			
29	“Poytaxt bank” aksiyadorlik jamiyati			
30	“Tenge Bank” aksiyadorlik tijorat banki			
31	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki			

Aniqlang:

1. Xorijiy reyting agentligining nomi va bergan reyting bahosi.
2. Milliy reyting agentligining bergan reyting bahosi.

1.2-masala. “Bank ishi” fanini o‘rganish metodlarining mazmunini yozing.

T/r	O‘rganish metodlari	Mazmuni
1.	Tizimli yondashuv	
2.	Kompleksli yondashuv	
3.	Tarkibiy yondashuv	
4.	Vaziyatli yondashuv	
5.	Integratsion yondashuv	
6.	Modellashtirish usuli	
7.	Iqtisodiy matematik yondashuv	
8.	Kuzatish usuli	
9.	Tajriba usuli	
10.	Sotsiologik kuzatuv usuli	

MAVZUGA OID TESTLAR

1.1-testlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi (PF-4947-sonli) Farmoni qachon qabul qilindi?

- A. 2017 yil 2 sentyabr
- B. 2017 yil 13 sentyabr

- C. 2017 yil 7 fevral
- D. 2017 yil 12 sentyabr

2. *Harakatlar strategiyasida tijorat banklarining to'lovga qobilligini ta'minlashning qaysi jihati o'z aksini topgan?*

- A. banklar aktivlarining sifatini oshirish
- B. tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirish
- C. banklarning depozit bazasini kengaytirish
- D. bank nazorati tizimini rivojlantirish

3. *Harakatlar strategiyasiga muvofiq, qarzdorning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotni kreditorga taqdim etish muddati necha kun qilib belgilanadi?*

- A. 3 kun
- B. 10 kun
- C. 5 kun
- D. 20 kun

4. *Harakatlar strategiyasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosatini takomillashtirishning qaysi mezonini o'z aksini topgan?*

- A. pul-kredit siyosatining me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish
- B. ilg'or xorij tajribasida qo'llanilayotgan instrumentlardan foydalanish
- C. pul-kredit siyosatining taktik maqsadlarini o'zgartirish
- D. inflyatsion targetlashni joriy qilish

5. *Harakatlar strategiyasida bank tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifani ko'rsating.*

- A. banklarning kapitallashish darajasini oshirish
- B. tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash
- C. bank kassalariga naqd pul tushumlarini rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish
- D. banklarning likvidligini ta'minlash

6. *Harakatlar strategiyasida 2017–2021-yillarda Islom taraqqiyot bankining qancha miqdordagi kreditlarini jalb etish ko'zda tutilgan?*

- A. 0,5 mlrd. dollardan kam bo'lmagan miqdordagi
- B. 2,0 mlrd. dollardan kam bo'lmagan miqdordagi

- C. 5,0 mlrd. dollardan kam bo‘lmagan miqdordagi
- D. 1,0 mlrd. dollardan kam bo‘lmagan miqdordagi

7. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (PQ-3270-sonli) Qarori qachon qabul qilindi?*

- A. 2018 yil 9 yanvar
- B. 2017 yil 13 sentyabr
- C. 2017 yil 12 sentyabr
- D. 2017 yil 2 sentyabr

8. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (PQ-3272-sonli) Qarori qachon qabul qilindi?*

- A. 2017 yil 12 sentyabr
- B. 2017 yil 13 sentyabr
- C. 2017 yil 2 sentyabr
- D. 2018 yil 9 yanvar

9. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (PF-5296-sonli) Farmoni qachon qabul qilindi?*

- A. 2017 yil 13 sentyabr
- B. 2017 yil 12 sentyabr
- C. 2018 yil 9 yanvar
- D. 2017 yil 2 sentyabr

10. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi (PF-5177-sonli) Farmoni qachon qabul qilindi?*

- A. 2017 yil 2 sentyabr
- B. 2017 yil 13 sentyabr
- C. 2017 yil 12 sentyabr
- D. 2018 yil 9 yanvar

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

1.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

bank —
banklar guruhi —
bank hisobvarag‘i —
bankning barqaror moliyaviy holati —
bilvosita egalik qiluvchi (oluvchi) —
muhim ahamiyatga ega xodimlar —
mo‘ljallangan olish —
oxirgi benefitsiar mulkdor —
prudentsial nazorat —
regulyativ kapital —
tizimli ahamiyatga molik bank —
chet el banki —
hal qiluvchi egalik —

1.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar.

1. “Bank ishi” fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. “Bank ishi” fani nimani o‘rganadi?
3. Fanni o‘qitishda qanday usullardan foydalaniladi?
4. Ilg‘or pedagogik texnologiyalarning qaysi turlari “Bank ishi” fanini o‘qitishda qo‘llaniladi?
5. “Bank ishi” fan sifatida qachon shakllangan?
6. Bankning mohiyati xususida fanda qanday ilmiy qarashlar mavjud?
7. “Bank ishi” fanini o‘qitishga qo‘yiladigan talablarning kuchayishi qaysi sabablar bilan izohlanadi?
8. “Bank ishi” fani qaysi iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqadorlikda?
9. “Bank ishi” fani qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?

2-MAVZU.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI VA BOSHQA KREDIT MUASSASALARI

MAVZUGA OID ASOSIY TA’RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini respublika Markaziy banki boshqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z moliya va pul-kredit tizimiga ega.

Bank — bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to‘lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag‘larini jalb etish, o‘z nomidan kreditlar berish bo‘yicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxs;

banklar guruhi — moliya institutlarining yuridik shaxs bo‘lmagan birlashmasi bo‘lib, bunda asosiy bank boshqa moliya institutlarini nazorat qiladi;

tizimli ahamiyatga molik bank — bank tizimining barqarorligi qaysi bankning faoliyatiga bog‘liq bo‘lsa, o‘sha bank;

chet el banki — chet davlatning hududida ro‘yxatga olingan, uning qonun hujjatlariga muvofiq bank deb hisoblanadigan yuridik shaxs;

Markaziy bank yuridik shaxs bo‘lib, u davlatning mutlaq mulkidir va o‘z xarajatlarini o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi.

Markaziy bank o‘z vakolatlari hamda vazifalari doirasida davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlaridan mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi.

Markaziy bank davlatning majburiyatlari yuzasidan, davlat esa Markaziy bankning majburiyatlari yuzasidan, agar ularning o‘zi bunday majburiyatlarni o‘z zimmasiga olmagan bo‘lsa yoki qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, javobgar bo‘lmaydi.

MAVZUGA OID ME’YORIY HUJJATLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1992 yil 8 dekabr. 122, 124-moddalar.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi (O‘RQ-580-sonli) Qonuni, 3,4-moddalar.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 11 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi (O‘RQ-582-sonli) Qonuni, 3-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-3066-sonli) Qarori

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020 yil 30 iyundagi “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi (3252-sonli) Nizomi, 2-bo‘lim, 18,19-bandlar.

MAVZUGA OID MASALALAR

2.1-masala. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha tijorat banklarining tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan:

Yillar	Davlat banklari	Aksioner tijorat banklari	Xususiy banklar	Qo‘shma va sho‘ba banklar	Jami banklar
01.01.2011					
01.01.2012					
01.01.2013					
01.01.2014					
01.01.2015					
01.01.2017					
01.01.2017					
01.01.2018					
01.01.2019					
01.01.2020					

Aniqlang:

1. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining tarkibiy jihatidan o‘zgarish dinamikasini o‘rganing va unga xulosa bering.

2. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha mustaqil ravishda 2011–2020-yillarda faoliyat yuritayotgan banklarning sonini aniqlab jadvalga joylashtiring, shuningdek, ularning ko‘payish va kamayish sabablarini izohlang.

3. Jami banklar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qiling.

2.2-masala. Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nobank kredit muassasalari tarkibi yillar keisimida keltirilgan

Yillar	Mikrokredit tashkilotlari	Ro'yxatga olingan hududi	Lombardlar	Ro'yxatga olingan hududi
01.01.2011				
01.01.2012				
01.01.2013				
01.01.2014				
01.01.2015				
01.01.2017				
01.01.2017				
01.01.2018				
01.01.2019				
01.01.2020				

Aniqlang:

1. O'zbekiston Respublikasida nobank kredit muassasalarining tarkibiy jihatidan o'zgarish dinamikasini o'rganing va unga xulosa bering.

2. Jami nobank kredit muassasalarining hududlar kesimida joylashganligini va o'zgarish dinamikasini tahlil qiling.

2.3-masala. Quyida Respublikamizda faoliyat yuritayotgan lombardlarning jamlanma balansi keltirilgan.

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2019 y.		01.01.2020 y.		O'zgarish, foizda
	mln. so'm	ulushi, foizda	mln. so'm	ulushi, foizda	
Aktivlar					
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	913		1 540		
Banklardagi mablag'lar	5 778		6 219		
Kreditlar, (sof)	86 269		104 992		
Asosiy vositalar, (sof)	2 171		2 760		

Hisoblangan foizlar	4 844		6 044		
Boshqa aktivlar	8 806		8 208		
Jami aktivlar	108 781		129 764		
Majburiyatlar					
Olingan kreditlar va lizing	1 803		4 106		
Hisobot yili sof foydasi hisobidan hisoblangan dividendlar	6 777		3 156		
Boshqa majburiyatlar	996		2 932		
Jami majburiyatlar	9 576		10 194		
Kapital					
Ustav kapitali	39 233		46 625		
Zaxira kapitali	4 963		5 574		
Taqsimlanmagan foyda	55 009		67 372		
Jami kapital	99 205		119 571		

Aniqlang:

1. Lombardlar balans elementlarining balansdagi ulushi(aktivlar, majburiyatlar, kapital)ni aniqlang.
2. Lombardlar balans elementlarining o'tgan yilga nisbatan o'zgarishini hisoblang.
3. Lombardlar faoliyati bo'yicha umumiy xulosa yozing.

2.4-masala. Quyida Respublikamizda faoliyat yuritayotgan mikrokredit tashkilotlarining jamlanma balansi keltirilgan.

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2019 y.		01.01.2020 y.		O'zgarishi, foizda
	mln. so'm	ulushi, foizda		ulushi, foizda	
Aktivlar					
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	879		3 409		

Banklardagi mablag'lar	3 445		14 210		
Kreditlar va mikrolizing, (sof)	321 959		642 374		
Asosiy vositalar, (sof)	11 680		17 406		
Hisoblangan foizlar	9 747		23 042		
Boshqa aktivlar	5 974		10 181		
Jami aktivlar	353 683		710 622		
Majburiyatlar					
Olingan kreditlar va lizing	103 645		252 488		
To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	1 295		7 683		
To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan soliqlar	2 200		1 015		
Boshqa majburiyatlar	8 169		10 494		
Jami majburiyatlar	115 309		271 680		
Kapital					
Ustav kapitali	169 505		277 618		
Zaxira kapitali	10 440		15 468		
Taqsimlanmagan foyda	58 429		145 856		
Jami kapital	238 374		438 942		

Aniqlang:

1. Mikrokredit tashkilotlari balans elementlarining balansdagi ulushi(aktivlar, majburiyatlar, kapital)ni aniqlang.

2. Mikrokredit tashkilotlari balans elementlarining o'tgan yilga nisbatan o'zgarishini hisoblang.

3. Mikrokredit tashkilotlari faoliyati bo'yicha umumiy xulosa yozing.

MAVZUGA OID TESTLAR

2.1-testlar

1. *O‘zbekiston Respublikasi mustaqil bank tizimi rivojlanishining birinchi bosqichini nima yakunlab berdi?*

- A. xususiy banklarning paydo bo‘lishi va ularga imtiyozlarning berilishi
- B. milliy valyutaning muomalaga kiritilishi
- C. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi va “Markaziy bank to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi
- D. ixtisoslashtirilgan banklarning tugatilishi va universal banklarning paydo bo‘lishi

2. *Banklarning ilk funktsiyasi nimalardan iborat bo‘lgan?*

- A. Xalq xo‘jaligidagi vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini yig‘ish va kapitalga aylantirish
- B. Tijoratchilarga kredit berish
- C. Naqd pulsiz hisob kitoblarni amalga oshirish
- D. Tovar ishlab chiqarish

3. *Banklar olib boradigan faoliyatiga qarab qanday turlarga bo‘linadi?*

- A. Yirik, o‘rta va kichik
- B. Ulgurji va chakana
- C. Ixtisoslashgan va universal
- D. Aksiyadorlik, qo‘shma, xususiy va sho‘ba

4. *Tijorat banklari mulkchilik shakliga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?*

- A. davlat, aksiyadorlik, qo‘shma, xususiy va sho‘ba
- B. Ixtisoslashgan va universal
- C. Yirik, o‘rta va kichik
- D. Ulgurji va chakana

5. *Respublikamiz to‘lov tizimi rivojlanishining 1-bosqichi qaysi davrni o‘z ichiga oladi?*

- A. 1989-1993 yillar
- B. 1995-2000 yillar
- C. 1995-1998 yillar
- D. 1991-1994 yillar

6. *Respublikamiz to'lov tizimi rivojlanishining 2-bosqichi qaysi davrni o'z ichiga oladi?*

- A. 1994-1998 yillar
- B. 1992-1998 yillar
- C. 1994-2000 yillar
- D. 1995-1997 yillar

7. *Respublikamiz to'lov tizimi rivojlanishining 3-bosqichi qaysi davrni o'z ichiga oladi?*

- A. 1998-2001 yillar
- B. 1996-2006 yillar
- C. 1998-2006 yillar
- D. 1994-2006 yillar

8. *Respublikamiz to'lov tizimi rivojlanishining 4-bosqichi qaysi davrni o'z ichiga oladi?*

- A. 2002 yildan hozirga qadar
- B. 2006-2010
- C. 2006-2014
- D. 2006 dan hozirga qadar

9. *Banklararo to'lov tizimining qoidalari kim tomonidan belgilanadi?*

- A. O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi
- B. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
- C. O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi
- D. Har bir tijorat bankida alohida Bank Kengashi tomonidan

10. *O'zbekiston bank tizimi necha pog'onali*

- A. 1
- B. 3
- C. 2
- D. 4

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

1.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

Tijorat banki –
Markaziy bank –


litsenziyalash departamenti –
nerezident bank –
xususiy tijorat banki –
Nobank kredit-moliya institutlari –
Lombard tashkilotlari –
mikrokredit tashkilotlari –
Bazel talablari –
«CAMEL» tizimi –
Tijorat banklarini nazorat qilish –
Jahon moliyaviy inqirozi –

1.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar.

1. Bank tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Sobiq Ittifoq davrida O‘zbekiston bank tizimining holati qanday bo‘lgan?
3. O‘zbekiston bank tizimining shakllanish jarayoni qanday kechgan?
4. Mamlakat bank tizimining rivojlanishi necha bosqichni bosib o‘tdi?
5. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining me‘yoriy-huquqiy asoslari qaysi qonunlarda va qonun osti hujjatlarida o‘z aksini topgan?
6. O‘zbekiston Markaziy banki yuridik shaxs sifatida qanday maqomga ega?
7. Respublika Markaziy banki qanday funktsiyalarni bajaradi?
8. O‘zbekiston Markaziy bankining mustaqilligi deganda nimani tushunasiz?
9. Respublika bank tizimida faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining yuridik shaxs sifatidagi maqomi va mulk shakli nimalardan iborat?
10. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan nobank moliya-kredit tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va resurs manbalari nimalardan iborat?
11. Respublika bank tizimini rivojlantirishning 2011–2015-yillarga mo‘ljallangan Kontseptsiyasida qanday ustuvor yo‘nalishlar belgilangan?
12. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirishning 2015–2019 yillarga mo‘ljallangan Kontseptsiyasida qanday ustuvor yo‘nalishlar belgilangan?

MAVZUGA OID KROSSVORD

2.1-krossvord



Eniga:

1. Bank faoliyatini nazorat qilish hamda risklarni tahlil qilish bo'yicha tizimlarni ishlab chiqadigan va takomillashtirib boradigan xalqaro qo'mita nomi

3. Tijorat banklari faoliyatining barcha muhim komponentlari, ya'ni kapital, aktivlar, boshqaruvchilik qobiliyati, daromadlilik, likvidlik, risklilikni baholashga imkon beradigan tizim

5. Markaziy bank tomonidan ishlab chiqiladigan hujjat turi

8. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan mikrocredit tashkilotlardan biri

10. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan chet el kapitali ishtirokidagi banklardan biri

11. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan lombard tashkilotlaridan biri

14. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xususiy banklardan biri

Bo'yiga:

1. To'lov operatsiyasini yakunlovchi bank

2. Bank-moliya tizimida ro'y bergan chuqur tang holatida yuzaga keladigan inqiroz

4. Banklar qanday shaklda tashkil etiladi
6. Bank shug‘ullanishga haqli bo‘lmagan faoliya turi
7. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik tijorat banklaridan biri
9. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan davlat banklaridan biri
12. Markaziy bank tomonidan chiqariladigan pul belgilari
13. Qimmatli qog‘ozlar narxi o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan risk majmui

3-MAB3Y

TIJORAT BANKLARINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY VA IQTISODIY ASOSLARI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Banklar aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etiladi.

Banklar Markaziy bankda davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomini oladi.

Banklar O'zbekiston Respublikasida o'z faoliyatini Markaziy bank tomonidan beriladigan, bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya asosida amalga oshiradi.

Bank o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va ustavi, "Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risida"gi Nizomga muvofiq Markaziy bank tomonidan berilgan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga asosan amalga oshiradi.

Banklarni litsenziyalash tartib-taomili quyidagi ikki bosqichdan iborat:

Markaziy bank tomonidan bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish;

bir vaqtning o'zida litsenziya bergan holda bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank faoliyati sohasini tartibga soluvchi va litsenziyalash, tartibga solish hamda prudentsial nazorat bo'yicha vakolatlarni amalga oshiruvchi davlat organidir.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun ariza beruvchi ta'xis shartnomasi imzolanganidan keyin uch oydan kechiktirmay Markaziy bankka tegishli hujjatlarni uch nusxada ilova qilgan holda taqdim etadi.

Bankni davlat ro'yxatiga olish va litsenziya olish uchun ariza beruvchi bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnoma olinganidan keyin olti oydan kechiktirmay Markaziy bankka talab etilgan hujjatlarni taqdim etishi kerak.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni, 15-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 11 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi (O‘RQ-582-sonli) Qonuni, 12-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-3066-sonli) Qarori

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020 yil 30 iyundagi “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi (3252-sonli) Nizomi, 2-bo‘lim, 18, 19-bandlar

MAVZUGA OID MASALALAR

3.1-masala. Quyidagi jadvalda Markaziy bank va respublika tijorat banklari ro‘yxati keltirilgan.

T/r	Bank nomi	Litsen- ziya raqami	Litsen- ziya sanasi	O‘zgar- tirilgan sana	Ochil- gan sana	Veb- sayti
1	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki					
2	“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati					
3	“O‘zbekiston sanoat-qurilish banki” aksiyadorlik tijorat banki					
4	“Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki					
5	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki					
6	O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki					

7	Chet el kapitali ishtirokidagi "Savdogar" aksiyadorlik tijorat banki					
8	"Qishloq qurilish bank" Aksiyadorlik tijorat banki					
9	"Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki					
10	Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki					
11	"Asaka" aksiyadorlik tijorat banki					
12	"Ipak Yo'li" aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki					
13	"Ziraat Bank Uzbekistan" aksiyadorlik jamiyati					
14	"Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki					
15	"Aloqabank" Aksiyadorlik tijorat					
16	"Ipoteka-bank" aksiyadorlik tijorat banki					
17	"KDB Bank O'zbekiston" aksiyadorlik jamiyati					
18	"Turkiston" xususiy aksiyadorlik tijorat banki					
19	Eron "Soderot" bankining Toshkent shahridagi sho'ba banki					
20	"Universal bank" Aksiyadorlik-tijorat banki					

21	“Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki					
22	“Ravnaq-bank” xususiy aksiyadorlik tijorat banki					
23	“Davr-bank” xususiy aksiyadorlik tijorat banki					
24	Chet el kapitali ishtirokidagi “Invest Finance Bank” aksiyadorlik tijorat banki					
25	“ASIA ALLIANCE BANK” aksiyadorlik tijorat banki					
26	“HI-TECH BANK” xususiy aksiyadorlik tijorat bank					
27	“Orient Finans” xususiy aksiyadorlik tijorat banki					
28	"Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat banki					
29	“O‘zagroeksportbank” aksiyadorlik tijorat banki					
30	“Poytaxt bank” aksiyadorlik jamiyati					
31	“Tenge Bank” aksiyadorlik tijorat banki					
32	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki					

Aniqlang:

- Banklarni litsenziya raqami va sanasi hamda o‘zgartirilgan sanasini jadvalga joylashtiring.

- Banklarni tashkil topish muddatiga ko'ra raqamlab chiqing va rasmiy veb-saytini aniqlang.
- Banklarni mulkchilik shakliga ko'ra ajratib chiqing
- Banklarni faoliyat yo'nalishi bo'yicha guruhlariga ajrating.

3.2-masala. Tashkil etilayotgan bank ta'sis hujjatlariga muvofiq, uning ustav kapitali 160 mlrd so'm miqdorida belgilangan. Bank ustav kapitalini shakllantirishda bank ishtirokchilari ulushlari quyidagicha taqsimlangan:

	Ko'rsatkichlar	Mulk turi	Summasi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
1	"MICROS" AJ	Bino	20	
2	"PRINT MEDIA" MChJ	Pul mablag'lari	25	
3	"GLOBAL ELECTRONICS" AJ	Pul mablag'lari	18,5	
4	"MUBIN PACK" AJ	Pul mablag'lari	12	
5	"HYDRO COMPONENT" QK	Pul mablag'lari	14,5	
6	"REK INVEST" AJ	Pul mablag'lari	20,6	
7	"AGROKONTINENT" MChJ	Inshoot	16,4	
8	"SUPERMAX OIL" XKIK	Pul mablag'lari	18	
9	"MARS GROUP" QK	Pul mablag'lari	15	
	Jami		160	

Aniqlang:

1. Tijorat bank ustav kapitalini shakllantirish shartlari, tartibi va manbalarini sanab o'ting.

2. Yuqorida ko'rsatilgan muassislarning ulushlari bo'yicha tijorat bankiga Markaziy bank tomonidan litsenziya berilishi mumkinmi?

3. Har bir muassisning ustav kapitalidagi ulushini hisoblang. Markaziy bank tomonidan ta'sisчилarning ulushi 5% , 20% va undan yuqori bo'lsa qanday talablar qo'yiladi?

MAVZUGA OID TESTLAR

3.1-testlar

1. Quyidagilardan qaysi biri bankning boshqaruv organi hisoblanmaydi?

- A. aksiyadorlar umumiy yig'ilishi
- B. bank kengashi (kuzatuv kengashi)
- C. bank ichki audit xizmati
- D. bank boshqaruvi

2. Bank kengashi aksiyadorlari soni 501 dan 1000 nafargacha bo'lgan banklarda kamida necha nafar bo'lishi talab etiladi?

- A. besh a'zodan
- B. to'qqiz a'zodan
- C. etti a'zodan
- D. Bunday talab mavjud emas

3. O'zbekiston Respublikasi hududida o'z sho'ba banklarini ochmoqchi bo'lgan norezident banklarning qisqa muddatli majburiyatlariga nisbatan qanday qo'shimcha talab qo'yilgan?

- A. Fitch Ratings, Moody's yoki Standart and Poor's tasniflari bo'yicha A1 (yoki A+)dan past bo'lmagan reytingga ega bo'lishi
- B. Norezident bankning ustav kapitali kamida 10 mln yevro bo'lishi
- C. Norezident bankning ustav kapitali kamida 100 mln yevro bo'lishi
- D. Norezident banklarga nisbatan bunday talab mavjud emas

4. Banklar ustav kapitalining eng kam miqdorini kim belgilaydi?

- A. bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazil qo'mitasi tomonidan
- B. Vazirlar Mahkamasi tomonidan
- C. Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Markaziy bankning o'zaro kelishuviga asosan
- D. Markaziy bank tomonidan

5. *Tijorat banklarining filiallari qachondan boshlab o'z faoliyatlarini boshlaydilar?*

- A. ular ro'yxatga olingan vaqtdan 1 oy muddatdan keyin
- B. ular ro'yxatga olingan vaqtdan 6 oy muddat o'tgandan keyin
- C. ular ro'yxatga olingan vaqtdan boshlab
- D. ular ro'yxatga olingan vaqtdan 10 kun o'tgach

6. *Tijorat banklari filial ochishda yuridik yig'majild necha nusxada tayyorlanadi?*

- A. uch
- B. ikki
- C. bir
- D. Ushbu normativni Markaziy bank tijorat bankining mulkchilik shaklidan kelib chiqib belgilaydi

7. *Tijorat banklari chet elda o'z filiallari, vakolatxonalari va sho'ba banklarini ochish hamda banklar tashkil etishga qatnashish uchun qaysi tashkilotdan ruxsatnoma olishi shart?*

- A. Vazirlar Mahkamasi, Markaziy bank va Banklar Assotsiatsiyasi
- B. Oliy Majlis Senati
- C. Markaziy bank
- D. Bunday talab mavjud emas, faqat bankning moliyaviy holati barqaror bo'lishi shart

8. *Tijorat banki ixtiyoriy ravishda tugatilayotganda tugatish komissiyasi qancha muddat ichida Markaziy bankka hisobot va tugatish balansini taqdim etishi lozim?*

- A. 10 kun
- B. kun
- C. 30 kun
- D. 7 kun

9. *Tijorat banklari litsenziyalarini qaytarib olish to'g'risidagi Markaziy bank Boshqaruvining qarori qachondan boshlab kuchga kiradi?*

- A. qaror qabul qilingan vaqtdan 10 kun o'tgach
- B. qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab
- C. qaror qabul qilingan vaqtdan 7 kun o'tgach
- D. qaror qabul qilingan vaqtdan 1 oy o'tgach

10. *Tijorat banklari ixtiyoriy tugatilayotganda quyidagi hujjatlardan qaysi biri Markaziy bankka taqdim etilmaydi?*

A. aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan bankni tugatish to'g'risidagi tugatish sabablari ko'rsatilib qabul qilgan qarori

B. bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risidagi iltimosnoma bilan Markaziy bankka murojat qilingan vaqtdagi balans hisoboti

C. tijorat bankining kredit portfeli sifati haqida ma'lumot

D. aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tasdiqlagan tugatish rejasi

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

3.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

bank —

raqamli bank

bank aksiyadori —

norezident bank —

xususiy bank —

chet el bankining sho'ba banki —

chet el kapitali ishtirokidagi bank —

3.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar:

1. Tijorat banklariga litsenziya berish uchun qanday talablar bajarilishi lozim?

2. Qaysi shartlar bajarilganda tijorat banklariga valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi Bosh litsenziya beriladi?

3. Tijorat banklari qay tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi?

4. Tijorat banklari qanday funktsional tuzilishga ega?

5. Banklar qaysi shakllarda va qanday tartibda qayta tashkil etiladi?

6. Bankning Bosh litsenziyasini chaqirib olish uchun qaysi sabablar asos bo'ladi?

7. Qaysi holatlar tijorat banki faoliyatida vasiylikni joriy etish uchun sabab bo'ladi?

8. Tijorat banklarini tugatish tartibi qanday bo'ladi?

MAVZUGA OID KROSSVORD


3.1-krossvord

Eniga:

7. Bank boshqaruv organlari toifasidan biri
9. Litsenziya olish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqish vazifalari yuklatilgan Markaziy bankning tarkibiy tuzilmasi tarkibiga kiruvchi departamenti
10. Bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to‘lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag‘larini jalb etish, o‘z nomidan kreditlar berish bo‘yicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxs
12. Tijorat banklariga reyting beruvchi xalqaro reyting tashkilotining nomi
14. ustav kapitalida muassislar (aksiyadorlar) bo‘lgan jismoniy shaxslarning ulushi kamida ellik foizni tashkil etishi lozim bo‘lgan bank turi
15. Bank nomidan bank operatsiyalarining barchasini yoki bir qismini yoki vazifalarini amalga oshiruvchi alohida bo‘linma

Bo‘yiga:

1. kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mikro-moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi, jumladan, ma‘lum shartlarda mikrokredit va mikroqarz beruvchi tashkilotlar
2. Bank faoliyatining o‘ziga xos tavakkalchiliklarining oldini olish va kamaytirish maqsadida banklar faoliyati ustidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki amalga oshiradigan nazorat turi
3. Garovga qo‘yilgan muayyan buyumlar evaziga ma‘lum muddatga pul (mablag‘) berib turadigan tashkilot
4. Xorijiy davlat hududida ro‘yxatga olingan bank
5. Bank muassislari va aksiyadorlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan toifa
6. Ustav kapitali to‘laligicha norezident bank tomonidan shakllantiriladigan bank
8. Innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatini ko‘rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko‘rsatuvchi bank turi
11. Bank bo‘limlari faoliyatining asosiy huquqiy hujjati
13. Bank o‘z faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish uchun asos bo‘ladigan eng asosiy hujjat nima?



4-MAVZU

TIJORAT BANKLARINING PASSIV OPERATSIYALARI TARKIBI VA ULARNING JOYLASHISHI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Bankning ustav kapitali O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida shakllantiriladi hamda bank muassislari va aksiyadorlari kiritgan pul mablag'laridan yoki davlatning qimmatli qog'ozlaridan tashkil topadi.

Regulyativ kapital — bank faoliyatini tartibga solish va prudentsial normativlar hisob-kitobini amalga oshirish maqsadida hisob-kitob qilish yo'li bilan aniqlanadigan bank kapitali.

Regulyativ kapital I darajali kapital va II darajali kapitalning yig'indisidan iborat.

Kapital zaxiralar — soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan so'ng sof foyda yoki avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan shakllangan zaxiralar. Ulardan bank faoliyatida vujudga keladigan har qanday zararlarni ular yuzaga kelishi bilanoq hech qanday cheklashsiz qoplash uchun foydalanilishi mumkin.

Gudvill — xaridor tomonidan bank sotib olinishida uning sof aktivlari (barcha aktivlarning bozor bahosi va barcha majburiyatlarning bozor bahosi o'rtasidagi farq) qiymatidan ortiq to'lanadigan summa.

Leveraj — bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

Depozit — talab qilinishi bilanoq yoki to'lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to'lovni oluvchi shaxs yoxud ularning qonuniy vakillari o'rtasida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to'lagan holda yoxud bunday to'lovlarsiz qaytarib berish sharti bilan topshiriladigan milliy va chet el valyutasidagi pul summasi.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni, 13-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 11 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi (O'RQ-582-sonli) Qonuni, 12-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 – 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-3066-sonli) Qarori

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015 yil 7 iyuldagi “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi (2693-sonli) Nizomi, 2,3-bob.

MAVZUGA OID MASALALAR

4.1-masala. Quyida mamlakatimiz tijorat banklari balansining passiv qismi ma’lumotlari keltirilgan.

Ko‘rsatkichlar nomi	01.01.2018 y.		01.01.2019 y.		O‘zgarish, foizda
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	
Majburiyatlar					
Depozitlar	59 579		70 001		
Markaziy bankning vakillik hisobvarag‘i	537		498		
Boshqa banklarning mablag‘lari-rezident	5 641		6 391		
Boshqa banklarning mablag‘lari-norezident	121		512		
Olingan kreditlar va lizing operatsiyalari	72 819		104 379		
Chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar	190		10		
To‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar	1 049		2 181		
Boshqa majburiyatlar	6 019		3 769		
Jami majburiyatlar	145 956		187 741		

Jami kapital					
Ustav kapitali	16 307		19 673		
Qo‘shimcha kapital	68		89		
Zaxira kapitali	1 793		2 938		
Taqsimlanmagan foyda	2 508		3 979		
Jami kapital	20 676		26 679		

Aniqlang:

1. Bank majburiyatlarining o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi va ulushini hisoblang hamda xulosa yozing.

2. Bank kapitalining o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi va ulushini hisoblang hamda xulosa yozing.

4.2-masala. “Yulduz” AJ tijorat bankida 25000 mln. so‘mni depozitga 6 oyga qo‘yish imkoni bor. Tijorat banki quyidagi shartlarni taklif qilmoqda:

- 1) har kvartalga foizlarni kapitalizatsiya qilish bilan yillik 7,5 foiz;
- 2) har yilga foizlarni kapitalizatsiya qilish bilan yillik 8,5 foiz;
- 3) muddat tugashi bilan foizni qo‘shib to‘lashga yillik 10,5 foiz.

“Yulduz” AJ uchun eng foydali variantni tanlang va javobingizni asoslab bering.

4.3-masala. Fuqaro Bobur Bozorov 450 mln so‘m miqdoridagi pul mablag‘ini 9 oyga qo‘ymoqchi. Tijorat banki quyidagi shartlarni taklif qilmoqda:

- 1) har oyda foizlarni kapitalizatsiya qilish bilan yillik 19,0 foiz;
- 2) har kvartalga foizlarni kapitalizatsiya qilish bilan yillik 20,5 foiz;
- 3) yillik 21,0 foiz.

Omonat bo‘yicha foiz to‘lovlar omonatni qaytarish vaqtida to‘lanadi.

Topshiriq:

Har uchala holat bo‘yicha foydani hisoblab chiqing va B.Bozorovga eng qulay variantni tanlang.

4.4-masala. 500 mln. so‘m miqdoridagi omonat 91 kunga 2020-yil 10-fevralda qo‘yildi. Foizlarni hisoblash va to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- 2012-yil 29-fevralda;
- 31-martda;
- 30-aprelda,

- 14 mayda(12 va 13 may kunlari dam olish kunlari).

Foiz stavkasi yillik 18,0 foizni tashkil etadi.

Topshiriq

1. Ko'rsatilgan kunlarga hisoblangan va to'langan foizlarni aniqlang.
2. Foizlar hisoblab boriladigan hisob raqamini ayting.

4.5-masala. Mijoz bankka 15 aprelda 25000 ming so'm miqdorida omonat qo'ydi. 19-iyun kuni mijoz hisobdan 8000ming so'mnini echib oldi. Agar 1 yanvar holatiga mijozning omonatidagi umumiy daromad 1000 so'mni tashkil etgan bo'lsa, bankning depozit stavkasini aniqlang.

4.6-masala.

Bank 1 martdan 31 maygacha yillik 10% bilan 3 million so'm miqdorida mijozning mablag'larini jalb qiladi. Foizlar har oyda hisoblanadi. Aniqlang: omonatchi qanday daromad oladi. Foydalanishni hisoblashda "nemis amaliyoti"dan foydalaning.

4.7-masala. Kredit muassasasi omonatlarni yiliga 12 foizli oddiy stavka bilan qabul qiladi. Inglizcha amaliyotiga ko'ra olti oyga joylashtirilgan 12000 ming so'm miqdoridagi omonat bo'yicha foiz summasi miqdorini aniqlang.

4.8-masala. Quyidagi jadvalda bank tizimi jami kapitali va monandlilik darajasi berilgan.

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2018 y.		01.01.2019 y.	
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda
I darajali kapital	17 627		22 146	
<i>Asosiy kapital</i>	<i>17 580</i>		<i>22 061</i>	
<i>Qo'shimcha kapital</i>	<i>47</i>		<i>86</i>	
II darajali kapital	2 366		2 085	
Jami regulyativ kapital				
<i>Kapital monandlilik darajasi</i>		<i>18,8%</i>		<i>15,6%</i>
<i>I darajali kapital monandlilik darajasi</i>		<i>16,5%</i>		<i>14,3%</i>

Topshiriq:

1. Bank kapitali tarkibi va ulushini hisoblang hamda xulosa yozing.
2. Jami regulyativ kapitalni hisoblang va o'zgarishiga baho bering.
3. ROA va ROE koeffitsientlari qanday topiladi va ularning o'zgarishi bo'yicha xulosa yozing.

4.9-masala. Quyidagi jadvalda AT "Sanoatqurilishbank"ning kapitali tarkibi berilgan. (01.01.2020 y holatiga)

1	Kapital tarkibi	Ming so'm
1.1.	Oddiy aksiyalar	4 627 483 904
1.2.	Qo'shilgan kapital	0
1.3.	Taqsimlanmagan foyda va kapital zaxiralar	
a	Kapital zaxiralar	689 665 782
b	Taqsimlanmagan foyda	10 808 878
	Chegirmalarga qadar 1 darajali asosiy kapital	
1.6.	1 darajali kapitaldan chegirmalar	
a	Nomoddiy aktivlar	2 233 545
b	Kapitalga investitsiyalar	100 000 599
I	Jami 1 darajali asosiy kapital	
2	1 darajali qo'shimcha kapital	
2.1.	Nokumulyativ imtiyozli aksiyalar	7 030 000
2.2.	Qo'shilgan kapital	696 121
II	Jami 1 darajali qo'shimcha kapital	
III	1 darajali jami kapital	
	2 darajali kapital	
3.1.	Joriy yil sof foydasi	704 526 073
3.2.	Standart kreditlar (aktivlar) uchun xatarlarni hisobga olingan aktivlarning umumiy miqdoridan 1,25% dan ko'p bo'lmagan miqdorda tashkil qilingan zaxira	198 784 572
3.3.	Xarajatlardan ortiq bo'lgan o'sishning taxminiy qiymati	3 476 203

3.5.	Subordinar qarz	556 819 565
	Jami 2 darajali kapital	
V	Jami regulyativ kapital	
VI	jami tavakkalchilikka asoslangan aktivlar	
a	Riskni hisobga olgan holda balans va balansdan tashqari aktivlar summasi	27 358 359 007
b	Operatsion risk	915 928 604
v	Bozor riski	804 150 488
VII	1 darajali asosiy kapital koeffitsienti	
VIII	1 darajali kapital koeffitsienti (III/VI)	
IX	Umumiy kapital koeffitsienti (V/VI)	
X	Liverajni hisoblash uchun aktivlar	
a	Jami aktivlar	34 892 051 756
b	Balansdan tashqari vositalar	4 173 721 955
v	Derivativlar	0
g	Minus: Birinchi darajadali asosiy kapitaldan ajratmalar	100 000 599
XI	Leveraj koeffitsienti	

Topshiriq. Quyidagilarni hisoblang:

1. Taqsimlanmagan foyda va kapital zaxiralar summasi;
2. Chegirmalarga qadar 1 darajali asosiy kapital summasi;
3. 1 darajali kapitaldan chegirmalar summasi;
4. Jami 1 darajali asosiy kapital summasi;
5. Jami 1 darajali kapital qo‘shimcha kapital summasi;
6. 1 darajali jami kapital summasi;
7. Jami 2 darajali kapital summasi;
8. Jami regulyativ kapital summasi;
9. jami tavakkalchilikka asoslangan aktivlar summasi;
10. 1 darajali asosiy kapital koeffitsienti
11. 1 darajali kapital koeffitsienti
12. Umumiy kapital koeffitsienti
13. Liverajni hisoblash uchun aktivlar summasi
14. Leveraj koeffitsientini aniqlang.

4.10-masala. Banklarning minimal ustav kapitaliga bo‘lgan minimal talabni aniqlang.

Yillar	Tijorat banklari uchun	Chet el kam ishtirokida ochilayotgan banklar uchun	Xususiy banklar uchun
1 yanvar 1998			
1 yanvar 1999			
1 yanvar 2000			
1 yanvar 2002			
1 yanvar 2005			
1 yanvar 2008			
1 yanvar 2011			
1 yanvar 2017			

MAVZUGA OID TESTLAR

4.1-testlar

1. Tijorat banklarida kapital zaxiralar qanday ataladi?

A. soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langandan so‘ng sof foyda yoki avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan shakllangan zaxiralar

B. bank faoliyati davomida umuman yoki biror-bir faoliyat turi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash maqsadida tashkil qilinadigan zaxiralar

C. «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» sifatida tasniflangan aktivlar bo‘yicha ehtimoliy zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxiralar

D. bankning o‘ziga tegishli bo‘lgan xorijiy valyutadagi kapital zaxira qiymatining o‘sishi natijasida yuzaga keladigan zaxiralar

2. 2017 yilning 1 oktyabridan boshlab tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdori qanchani tashkil etishi lozim?

- A. 150,0 mlrd. so‘m
- B. 200,0 mlrd. so‘m
- C. 100,0 mlrd. so‘m
- D. 125,0 mlrd. so‘m

3. Qanday holatda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklarga nisbatan regulyativ kapital miqdorini oshirish to‘g‘risidagi talablarni qo‘yishga haqli?

- A. Bank aktivlari sifat darajasi pasayib ketganda
- B. bank foydasining qoniqarsiz prognozi yuzaga kelganda
- C. Bank likvidliligi belgilangan me‘yordan 50 foizga kamayib ketganda
- D. Bank depozit bazasi 30 foizga kamayganda

4. I darajali kapital regulyativ kapitalning necha foizidan kam bo‘lmasligi lozim?

- A. 60
- B. 50
- C. 75
- D. Bunday talab mavjud emas, bu masala bank Boshqaruvi tomonidan mustaqil hal etiladi

5. I darajali asosiy kapital bank regulyativ kapitalining necha foizidan kam bo‘lmasligi kerak?

- A. 75
- B. 50
- C. 100
- D. 60

6. Quyidagilardan qaysi biri I darajali asosiy kapital tarkibiga kirmaydi?

- A. subordinar qarz
- B. bankning to‘liq to‘langan oddiy aksiyalari
- C. taqsimlanmagan foyda (zarar)
- D. devalvatsiya zaxirasi

7. *Quyidagilardan qaysi biri I darajali asosiy kapital tarkibiga kiradi?*

- A. joriy yildagi sof foydasi
- B. qo‘shilgan kapital
- C. subordinar qarz
- D. aktivlarning boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasining 45 foizi miqdori

8. *Subordinar qarzning maksimal darajasi qancha qilib belgilangan?*

- A. I darajali kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak
- B. I darajali kapitalning uchdan ikki qismidan oshmasligi kerak
- C. I darajali kapitalning uchdan bir qismidan oshmasligi kerak
- D. Aniq belgilangan me‘yor mavjud emas

9. *I darajali asosiy kapitaldan quyidagilardan qaysi biri chegiriladi?*

- A. subordinar qarz
- B. taqsimlanmagan foyda (zarar)
- C. Imtiyozli nokumulyativ aksiyalar
- D. nomoddiy aktivlar

10. *Qaysi omonat turida bank omonati shartnomasida belgilangan tartibda dastlabki omonat summasiga qo‘shimcha mablag‘lar kiritib borish huquqi mavjud?*

- A. Muddatli omonatlar
- B. Jamg‘arma omonatlar
- C. Depozit sertifikatlari
- D. talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar

11. *O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?*

- A. 2004 yil 15 mart
- B. 2002 yil 5 may
- C. 2002 yil 5 aprel
- D. 2006 yil 5 aprel

12. Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondining pul mablag' lari qaerda saqlanadi?

- A. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida
- B. O'zbekiston banklari assotsiatsiyasida
- C. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida
- D. O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida

13. Bankning Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondiga bir yo'la to'laydigan badali miqdori qancha?

- A. bankning amalda shakllangan ustav kapitali miqdorining 0,05 foizi
- B. bankning amalda shakllangan ustav kapitali miqdorining 0,5 foizi
- C. bankning amalda shakllangan ustav kapitali miqdorining 0,1 foizi
- D. bankning amalda shakllangan ustav kapitali miqdorining 1,0 foizi

14. Qanday holatda banklar tomonidan Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondiga kalendar badallarni to'lash to'xtatiladi?

- A. Kalendar badallarning to'langan summasi fuqarolarning bankdagi omonatlari qoldig'i umumiy summasining 1,0 foiziga etganda
- B. Kalendar badallarning to'langan summasi fuqarolarning bankdagi omonatlari qoldig'i umumiy summasining 5 foiziga etganda
- C. Kalendar badallarning to'langan summasi fuqarolarning bankdagi omonatlari qoldig'i umumiy summasining 3,0 foiziga etganda
- D. Kalendar badallarning to'langan summasi bank birinchi darajali kapitali summasining 5 foiziga etganda

15. Quyidagilardan qaysi biri banklarning Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi oldidagi majburiyatlari hisoblanmaydi?

- A. Fond bilan yozma bitimlar tuzishlari
- B. har chorakda bankning moliyaviy holati to'g'risida fondga ma'lumot berib turishi
- C. majburiy badallarni o'z vaqtida va to'liq miqdorda to'lashlari

D. kafolatlanishi zarur bo'lgan fuqarolarning banklardagi omonatlari soni va miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Fondga taqdim etishlari

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

4.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

Bank passivlari-

Umumiy zaxiralar-

Depozit operatsiyalari -

Depozit siyosati –

Tranzaksion depozitlar-

Jamg'arma omonatlar –

Banklararo kredit - Bank talablari –

Kapital zaxiralar –

Umumiy zaxiralar –

Maxsus zaxiralar –

Nomoddiy aktivlar –

Gudvill –

Leveraj –

Regulyativ kapital –

Tavakkalchiligi past bo'lgan mamlakatlar –

Muddati uzaytirilgan soliq aktivlari va muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari –

Subordinar qarz-

4.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat bankining resurslari deganda nimani tushunasiz?

2. Tijorat banklari resurslarini shakllantirishning qanday modellari va usullari mavjud?

3. Tijorat banklari resurslarining depozitli manbalariga nimalar kiradi?

4. Banklar resurslarining depozitsiz manbalariga nimalar kiradi?

5. Tijorat banklari depozitlarining etarliligi qanday aniqlanadi?


6. Tijorat banklari kapitalining etarliligi qanday aniqlanadi?

7. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari qay tartibda muomalaga chiqariladi?

8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari kapitalining etarliligini oshirishga nisbatan qo'yilgan qanday yangi talablarni bilasiz?

MAVZUGA OID KROSSVORD

4.1-krossvord



Eniga:

1. Bank omonati shartnomasida belgilangan tartibda dastlabki omonat summasiga qo‘shimcha mablag‘lar kiritib borish huquqi bilan muayyan shartlar asosida jamg‘ariladigan va ma‘lum maqsadlarda yo‘naltiriladigan omonat turi

6. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langandan so‘ng sof foyda yoki avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan shakllangan zaxiralar qanday zaxira deb ataladi?

8. Omonat kassalarda bajariladigan operatsiyalar bo‘yicha hujjatlarni rasmiylashtirish, kassaning kunlik operatsiya hisobotlarini tayyorlash bilan shug‘ullanadigan hamda kassadagi naqd pul va boshqa qimmatliklarning to‘g‘ri ishlatilishini va kassir faoliyatini nazorat qiladigan mas‘ul javobgar xodim

11. Bank oldidagi barcha majburiyatlar bu bank...

12. Talab qilinishi bilan oq yoki to‘lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to‘lovni oluvchi shaxs yoxud ularning qonuniy vakillari o‘rtasida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to‘lagan holda yoxud bunday to‘lovlarsiz qaytarib berish sharti bilan topshiriladigan milliy va chet el valyutasidagi pul summasi

13. Xaridor tomonidan bank sotib olinishida uning sof aktivlari (barcha aktivlarning bozor bahosi va barcha majburiyatlarning bozor bahosi o'rtasidagi farq) qiymatidan ortiq to'lanadigan summa

14. Omonat kassalarga naqd pul va boshqa qimmatliklarni qabul qilish va chiqim qilish bilan shug'ullanuvchi hamda kassadagi naqd pul va boshqa qimmatliklar qoldig'ining hisobotlar bo'yicha to'g'riligiga mas'ul javobgar xodim

Bo'yiga:

2. Bank faoliyatini tartibga solish va iqtisodiy me'yorlar hisob-kitobini amalga oshirish maqsadida hisoblash yo'li bilan aniqlanadigan bank kapitali

3. Yuridik shchaxslarning bo'sh pul mablag'lari ular mablag'ini talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit turi

4. Mablag'larini jalb qilish va ularni boshqarilishini samarali tashkillashtirishdan iborat bank siyosati

5. Bank omonati shartnomasida belgilangan muddat tugaganidan keyin qaytarish sharti bilan jalb qilingan omonatlar

7. Bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich

5. Bank muassislari va aksiyadorlari bo'lishi mumkin bo'lgan toifa

6. Ustav kapitali to'laligicha norezident bank tomonidan shakllantiriladigan bank

8. Innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatini ko'rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank turi

11. Bank bo'limlari faoliyatining asosiy huquqiy hujjati

TIJORAT BANKLARINING AKTIV OPERATSIYALARI TARKIBI VA ULARNING JOYLASHISHI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari – bu banklarning passiv operatsiyalari natijasida shakllantirilgan mablag‘larini iqtisodiy jihatdan daromad (foyda) olish maqsadida turli maqsadlarga joylashtirish va likvidligini ta‘minlash bilan bog‘liq operatsiyalardir.

Yuqorida qayd etilganlarga asoslanib, banklarning aktiv operatsiyalarini to‘rtta guruhga ajratish mumkin.

1. Erkin zaxiralar – bunga kassadagi naqd pullar, Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiqlar, boshqa kredit tashkilotlarning vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar. Erkin zaxiralar yuqori likvidli mablag‘lar hisoblanib, bankka qisman yoki umuman daromad keltirmaydi.

2. Berilgan kreditlar va depozit ko‘rinishida boshqa moliya muassasalariga, shuningdek, Markaziy bankka joylashtirilgan mablag‘lar.

3. Investitsiyalar – bu bankning qimmatli qog‘ozlarga va nomoddiy aktivlarga, shuningdek, pay ko‘rinishida xo‘jalik faoliyatiga yo‘naltirilgan resurslari.

4. Bankning o‘ziga (ichki investitsiyalar) moddiy va nomoddiy aktivlarga yo‘naltirilgan mablag‘lari. Bunga bank faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan binolar, jihozlar va boshqa uskunalar kiradi.

✓ asosan banklarning aktivlari sifatiga ko‘ra:

standart;

substandart;

qoniqarsiz;

shubhali;

umidsiz toifalarga tasniflanadi.

Bank aktivlari likvidli, ya‘ni, tez naqd mablag‘ga aylantirish imkoniyati bo‘lishi kerak. Bank aktivlari likvidlilik nuqtai nazaridan quyidagilarga bo‘linadi:

✓ Yuqori likvidli aktivlar – bevosita pul ko‘rinishidagi mablag‘lar bo‘lib, ushbu aktivlar istalgan paytda bank majburiyatini bajarishga yo‘naltirilishi mumkin;

✓ qisqa muddatli likvidli aktivlar – qisqa muddatli kreditlar va ikkilamchi bozorga ega bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar;

- ✓ qiyin realizatsiya qilinadigan aktivlar – o‘rta va uzoq muddatli kreditlar, ikkilamchi bozorga ega bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar, pay ulushlari va boshqalar;
- ✓ past likvidli aktivlar – bankning asosiy vositalariga yo‘naltirilgan mablag‘lar kiradi.

MAVZUGA OID ME‘YORIY HUJJATLAR

O‘zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to‘g‘risida Nizom. 200 yil 2 mart, 906-sonli

Foizlarni o‘stirmaslik to‘g‘risida Nizom. 2004 yil 24 yanvar, 1304-sonli

Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to‘g‘risida Nizom. 2004 yil 30 yanvar, 1306-sonli

Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish to‘g‘risida Nizom. 2015 yil 14 iyul, 2696-sonli

MAVZUGA OID MASALALAR

5.1-masala. Quyida mamlakatimiz tijorat banklari balansining aktiv qismi ma‘lumotlari keltirilgan.

Ko‘rsatkichlar nomi	01.01.2018 y.		01.01.2019 y.		O‘zgarishi, foizda
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	
Aktivlar					
Kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari	4 841		5 269		
Markaziy bankdagi mablag‘lar	14 909		11 429		
Boshqa banklardagi mablag‘lar-rezident	6 713		6 374		
Boshqa banklardagi mablag‘lar-norezident	18 347		13 545		
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar	1 649		2 277		

Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari	2 466		1 879		
Kredit qo'yilmalari, (sof)	108 467		164 670		
Asosiy vositalar, (sof)	2 335		3 488		
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	1 413		2 842		
Bankning boshqa xususiy mulklari	298		230		
Boshqa aktivlar	5 193		2 416		
Jami aktivlar	166 632		214 420		

Aniqlang:

1. Bank majburiyatlarining o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi va ulushini hisoblang hamda xulosa yozing.

2. Bank kapitalining o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi va ulushini hisoblang hamda xulosa yozing.

5.2-masala. Quyidagi jadvalda AT "Sanoatqurilishbank"ning aktivlari tarkibi berilgan. (01.01.2020 y holatiga)

№	AKTIVLAR	Ming so'm	Ulushi, foizda
1	Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	671 573 889	
2	Markaziy bankdagi mablag'lar	1 408 052 630	
3	Boshqa banklardagi mablag'lar, sof	2 799 499 874	
3.1.	Boshqa banklardagi mablag'lar, brutto	2 799 499 874	
3.2.	Minus: Mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zaxira	0	
4	Oldi-sotdi hisobraqamlari, sof	81 918 413	
4.1.	Sotish uchun mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar, brutto	81 918 413	
4.2.	Minus: Mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zaxira	0	

5	Qimmatli metallar, toshlar, sof	875	
5.1.	Qimmatli metallar, toshlar, brutto	875	
5.2.	Minus: Mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar uchun zaxira	0	
6	Investitsiyalar, sof	100 000 599	
6.1.	Investitsiyalar, brutto	128 724 827	
6.2.	Minus: Mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar uchun zaxira	28 724 228	
7	Qayta sotib olish sharti bilan sotilgan qimmatli qog‘ozlar	0	
8	Kredit va lizing operatsiyalari, sof	28510664022	
8.1.	Kredit va lizing operatsiyalari, brutto	29 442 304 050	
8.2.	Minus: Mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar uchun zaxira	931 640 028	
9	Sotib olingan veksellar, sof	0	
11	Asosiy vositalar, sof	402 646 672	
12	Jami hisoblangan foizli va foizsiz daromadlar, sof	413 696 198	
13	Bankning boshqa mulklari, sof	60 842 719	
14	Boshqa aktivlar, sof	443 155 865	
15.	Jami aktivlar	34 892051756	

Bajaring:

1. Bank aktivlari tarkibini tahlil qiling va tegishli xulosalarni shakllantiring?

2. Bank aktivlarini risklilik darajasiga ko‘ra guruhlariga ajratib, ularga tavsif bering?

3. Bank aktivlarini daromadlilik darajasiga ko‘ra guruhlariga ajrating va xulosalar bering?

4. Bank aktivlarini likvidlilik darajasiga ko‘ra guruhlariga ajrating va ularni tavsiflang?

5. Bank aktivlarining diversifikatsiyasiga baho bering va shaxsiy xulosangizni tayyorlang?

5.3-masala. Bank kassasidan 2020 yil 12 martda quyidagi maqsadlarga naqd pul berildi:

• "SITYBIKE" ishlab chiqarish birlashmasiga ish haqi tarqatish uchun naqd pul berildi – 8755000 so‘m

- "ABK-MEDICAL" MChJ ehtiyojlari uchun naqd pul berildi – 3150000 so‘m
- "GOLDEN CAMEL TOURISM" aksionerlik jamiyatiga ish haqi to‘lash uchun – 9585000 so‘m
- "ARDOTEX" firmasiga komandirovka xarajatlari uchun – 3200000 so‘m
- "SUPERMAX OIL" ishlab chiqarish birlashmasiga mukofot puli tarqatish uchun – 11250000 so‘m
- "TTZ" zavodiga safar xarajatlari uchun – 9000000 so‘m
- "AUTO VOLF GROUP" MChJ ehtiyojlari uchun – 1595000 so‘m.

Masala bo‘yicha quyidagilarni aniqlang:

- Bankdan naqd pul olish uchun qanday hujjatlar rasmiylashtiriladi?
- Pul cheklarini to‘lashda nazoratchi va kassirning hamda ma‘sul ijrochilar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat xususiyatlarini aytib o‘ting.
- Kassa kirim jurnalini to‘ldiring va chiqim kassasi kassirining spravkasi bilan solishtirish tartibini ko‘rsating.

5.4-masala. Quyida tijorat banklarining aktivlari keltirilgan, ming so‘m hisobida

№	Aktivlar	summasi	Risklilik darajasi	Riskka tortilgan akktivlar summasi
	AKTIVLAR			
1.	Kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari	147 282 148		
2.	Markaziy bankdagi mablag‘lar	882 512 091		
2.1	Markaziy bankdagi mablag‘lar (majburiy zaxira mablag‘lari)	373 156 154		
3.2	Boshqa banklardagi mablag‘lar – depozitlar	501 936 881		

3.3	Boshqa banklardagi mablag‘lar, plastik kartochkalar bo‘yicha	3 685 283		
4.	Oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlari, sof	81 919 288		
4.1	O‘zR hukumati va MB chiqargan qimmatli qog‘ozlar (veksel, obligatsiya va boshqalar)	81 918 413		
4.4	Boshqalar	875		
10	Kreditli lizing, sof	9 592 705 942		
11	Kreditli lizing, sud jarayonidagi	- 80 232		
12.	Investitsiyalar,sof	97 559 878		
14.	Asosiy vositalar, sof	402 646 672		
15.	Bankning boshqa mulklari, sof	60 842 719		
17.	Valyuta oldi –sotdi hisobraqamlari va valyuta pozitsiyasi	1 045 395 634		
19.	Naqd foizlar	52 230 947		
20.	Boshqa aktivlar	230 854 708		
21.	Jami aktivlar	13 472 648 113		

Topshiriq bo‘yicha quyidagilarni aniqlang:

1. Bank aktivlarining risklilik darajasini aniqlang?
2. Bank aktivlarining riskka tortilgan aktivlari summasini hisoblang?
3. Bank aktivlarini risklilik darajasi bo‘yicha guruhlariga ajrating va har bir guruhning jami aktivlardagi ulushini hisoblang va joriy holat bo‘yicha xulosa bering?.

MAVZUGA OID TESTLAR

5.1-testlar

1. *Tavakkalchilikdan holi bo‘lgan aktivlarga quyidagilardan qaysi biri kiradi?*

A. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vakillik va zaxira hisobvaraqlaridagi chet el valyutasidagi mablag‘lar

B. joriy bozor qiymatida baholangan va xalqaro moliya institutlari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar bilan ta‘minlangan aktivlar

C. tavakkalchilik darajasi past bo‘lgan mamlakatlar hukumatlari va Markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar

D. bank tomonidan berilgan barcha kreditlar

2. Minimal tavakkalchilik darajasiga ega aktivlarga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

A. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vakillik va zaxira hisobvaraqlaridagi chet el valyutasidagi mablag‘lar

B. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy bankiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘yilgan talablar va ular tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar

C. jismoniy shaxslarga bir oilaga uy-joy sotib olish yoki qurish uchun berilgan va dastlabki garov sifatida sotib olinayotgan yoki qurilayotgan uy-joyga ajratilgan kreditlar

D. milliy valyutaga denominatsiya qilinmagan va milliy valyutada moliyalashtirish summasidan oshib ketgan aktivlar

3. Quyidagilardan qaysi biri o‘rtacha tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar guruhiga kiradi?

A. «o‘stirmaslik» maqomi berilgan kreditlar

B. sud jarayonidagi aktivlar va (yoki) belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar

C. jismoniy shaxslarga bir oilaga uy-joy sotib olish yoki qurish uchun berilgan va dastlabki garov sifatida sotib olinayotgan yoki qurilayotgan uy-joy bilan ta‘minlangan kreditlar

D. ikki yildan ko‘p bo‘lgan muddatda foydalanilmayotgan bankning ko‘chmas mulklari

4. Quyidagilardan qaysi biri yuqori tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar guruhiga kiradi?

A. bankning asosiy vositalari va boshqa xususiy mulklari

B. shartlari qayta ko‘rib chiqilgan yoki muddati bir marotabadan ortiq uzaytirilgan kreditlar

C. sud jarayonidagi aktivlar va (yoki) belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar

D. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vakillik va zaxira hisobvaraqlaridagi chet el valyutasi hisabidagi mablag‘lar

5. *Quyidagilardan qaysi biri o‘ta yuqori tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar guruhiga kiradi?*

A. milliy valyutaga denominatsiya qilinmagan va milliy valyutada moliyalashtirish summasidan oshib ketgan aktivlar

B. bankning asosiy vositalari va boshqa xususiy mulklari

C. «o‘stirmaslik» maqomi berilgan kreditlar

D. qarzini to‘liq yoki qisman undirish uchun bank balansiga olingan ko‘chmas mulk

6. *Quyidagilardan qaysi biri o‘ta yuqori tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar guruhiga kiradi?*

A. shartlari qayta ko‘rib chiqilgan yoki muddati bir marotabadan ortiq uzaytirilgan kreditlar

B. milliy valyutaga denominatsiya qilinmagan va milliy valyutada moliyalashtirish summasidan oshib ketgan aktivlar

C. bankning asosiy vositalari va boshqa xususiy mulklari

D. jismoniy shaxslarga bir oilaga uy-joy sotib olish yoki qurish uchun berilgan va dastlabki garov sifatida sotib olinayotgan yoki qurilayotgan uy-joyga ajratilgan kreditlar

7. *Quyidagilardan qaysi biri yuqori tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar guruhiga kiradi?*

A. sud jarayonidagi aktivlar va (yoki) belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar

B. qarzini to‘liq yoki qisman undirish uchun bank balansiga olingan ko‘chmas mulk

C. bank dastlabki garov huquqiga ega bo‘lmagan kreditlar

D. o‘tkazish jarayonidagi pul hujjatlari

8. *Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy miqdori (TAUS) qanday tarzda hisoblanadi?*

A. $TAUS = (100 / \text{belgilangan } K1 \text{ ning eng kichik darajasi}) \times X$ (Bankning oxirgi uch yildagi yalpi daromadining o‘rtacha summasi X 15 foiz)

B. TAUS = (foizli daromadlar — foizli xarajatlar) + (foizsiz daromadlar — foizsiz xarajatlar)

C. TAUS = Chegirmalar chiqarilgan tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi balans va balansdan tashqari aktivlar summasi + Operatsion tavakkalchiliklar summasi (OT) + Bozor tavakkalchiliklari summasi (BT);

D. TAUS = (100 / belgilangan K1 ning eng kichik darajasi) X (Ochiq valyuta pozitsiyalarining jami miqdori X 10 foiz)

9. Operatsion tavakkalchiliklar summasi (OT) qanday tarzda hisoblanadi?

A. OT = (100 / belgilangan K1 ning eng kichik darajasi) X (Bankning oxirgi uch yildagi yalpi daromadining o'rtacha summasi X 25 foiz)

B. OT = (100 / belgilangan K1 ning eng kichik darajasi) X (Bankning oxirgi uch yildagi yalpi daromadining o'rtacha summasi X 15 foiz)

C. OT = (100 / belgilangan K1 ning eng kichik darajasi) X (Bankning oxirgi uch yildagi yalpi daromadining o'rtacha summasi X 33,3 foiz)

D. OT = (100 / belgilangan K1 ning eng kichik darajasi) X (Bankning oxirgi uch yildagi yalpi daromadining o'rtacha summasi X 50 foiz)

10. Bozor tavakkalchiliklari summasi (BT) qanday tarzda hisoblanadi?

A. BT = (100 / belgilangan K1 ning eng kichik darajasi) X (Ochiq valyuta pozitsiyalarining jami miqdori X 20 foiz)

B. BT = (100 / belgilangan K1 ning eng kichik darajasi) X (Ochiq valyuta pozitsiyalarining jami miqdori X 5 foiz)

C. BT = (100 / belgilangan K1 ning eng kichik darajasi) X (Ochiq valyuta pozitsiyalarining jami miqdori X 10 foiz)

D. BT = (100 / belgilangan K1 ning eng kichik darajasi) X (Bankning oxirgi uch yildagi yalpi daromadining o'rtacha summasi X 15 foiz)

11. Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati necha foizdan kam bo'lmasligi kerak?

- A. 4,75
- B. 11,5
- C. 8
- D. 12,5

12. Kapitalning konservatsiya buferi nimadan iborat?

A. tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foizi miqdoridagi qo‘shimcha zaxiradan

B. tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 1,0 foizi miqdoridagi qo‘shimcha zaxiradan iborat

C. tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 5,0 foizi miqdoridagi qo‘shimcha zaxiradan iborat

D. tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 10 foizi miqdoridagi qo‘shimcha zaxiradan iborat

13. 2019 yil 1 yanvardan boshlab I darajali asosiy kapitalning monandlik koeffitsienti(K3)ning eng kichik darajasi qanchadan kam bo‘lmasligi lozim?

- A. 0,06 (6,0 foiz)
- B. 0,115 (11,5 foiz)
- C. 0,08 (8,0 foiz)
- D. 0,125 (12,5 foiz)

14. Tijorat banklarida leveraj koeffitsientining minimal ruxsat etilgan darajasi qanchaga teng?

- A. 0.08 ga teng (8 foiz)
- B. 0.04 ga teng (4 foiz)
- C. 0,1 ga teng (10 foiz)
- D. 0.06 ga teng (6 foiz)

15. Bank plastik kartalaridagi mablag‘lar (elektron plastik omonat kartalaridagi muddatli va jamg‘arma omonatlar bundan mustasno) qaysi depozit (omonat) turiga xos?

- A. Jamg‘arma omonatlar
- B. Muddatli omonatlar
- C. talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar
- D. Depozit sertifikatlari

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

5.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

- Bank aktivlari –
- Yuqori likvidli aktivlar —
- Likvidli aktivlar —
- Past likvidli aktivlar —
- Tijorat banklarining daromad keltirmaydigan aktivlari –
- Aktivlar —
- Muammoli aktivlar —
- Standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralar —
- SHartlari qayta ko‘rib chiqilgan aktivlar —
- Ta‘minlanmagan aktivlar —
- Standart aktivlar –
- Substandart aktivlar –
- Qoniqarsiz aktivlar -
- Shubhali aktivlar -
- Umidsiz aktivlar -

5.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat bankining aktiv operatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Tijorat banklarining aktivlari daromadlilikiga ko‘ra qanday guruhlanadi?
3. Tijorat banklarining aktivlari risk darajasiga ko‘ra qanday guruhlanadi?
4. Tijorat banklarining aktivlari likvidlilikiga ko‘ra qanday guruhlanadi?
5. Tijorat bankining balansi qanday tarkibiy qismlardan iborat?
6. Bank balansining aktiv qismi qaysi printsip asosida quriladi?
7. Bank balansining passiv qismi qaysi printsip asosida quriladi?
8. Tijorat banklari aktivlarining sifatini baholashda qaysi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin?
9. Banklarning aktivlar portfelini boshqarishda qaysi usullar qo‘llaniladi?
10. Tijorat banklarida aktivlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari qanday tashkil etiladi?
11. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining zamonaviy holati qanday?

MAVZUGA OID KROSSVORD

5.1-krossvord

Eniga:

5. Hisob-kitoblarni tashkil etish sohasidagi yangi xizmat turi bo'lib, mijozning kapitalini kreditlash bilan shug'ullanadi.

6. Sifati «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar turi

10. Shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan yoki qaytmasligidan dalolat beruvchi omillar yoki alomatlar mavjud bo'lgan hamda qaytmaydigan yoki qiymati juda pastligi tufayli hisobini balansda aktiv sifatida yuritilishi maqsadga muvofiq emas deb baholanadigan aktivlar

11. Qarz qimmatli qog'ozining nominal qiymati bilan har qanday sotib olingan, olinishi lozim bo'lgan foizlarning qarz qimmatli qog'oziga uchun to'langan miqdordan (sotib olishdagi xarajatlar hisobisiz) oshgan summasi

13. Evrovalyutalarda beriladigan kreditlardir

15. Qarzlarning o'z muddatida to'lanishiga shubha tug'dirmaydigan aktivlar sifati qanday tasniflanadi

Bo'yiga:

1. Daromad keltiradigan yoki boshqa naf beradigan xo'jalik faoliyati yoki sohibkorlik-tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish

2. Ta'minotsiz berilgan yoki ta'minoti belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan aktivlar.

3. Banklar o'z mablag'larini qo'ymasdan, ssuda bermasdan ko'rsatiladigan, asosan to'lov topshiriqnomasini bajarish bilan bog'liq operatsiyalar.

4. ... – Aksionerlik jamiyati sof foydasidan aksiya egalariga to'lanadigan qismi bo'lib, u aksionerlarga naqd pul yoki aksiyalar bilan to'lanadi.

7. Bank balansining aktiv qismida joylashgan moddalarining sifat nuqtai nazaridan uning umumiy miqdoridagi ulushi.


8. Qarzdorning moliyaviy holati barqaror hisoblangan, lekin ayrim salbiy holatlar yoki tendensiyalar mavjud bo'lib, agar ular bartarat etilmasa, moliyalashtirilgan loyihaning amalga oshishiga yoki

qarzdorning aktivni o'z vaqtida to'lash qobiliyatiga nisbatan shubha paydo bo'lishi mumkin bo'lgan aktivlar

9. Tomonlar o'rtasidagi mulkiy va moliyaviy munosabatlarni tashkil etuvchi asosiy vositalarning uzoq muddatli ijara asosida sotilishi

12. Kredit, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, bo'lib-bo'lib to'lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda moliyalash bilan bog'liq barcha boshqa talablar nima deyiladi?

14. Bank mijoz topshirig'i bilan ma'lum mulkni, pul qimmatli qog'ozlar ko'rinishida saqlash, o'tkazish va boshqarishni o'z zimmasiga oladigan operatsiya turi



TIJORAT BANKLARINING VALYUTA OPERATSIYALARI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Valyuta hisobvaraqlari – O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan chet el valyutasidagi talab qilib olinguncha, jamg‘arma, muddatli va boshqa depozit hisobvaraqlar;

ichki valyuta bozori – O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasida, O‘zbekiston Respublikasi banklari o‘rtasida hamda bevosita tijorat banklarida mijozlar bilan amalga oshiriladigan chet el valyutasini sotib olish va sotish;

ichki valyuta operatsiyalari – O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasida amalga oshiriladigan operatsiyalar.

valyuta kursi — chet el valyutasining O‘zbekiston Respublikasi valyutasiga nisbatan kursi;

valyutani nazorat qilish — valyutani nazorat qiluvchi organlarning valyutani tartibga solish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rezidentlar va norezidentlar tomonidan rioya etilishini ta‘minlashga qaratilgan faoliyati;

valyuta operatsiyalari — valyuta qimmatliklariga bo‘lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o‘tishi bilan bog‘liq operatsiyalar, valyuta qimmatliklaridan to‘lov vositasi sifatida foydalanish, valyuta qimmatliklarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish, jo‘natish va o‘tkazish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish, jo‘natish va o‘tkazish, rezidentlar va norezidentlar o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi valyutasidagi operatsiyalar;

valyutani tartibga solish — valyuta qimmatliklarining muomalada bo‘lish tartibini, valyuta qimmatliklariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish qoidalarini belgilash yuzasidan valyutani tartibga solish organining faoliyati;

valyuta qimmatliklari — chet el valyutasi, nominali chet el valyutasida ifodalangan qimmatli qog‘ozlar va to‘lov hujjatlari, norezidentlar tomonidan chiqarilgan, nominalga ega bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar, sof quyma oltin;

chet el valyutasi — muomaladagi hamda chet davlat (chet davlatlar guruhlari) hududida naqd to‘lovning qonuniy vositasi bo‘lgan pul belgilari, shuningdek, muomaladan chiqarilayotgan yoki muomaladan

chiqarilgan, ammo almashtirilishi lozim bo‘lgan pul belgilari, chet davlatlarning (chet davlatlar guruhlarining) pul birliklarida hamda xalqaro pul birliklarida yoki hisob-kitob birliklarida bank hisobvaraqlarida va omonatlarida turgan mablag‘lar;

chet el valyutasi bilan bog‘liq bo‘lgan hosilaviy moliya vositalari (valyuta derivativlari) — chet el valyutasini sotib olish va sotish bo‘yicha shartnomalar bo‘lib, ushbu shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muayyan muddat o‘tgach yoki chet el valyutasining miqdoriga yoxud uning kursi o‘zgarishiga qarab amalga oshiriladi;

valyuta mavqei — tijorat banklari tomonidan chet el valyutasini oldi-sotdi operatsiyasini, shuningdek, boshqa operatsiyalarni amalga oshirish natijasida chet el valyutasida ifodalangan talablarning yoki majburiyatlarning o‘zgarishiga olib keladigan tijorat bankining chet el valyutasidagi talablari yoki majburiyatlari o‘rtasidagi nisbatni ifodalovchi ko‘rsatkich;

ochiq valyuta mavqei — tijorat bankining chet el valyutasidagi talablari uning chet el valyutasidagi majburiyatlari summasiga mos (teng) bo‘lmagan holatdagi valyuta mavqei;

uzun valyuta mavqei — tijorat bankining chet el valyutasidagi talablarining summasi uning chet el valyutasidagi majburiyatlari summasidan ortiq bo‘lgan holdagi ochiq valyuta mavqei;

qisqa valyuta mavqei — tijorat bankining chet el valyutasidagi majburiyatlarining summasi uning chet el valyutasidagi talablari summasidan ortiq bo‘lgan holdagi ochiq valyuta mavqei;

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, 3 turga bo‘linadi:

1. Spot operatsiyalari.
2. Muddatli valyuta operatsiyalari.
3. Svop operatsiyalari.

MAVZUGA OID ME‘YORIY HUJJATLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi (O‘RQ-580-sonli) Qonuni, 5, 7, 13-moddalar.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 11 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi (O‘RQ-582-sonli) Qonuni, 11, 26, 12-moddalar.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 22 oktyabrdagi «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida»gi (O‘RQ-573-sonli) Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-3270-sonli) Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-3272-sonli) Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2005 yil 28 maydagi 610-sonli “Ochiq valyuta mavqeini yuritish” (2693-sonli) Nizomi Qoidalari.

MAVZUGA OID MASALALAR

6.1-masala. Berilgan ma’lumotlardan foydalangan holda, so‘mning Buyuk Britaniya funt sterlingiga nisbatan forvard kursini aniqlang.

500 ming funt sterling sotish bo‘yicha 3 oylik forvard shartnomasi tuzilgan.

*baholovchi valyuta –so‘m.

* funt sterlingdagi 3 oylik LIBOR=2,70%

* funt sterlingdagi 3 oylik LIBID=3,75%

* 3 oylik UZIBOR=6,25%

* 3 oylik UZIBID=8,75%

* spot kurs: 1 funt sterling=11950,00 -12000,00

6.2-masala. Tijorat bankining “Nostro” vakillik hisobraqamidagi 100 ming AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ni “svop” bo‘yicha joylashtiring.

Masalani echish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar:

Spot kurs: 1 dollar =1,2310-1,2330 Shveytsariya franki

Forvard kurs: 1 dollar = 1,2730-1,2750 Shveytsariya franki

1 oylik depozit stavkasi= 1,75%

6.3-masala. Britaniya kompaniyasi valyuta menejeri kontragentlar bilan funt sterlingdagi valyuta operatsiyalari natijalarini bank

komissiyalarini hisobga olmagan holda, har bir quyidagi operatsiya uchun hisoblashi kerak. Bunda ular valyutani funt sterlingga quyida keltirilgan spot kursda almashtirgan:

A) kompaniya fransiyalik mijozdan 15000 yevro miqdorda to'lov oldi;

B) kompaniya yapon firmasidan tovar sotib oldi va 1 mln. iena to'ladi;

V) kompaniya 30 mln. iena summada yapon mijozdan to'lov oldi;

G) kompaniya nemis maslahat berish firmasiga ko'rsatilgan xizmat uchun 40000 yevro to'ladi.

Spot kurslari:

GBP/USD = 1.4548-53;

GBP/JPY = 205,50-60.

Kompaniya bajargan barcha valyuta operatsiyalarining saldosi qancha?

6.4-masala. Buyuk Britaniyadagi kompaniyaning AQShda sho'ba korxonasi bor, uning 1 yanvar holatiga sof aktivlari 560 ming dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga, 1 yanvar kuni valyuta kurslari 1 funt sterling (GBP) = 1,75 AQSh dollari (AQSh dollari), o'sha yilning 1 dekabriga kelib 1 funt sterling = 1,83 AQSh dollari. Ingliz kompaniyasi uchun kursning o'zgarishi natijasini aniqlang.

6.5-masala. Amerika va ingliz kompaniyalari o'rtasidagi shartnomada ko'rsatilgan tovarlarning narxi 300 ming AQSh dollarini tashkil etadi, shartnomani imzolash kunidagi kurs esa 1 GBP uchun 1,5808 AQSh dollarini tashkil etadi. Shartnomada belgilangan to'lovga nisbatan AQSh dollarining bir funtga nisbatan kursi o'zgarganda shartnomada ko'rsatilgan to'lov miqdorini mutanosib ravishda o'zgartirishni nazarda tutadigan shartni o'z ichiga oladi. Agar to'lash paytida 1 GBP uchun 1,5316 AQSh dollari bo'lgan bo'lsa, tovarlar narxi qanday korrekcirovka qilinishi kerak?

6.6-masala. Italiya kompaniyasi Shveytsariyaga marmar etkazib beradi. Shartnoma narxining valyutasi yevro (EUR), marmar to'lovi etkazib berilgandan keyin 3 oydan keyin to'lanishi kutilmoqda. Shartnoma qiymati 1,5 million yevroni tashkil qiladi. Shartnoma imzolash kunidagi stavka 1 EUR = 1 Shveytsariya franki (CHF)

miqdorida belgilanadi. Shveytsariya importchisi valyuta xavfiga duchor bo'ladimi?

Quyidagi hollarda u uchun ushbu operatsiyaning moliyaviy natijalari qanday bo'ladi:

- agar stavka Shveytsariya franki qiymatini oshirish yo'nalishi bo'yicha o'zgarsa (Shveytsariya franki uchun 1,2 yevrogacha);
- yevroni Shveytsariya franki uchun 0,8 yevrogacha kuchaytirsas.

MAVZUGA OID TESTLAR

6.1-testlar

1. Valyuta dempingi nima?

- A. tovarlarni tannarxidan past bahoda eksport qilish
- B. valyutalarning inflyatsiya ta'sirida qadrsizlanishi
- C. milliy valyutaning almashuv kursini atayin past darajada ushlab turish
- D. milliy valyutaning almashuv kursini atayin yuqori darajada ushlab turish

2. Valyuta intervensiyasining qanday turlari mavjud?

- A. Diskont va deviz
- B. Revalvatsiya va devalvatsiya
- C. Tozalangan va tozalanmagan
- D. Sof va hujjatlashtirilgan

3. Bankning valyuta pozitsiyasi nima?

- A. xorijiy valyutadagi aktivlar va majburiyatlarning o'zaro nisbati
- B. xorijiy valyutaladagi talablarning majburiyatlardan yuqori bo'lishi
- C. xorijiy valyutadagi talab va majburiyatlarning o'zaro nisbati
- D. xorijiy valyutadagi majburiyatlarning talablardan yuqori bo'lishi

4. Quyidagi valyuta operatsiyalaridan qaysi biri tijorat bankiga yuqori daromad keltirmaydi?

- A. svop
- B. valyuta opsiioni
- C. forvard
- D. valyuta fyuchersi

5. *Valyuta operatsiyalarini tartibga solish printsipli nimadan iborat?*

- A. xorijiy valyutadagi to'lovlarni to'lovchining roziligiga asosan amalga oshirish
- B. valyuta operatsiyalarini litsenziyalash
- C. xorijiy valyutadagi to'lovlarning muddatliligi
- D. valyuta operatsiyalarining qonuniy asosga ega ekanligi

6. *Valyuta operatsiyalarining qaysi biri valyuta zaxiralarini valyuta riskidan to'liq himoya qilish imkonini beradi?*

- A. valyuta opsiioni
- B. forvard
- C. spot
- D. valyuta fyuchersi

7. *Valyuta mexanizmi deganda nima tushuniladi?*

- A. Milliy valyuta bozori va oltin bozorining rejimi tushuniladi
- B. davlatlararo bitim yoki milliy qonunlarga muvofiq valyuta munosabatlarini tashqil qilish va boshqarish shakllari tushuniladi
- C. Valyuta bilan bog'liq milliy va xalqaro darajadagi huquqiy normalar va muassasalar tushuniladi
- D. Jahon valyuta bozori va oltin bozorlarining rejimi tushuniladi

8. *Valyuta tizimi qaysi elementlardan tashkil topgan?*

- A. Valyuta mexanizmi va valyuta munosabatlari
- B. Valyuta kursi va valyuta siyosati
- C. Valyuta mexanizmi va valyuta siyosati
- D. Valyuta munosabatlari va valyuta kursi

9. *Opcion narxini shakllantiradigan asosiy omilni ko'rsating?*

- A. valyuta kursining amalga oshirilish muddati
- B. Foiz stavkalaridagi farqlar
- C. valyuta kursi. Strayk baho (realizatsiya bahosi)
- D. hisob stavkasi

10. *Xaridorga biror valyutaning bozor narxlaridan qat'iy nazar belgilangan miqdorini oldindan belgilangan vaqtda va kursda etkazib berish bo'yicha huquq beradigan valyuta operatsiyasi turini belgilang?*

- A. Forvard

- B. Valyuta opsiyasi
- C. Spot
- D. Svop

11. Deviz siyosati nima?

A. Milliy valyuta kursi va to'lov balansini tartibga solish maqsadida Markaziy bankning hisob stavkasini o'zgartirishi

B. Markaziy bankni milliy valyuta bozorida o'pretsiyalarda ishtirok etishi

C. Davlatlar, banklarning valyuta rezervlarining tartibga solish maqsadida nostabil valyutalarni sotish va barqaror valyutalarni sotish va barqaror valyutalarni sotib olish siyosati.

D. Markaziy Bankning xorijiy valyutalar bilan operatsiyalar orqali valyuta bozoriga ta'sir qilish maqsadida valyuta bozorida operatsiyalari

12. Diskont siyosati bu...

A. Markaziy bank tomonidan xorijiy valyuta oldi-sotdisi orqali milliy valyuta kursiga o'tkazish metodi

B. Xalqaro moliya munosabatlari sohasida amalga oshiriladigan tadbirlar yig'indisi

C. Trattalarning qayta hisobini yuritish orqali inflyatsiyani oldini olish

D. Markaziy bank hisob stavkasini uzgartirish yo'li bilan milliy valyuta kursiga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan valyuta siyosati shakli

13. Valyuta intervensiyasining qanday turlari mavjud?

- A. Diskont va deviz
- B. Tozalangan va tozalanmagan
- C. Revalvatsiya va devalvatsiya
- D. Sof va hujjatlashtirilgan

14. Valyutaviy svop – bu...

A. Ma'lum bir valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish

B. Ma'lum bir valyutani sotish sharti bo'yicha sotish va uni forvard bo'yicha sotib olish

C. Ma'lum bir valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish

D. Valyutani ikki kunlik shart bilan sotib olish yoki sotish

15. Bir kunlik svop nima?

A. bitimning har ikkala sanasi spot sanasiga to‘g‘ri keladi

B. yaqin valyutalashtirish sanasi –spot, uzog‘i-forward

C. ikki “autrayt” bitimi uyg‘unlashgan svop

D. svopdagi har ikki operatsiya bitta bank bilan amalga oshiriladi

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

6.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

Valyuta -

Valyuta konvertirlashuvi –

Valyuta arbitraji -

Valyuta dempingi -

Valyuta siyosati -

Varrant (warrant) –

Veksel-

Xalqaro kredit –

Diskont siyosati -

Valyuta intervensiyasi –

Devalvatsiya -

Revalvatsiya –

Valyutaviy cheklashlar -

Valyuta pozitsiyasi -

Ochiq valyuta pozitsiyasi -

Ochiq valyuta pozitsiyasi limiti -

6.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari iqtisodiy mazmuniga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

2. Spot operatsiyasi qanday amalga oshiriladi?

3. Spot kursni aniqlashning qanday usullari mavjud?

4. Spot operatsiyalari bo‘yicha moliyaviy natijalar qanday aniqlanadi?

5. Forward operatsiyasi qanday amalga oshiriladi?


6. Forward kursi qanday qanday aniqlanadi?

7. Forward kursi va spot kurs o‘rtasida farqning yuzaga kelishi qaysi omilga bog‘liq?

8. Valyuta opsiioni nima?
9. Valyuta fyuchersi nima va u valyuta opsiionidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
10. Svop nima va uning qanday turlari mavjud?
11. Tijorat banklarining “Nostro” vakillik hisobraqamidagi valyuta mablag‘larini qanday qilib svop bo‘yicha joylashtirish mumkin?

MAVZUGA OID KROSSVORD

6.1-krossvord



Eniga:

1. Valyuta kursini tushirish natijasida uning xarid qilish qobiliyatining pasayishidan foydalangan holda tashqi bozordagi raqobatchilarni siqib chiqish maqsadi bilan bog‘liq holda tovarlarni jahon o‘rtacha narxlaridan past darajada keng ko‘lamda eksport qilish nima deyiladi?

4. Ikki bank ish kuni mobaynida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyasi turi

7. Markaziy bankning milliy valyuta kursiga ta’sir etish maqsadida valyuta bozorida chet el valyutalarni sotib olish yoki sotishi

9. ...– opsiionning bir turi bo‘lib, egasiga belgilangan muddat ichida emitentdan intiyozli sharoitda ma’lum bir miqdordagi aksiyalami sotib olish imkonini beradi

11. Milliy valyutani chet el valyutalariga yoki hisob-kitob pul birliklariga nisbatan qadrini oshirishi

12. Xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladigan u yoki bu mamlakat milliy pul birligida ifodalangan to'lov hujjatlari va pul majburiyatlari

13. Bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan bahosi

14. Mahsulotni xorijiy sheriklardan sotib olish va mamlakatga olib kirish

15-bu talab va taklif asosida turli xil valyutalar oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlardir

Bo'yiga:

2. Bank tomonidan chet el valyutasini oldi-sotdi operatsiyasini, shuningdek, boshqa operatsiyalarni amalga oshirish natijasida chet el valyutasida ifodalangan talablar yoki majburiyatlarning o'zgarishiga olib keladigan vakolatli bankning chet el valyutasidagi aktivlari (talablari) yoki majburiyatlari o'rtasidagi nisbatini ifodalaydigan ko'rsatkich

3. Muddatli valyuta operatsiyasi turi

5. Milliy valyutani chet el valyutalariga yoki xalqaro hisob-kitob pul birlik (SDR, EVRO)lariga nisbatan qadrini tushirishi

6. Foyda olish maqsadida valyutani sotib olish - sotish bo'yicha operatsiyalar

8. Odatda mamlakatlar hududida oltin va valyuta qimmatliklarini chiqib ketishini oldini olish va shu asosda chet el valyutalariga bo'lgan talabni tartibga solish maqsadida qo'llaniladigan siyosat

10. Bankning chet el valyutasidagi talablari uning chet el valyutasidagi majburiyatlari summasiga mos (teng) bo'lmagan holatdagi valyuta pozitsiyasi

7-MAVZU

TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN OPERATSIYALARI

MAVZUGA OID ASOSIY TA’RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

aksiya — o‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘oz;

veksel — veksel beruvchining yoxud vekselda ko‘rsatilgan boshqa to‘lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to‘lashga doir qat’iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz;

davlat qimmatli qog‘ozlari - O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari;

depozit sertifikat — bankka qo‘yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz;

obligatsiya — emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat’iy belgilangan foizni olishga bo‘lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi;

option — emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, u o‘z emitentining muayyan miqdordagi qimmatli qog‘ozlarini unda nazarda tutilgan muddatda, qat’iy belgilangan narx bo‘yicha sotib olishga bo‘lgan huquqini tasdiqlaydi;

fond birjasi — ommaviy va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan joyda va belgilangan vaqtda o‘rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o‘tkazish orqali faqat qimmatli qog‘ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratib beruvchi yuridik shaxs;

emissiyaviy qimmatli qog'ozlar — bitta chiqarilish doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo'lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo'ladigan qimmatli qog'ozlar;

qimmatli qog'ozlar — hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi;

qimmatli qog'ozlarning hosilalari — o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan opsiyalar, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar, depozitar tilxatlar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni, 5, 13, 22-moddalar.

2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 11 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi (O'RQ-582-sonli) Qonuni, 3, 60, 67-moddalar.

3. O'zbekiston Respublikasining 2005 yil 3 iyundagi «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi (O'RQ-387-sonli) Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi (PQ-3270-sonli) Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2009 yil 2 fevraldagi “Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishiga qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi (1894-sonli) Nizomi

MAVZUGA OID MASALALAR

7.1-masala. Bank 10 aprel kuni so‘ndirish muddati 9 iyul bo‘lgan vekselni hisobga oldi. Agar chegirma (diskont) stavkasi yiliga 10% bo‘lsa, veksel egasi 200 ming so‘m olgan bo‘lsa, vekselning nominal qiymatini hisoblang. Hisoblashda nemis hisoblash usulidan foydalaning.

7.2-masala. Nominal qiymati 10 mln so‘m bo‘lgan depozit sertifikatini olti oy muddatga yillik 15% bilan joylashtirildi. Uch oy o‘tgach, olti oylik qarz uchun bozor narxi 20% ni tashkil etdi. Sertifikat egasi uni sotishdan qancha daromad oladi?

7.3-masala. Aksiyadorlik jamiyatining hisobot davrida dividend to‘lash uchun ajratilgan foydasi 3,5 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Unda 850mingta oddiy aksiya va 255 mingta imtiyozli aksiya (yillik 40% stavkada) joylashtirilgan. Aksiyalarning nominal bahosi 5000 so‘mdan. Oddiy aksiyaning bir yillik daromadlilik darajasini aniqlang.

7.4-masala. Diller tomonidan 5000 ta aksiya sotib olingan. Bunda nominal bahosi 5000 so‘mdan bo‘lgan aksiyani 5250 so‘mdan sotib olgan. Aksiyadorlik jamiyati hisob – kitob qilish natijasida hisobot davrida dividend to‘lash 50% stavkada to‘lanishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyati foydasi 24,0 mln.so‘mni tashkil etishi ko‘zda tutilmoqda. Agar, kelajakda aksiya paketining har birini qayta sotish bahosi 7500 so‘mdan bo‘lsa, aksiya paketini sotish maqsadga muvofiq bo‘ladimi? Hisoblang.

7.5-masala. Tadbirkorlik subyekti nominal qiymati 100 ming so‘m bo‘lgan depozit sertifikatini 97 ming so‘mga sotib oldi. Depozit sertifikatining so‘ndirish muddati 6 oydan keyin.. 3 oydan keyin ushbu sertifikatni tadbirkorlik subyekti sotdi. Sotish paytida uch oylik depozit sertifikatining bozor chegirmasi stavkasi yiliga 10% ni tashkil etdi. Omonat sertifikatining yillik chegirmasini, foizini va sotish narxini aniqlang.

7.6-masala. Nominal qiymati 100000 so‘m bo‘lgan depozit sertifikatini 60 kun muddatga sotildi. Saqlanish muddati davomida foiz stavkasi yillik 20% ni tashkil etsa, depozit sertifikatini bo‘yicha daromadni aniqlang. Yuridik shaxsning vakillari to‘lovni depozit sertifikatida ko‘rsatilgan muddatda taqdim etgan deb qaralsin. Daromadni hisoblashda depozit sertifikatidan olingan daromad, to‘lov manbaida (ya’ni bankda), 15% miqdorida soliq solinishini hisobga oling.

MAVZUGA OID TESTLAR

7.1-testlar

1. *Quyidagilardan qaysi biri hosilaviy qimmatli qog'ozlar hisoblanadi?*

- A. fyuchers
- B. obligatsiya
- C. aksiya
- D. veksel

2. *Qarz majburiyatlarini ifodalovchi qimmatli qog'oz turini ko'rsating.*

- A. Depozit sertifikatlari
- B. aksiya
- C. fyuchers
- D. opsiyon

3. *Ulush munosabatlarini ifodalovchi qimmatli qog'oz turini ko'rsating.*

- A. aksiya
- B. fyuchers
- C. opsiyon
- D. obligatsiya

4. *Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirokini ko'rsating.*

- A. emitent, investor va vositachi
- B. broker, diler, anderrayter
- C. investor
- D. broker va depozitariy

5. *Noemission qimmatli qog'oz turini ko'rsating.*

- A. veksel
- B. aksiya
- C. obligatsiya
- D. opsiyon

6. *Tijorat banklarining aktivlari balansda qaysi xususiyatiga ko'ra joylashtiriladi?*

- A. likvidlilik darajasiga ko'ra
- B. daromadlilik darajasiga ko'ra

- C. risklilik darajasiga ko'ra
- D. muddatlilik darajasiga ko'ra

7. Bankning yuridik shaxslar ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog'ozlarga kiritgan investitsiyalari miqdori qancha bo'lishi kerak?

- A. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 50 foizidan oshmasligi kerak
- B. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 26 foizidan oshmasligi kerak
- C. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 100 foizidan oshmasligi kerak
- D. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak

8. Oldi-sotdi uchun qimmatli qog'ozlarga kiritilgan bank investitsiyalari miqdori qancha bo'lishi kerak?

- A. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak
- B. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak
- C. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 26 foizidan oshmasligi kerak
- D. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 50 foizidan oshmasligi kerak

9. Bankning muayyan yuridik shaxs ustav kapitaliga kiritgan investitsiyalari miqdorining chegarasi qancha?

- A. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak
- B. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak
- C. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 5 foizidan oshmasligi kerak
- D. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 10 foizidan oshmasligi kerak

10. Bankning muayyan yuridik shaxs ustav kapitaliga, shuningdek ushbu yuridik shaxsning boshqa qimmatli qog'ozlariga kiritgan investitsiyalari miqdori qanchani tashkil etishi kerak?

A. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak

B. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak

C. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 26 foizidan oshmasligi kerak

D. birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 50 foizidan oshmasligi kerak

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

7.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

aksiya —

davlat qimmatli qog'ozlari —

depo hisobvarag'i —

depo hisobvarag'idan ko'chirma —

depozit sertifikati —

kliring —

korporativ obligatsiyalar —

market-meyker —

noemissiyaviy qimmatli qog'ozlar —

obligatsiya

opsion —

fond birjasi —

O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari —

qimmatli qog'ozlar —

qimmatli qog'ozlar bozori —

qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari —

qimmatli qog'ozlar emissiyasi —

qimmatli qog'ozlarning hosilalari —

7.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan investitsion operatsiyalari qanday amalga oshiriladi?

2. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan emission operatsiyalari qanday amalga oshiriladi?

3. O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan qaysi turdagi qimmatli qog'ozlar muomalaga chiqariladi?

4. Banklarning andarrayting operatsiyalari qanday tartibda amalga oshiriladi?


5. Emissiyaviy qimmatli qog‘oz deganda nimani tushunasiz?

6. Qimmatli qog‘ozlar bozoridagi professional faoliyat deganda nimani tushunasiz?

7. Derivativilar nima va ular nima maqsadda muomalaga chiqariladi?

MAVZUGA OID KROSSVORD

7.1-krossvord



Eniga:

2. O‘z hisobiga birja yoki savdo vositachiligi bilan shug‘ullanuvchi ishbilarmon

8. Qimmatli qog‘ozlar savdosining tashkilotchilari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar bo‘yicha o‘zaro majburiyatlarni aniqlash, aniqlashtirish va hisobga olish

9. – bozor narxiga ega pulli dastak bo‘lib, uning sohibiga birlamchi qimmatli qog‘ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi

11. Qimmatli qog‘ozlarga doir narxlar, talab va taklif darajasini saqlab turish uchun birja bitimlarini tuzish majburiyatini o‘z zimmasiga olgan investitsiya vositachisi

13. bozorlar – moliyaviy resurslarni taklif qiluvchilarni va ularga extiyoj sezayotganlar odatda fond birjalariga o'xshash vositachilar yordamida bitim tuzish uchun birlashtirish mexanizmidir

14. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog'ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo'lgan yuridik shaxs

Bo'yiga:

1. Veksel beruvchining yoxud vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyavi qimmatli qog'oz

3. ... – missiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxs obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat'iy nazar belgilangan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi

4. O'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz

5. Birjalarda oldi-sotdi kelishuvlar vositachisi

6. Mijozning barcha pul talablarini uning barcha pul majburiyatlariga nisbatan hisobga olish orqali amalga oshiriladigan kliring usuli

7. Bankka qo'yilgan omonat deposit summasini va omonatchining omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz

9. Depo hisobvarag'iga ega bo'lgan shaxs

10. Qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'z hisobidan oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs

12. Emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u o'z emitentining muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarini unda nazarda tutilgan muddatda, qat'iy belgilangan narx bo'yicha sotib olishga bo'lgan huquqini tasdiqlaydi

8-MAVZU

KREDITLASHNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Bankning kredit siyosati — kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart.

Har qanday kredit siyosatining maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo'ladi: uzoq muddatli investitsiyalardan aksiyadorlarga yuqori daromad kelishini ta'minlash, likvidlikni saqlab turish, tavakkalchilikni diversifikatsiya qilish, siyosat va tadbirlar birligini kafolatlash, qonunlar va me'yoriy hujjatlarga rioya qilish, hududning kreditlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

Banklar garov, kafolatlar, kafillik, majburiyatlar asosida va majburiyatlar bajarilishini ta'minlashning qonunda nazarda tutilgan boshqa usullari asosida kreditlar beradi.

Qarz oluvchi tomonidan shartnomaga doir majburiyatlar buzilgan taqdirda, banklar taqdim etilgan kreditlarni va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni shartnomada nazarda tutilgan tartibda muddatidan ilgari undirishga, shuningdek undiruvni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratishga haqli.

Banklar ta'minlanmagan kredit (ishonchga asoslangan kredit) berish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Banklarga o'z aksiyalarini garovga qo'yish evaziga kredit berish ta'qiqlanadi.

Kredit siyosatining tavsifi kredit portfelining tarkibiga, bank o'z faoliyatini amalga oshirayotgan hududning iqtisodiyotiga qarab aniqlanadi. Kredit strategiyasini shakllantirishda va tegishli kredit siyosatini tayyorlashda, bank ushbu omillarni hisobga olishi shart.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni, 5, 13, 22-moddalar.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 11 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi (O‘RQ-582-sonli) Qonuni, 3, 60, 67-moddalar.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2005 yil 3 iyundagi «Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida»gi (O‘RQ-387-sonli) Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-3270-sonli) Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 2 martdagi “Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi (905-sonli) Nizomi.

MAVZUGA OID MASALALAR

8.1-masala. 5 yil davomida bankning doimiy mijozi bo‘lgan davlat korxonasi 100 million so‘m miqdorida yillik 16 foiz stavkada kredit liniyasini ochish bo‘yicha bankka murojaat qildi. Kredit muddati 1 iyundan 6 oygacha. Kredit foizlari kredit muddati tugagandan to‘lanadi. Kompaniyani bank tomonidan kreditga layoqatlilikning II sinfi berilgan. Ilgari olingan kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik yo‘q.

Kredit har oyda 1 avgustdan boshlab kirim qilingan daromad hisobiga teng qismlarda to‘lanishi kerak.

Kompaniya ta‘minot sifatida taklif qilishi mumkin: bozor qiymati 120 mln so‘m bo‘lgan bino. Bank tomonidan ko‘chmas mulk uchun belgilangan marja 40% ni tashkil etadi.

Bank tomonidan 241,8 mlrd so‘m miqdorida yirik kreditlar berilgan.

Bank kapitali 234 mlrd. so‘mni tashkil etadi.

Ishlab chiqarishni kreditlash bank kredit siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Bu talab qilinadi:

1. Kredit berish imkoniyati va uning miqdorini aniqlang.

2. Qarz oluvchi kredit olish uchun taqdim etadigan hujjatlarni ko‘rsating.

8.2-masala. Bank tijorat davlat tashkilotiga 2019 yil 18 mart kuni 25 kun muddatga 820 mln so‘m miqdorida kredit berdi. Foiz stavkasi yillik 17%, muddati o‘tgan kredit uchun ikki baravar stavka. Bank buxgalteriya hisobidagi foizlarni oyning oxirgi ish kunida aks ettirishi kerak (30, 31-kun bo‘yicha hisob-kitoblarni qo‘shgan holda). Kredit sifati II toifali garovi bilan ta‘minlanadi. Kredit berish paytida - kredit tarixi yaxshi, moliyaviy ahvoli yaxshi.

Variantlar:

Kredit va foizlar o‘z vaqtida to‘lanadi.

Kredit va foizlar 35 kunga kechiktirilgan.

Vazifa:

1. Barcha operatsiyalarni sanalar va tuzilgan hujjatlar bilan tavsiflang.
2. Kredit olish uchun bank buyurtmasini bering.
3. Foizlarni birinchi hisoblash uchun bank buyurtmasini berish.
4. Foizlarni yig‘ish uchun bank buyrug‘i va foizlarni undirish uchun to‘lov talabnomasini berish.

8.3-masala. Korxonaga yangi uskuna sotib olish uchun bankga 5yil muddatga 500 000 ming so‘m miqdorida kredit olish uchun murojaat qildi. Bank ushbu kreditni yillik 20 foiz stavkasi bilan berishga rozi bo‘ldi. Korxonaning davr oxiridagi qarz summasini oddiy foizlarda bir martalik to‘lov shaklida aniqlang.

8.4-masala. Korxonaga 3 yil muddatga, qarz qoldig‘i bo‘yicha yillik 30% stavka bilan 10 million so‘m miqdorida kredit oldi. Qarzni to‘lash har yil oxirida turli qismlarda amalga oshiriladi. Kredit muddati tugagandan so‘ng korxonaga bankka qaytaradigan mablag‘ miqdorini aniqlang.

8.5-masala. Tijorat banki o‘z mijoziga 8 oy muddatga 25 million so‘m miqdorida markazlashtirilgan kredit oldi. Qayta moliyalashtirish stavkasi yillik 15 foizni tashkil etdi. Mijozga yillik 17% miqdorida kredit berildi. Kredit muddati tugagach, mijoz 23 million so‘m asosiy qarzni va kredit bo‘yicha foizlarni to‘liq to‘laydi. Mijoz qarzning qolgan qismini 10 kun muddatga uzaytirib berilishini so‘radi. Bank yillik 25% stavka bilan kreditni uzaytirishga rozi bo‘ldi. MBga kredit o‘z vaqtida to‘langan. Prolongatsiyadan keyin so‘ndirish muddati kelgach mijoz

qarz va foizlarning qolgan miqdorini to'laydi. Markaziy bankga to'langan foizlar miqdorini va mijozdan olingan foizlar miqdorini aniqlang.

MAVZUGA OID TESTLAR

8.1-testlar

1. Kreditlash tizimi nechta blokdan tashkil topgan?

- A. 3 ta: fundamental, iqtisodiy-texnik va tashkiliy
- B. fundamental va iqtisodiy-texnik
- C. fundamental, iqtisodiy-texnik, ijtimoiy va tashkiliy
- D. fundamental va tashkiliy

2. Mijozning kreditga layoqatliligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar qaysilar?

- A. qoplash, likvidlilik va muxtoriylik koeffitsienti
- B. aylanma mablag'larning kunlarda aylanishi, qoplash koeffitsienti
- C. bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha sof foyda, likvidlik koeffitsienti
- D. realizatsiya hajmi, debitorlik qarzlari va o'z mablag'larining rentabillik ko'rsatkichlari

3. Kreditlashning iqtisodiy-texnik blokiga nimalar kiradi?

- A. kredit ta'minotining doimiy nazorati, kredit auditi, kredit shartnomasi va uning elementlari, kreditlash shartlari
- B. kredit shakllari, usullari, ssuda schyoti turlari, kredit berish va so'ndirish tartibi, kredit jarayonidagi nazorat
- C. kredit foizi, ta'minoti, subyekti va muddati
- D. kredit tamoyillari, kredit shartnomasini tuzish va kredit ta'minoti

4. Korxonaning o'z aylanma mablag'lari manbalarini ko'rsating.

- A. bank kreditlari, kreditorlik qarzlari va fondlar
- B. kreditorlik qarzlari, bank kreditlari va korxonaning ustav kapitali
- C. davlat korxonalarida byudjetdan ajratmalar, pay badallari, aksiyalardan tushgan mablag'lar
- D. bank kreditlari, davlat korxonalarida byudjetdan ajratmalar, pay badallari, aksiyalardan tushgan mablag'lar

5. Yirik tavakkalchiliklarning umumiy miqdoriga qo'yilgan talab qanday?

- A. bank regulyativ kapitalining 8 barobaridan oshmasligi lozim
- B. bank birinchi darajali asosiy kapitalining 8 barobaridan oshmasligi lozim
- C. bank ikkinchi darajali kapitalining 8 barobaridan oshmasligi lozim
- D. bank birinchi darajali kapitalining 8 barobaridan oshmasligi lozim

6. Qisqa muddatli kreditlarning obyektini ko'rsating

- A. ishlab chiqarish obyektlarini qurish
- B. ishlab chiqarish obyektlarini qayta ta'mirlash, texnik qurollantirish va kengaytirish
- C. tovar-moddiy boyliklar
- D. noishlab chiqarish sohasidagi obyektlarni qurish

7. Quyidagilardan qaysi biri kreditlash tizimining tashkiliy elementlariga kirmaydi?

- A. kreditlash jarayonida qarz oluvchining o'z mablag'larining qatnashish tartibi va darajasi
- B. bank resurslarini jalb qilish tartib va qoidalari
- C. ssuda mablag'larini maqsadli va samarali foydalanilishini, hamda o'z vaqtida qaytarilishini nazorat qilish tartibi va shakllari
- D. ssuda qarzini tartiblash usullari

8. Kreditlashning fundamental bloki qanday elementlardan tashkil topgan?

- A. kredit monitoringi va kredit hisobotlari
- B. kredit ta'minoti, kreditlash usullari va kredit hisoboti
- C. kreditlash usullari va shakllari
- D. kreditlash subyekti, obyekt va ta'minoti

9. Mijozning kreditga layoqatliligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar qaysilar?

- A. qoplash, likvidlilik va muxtoriylik koeffitsient
- B. aylanma mablag'larning kunlarda aylanishi, qoplash koeffitsienti

C. bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha sof foyda, likvidlik koeffitsienti

D. realizatsiya hajmi, debitorlik qarzlari va o'z mablag'larining rentabillik ko'rsatkichlari

10. Tezkor kredit monitoringining maqsadi nima?

A. Kredit yig'ma jildini yaratish

B. Muammoli kreditlarni identifikatsiya qilish

C. Kredit oluvchi korxonada faoliyatidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarini kuzatish

D. Hujjatlarni yig'ish va guruhlash orqali kreditlarni qaytarilishi ustidan nazorat qilish

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

8.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

Kredit –

Kredit mexanizmi-

Kredit paketi-

Kredit portfelining diversifikatsiyasi –

Kredit portfeli-

Kredit potentsiali-

Kredit siyosatiga ta'sir etuvchi ichki omillar –

Kredit siyosatiga ta'sir etuvchi tashqi omillar –

Kredit siyosati-

Kredit siyosatining maqsadi –

Kredit siyosatining vazifasi –

Kredit subyektlari –

Kredit summasi –

Kredit tizimi –

8.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Kreditlashni tashkil etish xususidagi qanday ilmiy-nazariy qarashlarni bilasiz?

2. Kreditlashni tashkil etish qaysi huquqiy asoslarga tayanadi?

3. Tijorat banklarining kredit siyosatining maqsadi nima va u kim tomonidan tasdiqlanadi?


4. Banklarning kredit siyosatida kreditlashning qaysi jihatlari o'z ifodasini topadi?

5. Tijorat banklarining kredit siyosatiga Markaziy bank tomonidan qanday talablar qo'yilgan?

6. Kreditlar berish bo'yicha tijorat banklarining filiallari qanday vakolatlarga ega?

MAVZUGA OID KROSSVORD

8.1-krossvord



Eniga:

8. Korxonalar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning bir-biriga beradigan kreditlari

10. Mijozning bu kreditdan oldin ham kredit olganligi va uni qaytarish bo'yicha majburiyatlarini qay darajada bajarganligi haqidagi ma'lumotlar majmui.

11. ... – mijozning bank va bank kreditorlar oldida turgan majburiyatlarini o'z vaqtida qaytirishiga tayyorligi va qodirligidir

14. Kredit munosabatlarining o'ziga xos shakli bo'lib, bunda davlat pul mablag'lari qarzdori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo'lib chiqadigan kredit turi

15. Bank va kredit muassasalari ularning kredit operatsiyalarini bajarish uslublari, tahlil etishning huquqiy shakllari majmuini ifodalaydi

Bo'yiga:

1. ... kredit - ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakatini namoyish qiladi
2. Kredit munosabatlarida qatnashuvchi tomonlar
3. Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda banklarning tutadigan strategiya va taktikasi
4. Ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohaslarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish
5. Jismoniy shaxslarga, iste'mol tovarlari (mebel, avtomobil, televizor va boshqalar) sotib olish uchun ma'lum muddatga beriladigan kredit turi
6. Pul mablag'lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (foiz) to'lab qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatlarga qarzga berish
7. Kredit munosabatlarini tashkil qilishda qo'llaniladigan elementlar majmuasi
9. Kredit jarayonida ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan moliyaviy va boshqa dastaklar majmui
12. Ko'chmas mulklar (er, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriladigan kredit turi
13. Kreditlash jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar majmuasi

9-MAVZU

AYLANMA MABLAG‘LAR VA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASH USULLARI

MAVZUGA OID ASOSIY TA‘RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun kreditlar, qoida tariqasida, 1 yilgacha bo‘lgan muddatga beriladi.

Bank filiallari tomonidan qisqa muddatli kreditlar alohida kredit hisobvaraqlar orqali kredit liniyasi ochgan holda yoki kredit liniyasi ochmagan holda quyidagi maqsadlarga ajratiladi:

chakana, ulgurji-chakana va ulgurji savdo faoliyatini amalga oshirishga;

ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarini so‘ndirishga;

ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun xomashyo sotib olishga;

urug‘lik, em-xashak va omuxta em, veterinariya preparatlari, o‘simliklarni himoyalash kimyoviy vositalari, ma‘danli o‘g‘itlar xarid qilishga;

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalariga aylanma mablag‘larini to‘ldirishga;

uy-joy mulkdorlari shirkatlariga; markazlashgan manbalar hisobiga obyektlarni tayyor holda qurilishni amalga oshiruvchi pudrat tashkilotlariga dastlabki xarajatlar va qurilish materiallari sotib olish hamda boshqa xarajatlarga;

eksport oldi moliyalashni amalga oshirish uchun.

Bank tizimida xizmat ko‘rsatiluvchi, iqtisodiyotning bazaviy tarmog‘idagi eksport qiluvchi korxonalariga kredit liniyasi ochgan holda, 18 oy muddatgacha:

aylanma mablag‘larni to‘ldirish; tovar moddiy qiymatliklar, xomashyo sotib olish;

ko‘rsatilgan xizmatlar haqini to‘lash;

bojxona oldidagi qarzdorliklarni to‘lash va boshqa qonun bilan ta‘qiqlanmagan maqsadlarga o‘rnatilgan tartibda kreditlar ajratilishi mumkin.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 11 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi (O'RQ-582-sonli) Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi (PF-4058-sonli) Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 4 dekabrda 422-sonli) Qarori bilan tasdiqlangan «Banklarni kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidlini mol-mulkiga qaratish Tartibi».

5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 2 martdagi «Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi (905-sonli) Nizomi.

MAVZUGA OID MASALALAR

9.1-masala. Quyida "O'ZNEFTGAZQAZIBCHIQRISH" AJning moliyaviy natijalari keltirilgan.

1. Korxoaning aktivlari:

	Sana	01.01.2019
	satr kodi	yillik
Uzoq muddatli aktivlar		
Asosiy vositalari	010	3 742 721
Eskirish summasi	011	2 389 375
Qoldiq qiymati	012	1 353 346
Nomoddiy aktivlar	020	
Amortizatsiya summasi	021	
Qoldiq qiymati	022	-
Uzoq muddatli investitsiyalar jami	030	619 454 622
Urnatilgan asbob-uskunalar	090	
Kapital kuyilmalar	100	
Uzoq muddatli debitorlik qarzi	110	2 519 265 763
Undan: muddati o'tgan	111	
Muddati kechiktirilgan uzoq muddatli xarajatlar	120	

Uzoq muddatli aktiv jami	130	3 140 073 731
Joriy aktivlar		
Tovar-moddiy zaxiralar jami	140	6 386 303
Ishlab chiqarish zaxiralari	150	72 488
Tugallanmagan ishlab chiqarish	160	
Tayyor mahsulot	170	
Tovarlar	180	6 313 815
Kelgusi davr xarajatlari	190	2 958
Muddati kechiktirilgan xarajatlar	200	26 767 914
Debitorlar jami	210	6 263 017 455
ulardan: muddati kechiktirilganlari	211	
Boshqa debitorlik qarzlari	310	31 996 666
Pul mablag‘lari jami	320	10 774 973
Qisqa muddatli investitsiyalar	370	7 000 000
Boshqa joriy aktivlar	380	
Joriy aktivlar jami	390	6 313 949 603
BALANS AKTIVI JAMI	400	9 454 023 334

2. Korxonaning aktivlari:

	Sana	01.01.2019
	satr kodi	yillik
O‘z mablag‘lari manbalari		
Ustav kapitali	410	568 637 972
Qushilgan kapital	420	
Rezerv kapital	430	3 043 722
Sotib olingan aksiyalari	440	
Taqsimlanmagan foyda	450	19 840 904
Maqsadli tushumlar	460	5 686 430
Bo‘lg‘usi xarajatlar va to‘lovlar zaxiralari	470	
O‘z mablag‘lari manbalari jami	480	597 209 028
Majburiyatlar		
Uzoq muddatli majburiyatlar jami	490	2 973 786 443
shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari	491	2 515 111 193
ulardan: muddati kechiktirilganlari	492	

Mah-t etkazib ber-dan uzoq mud. qarzar	500	
Alohida bo‘linmalardan uzoq mud. qarzar	510	
Sho‘ba va qaram jamiyatdan uzoq mud qarz	520	2 515 111 193
Muddati kechikt-gan uzoq mud daromad	530	
Soliqalar bo‘yicha uzoq muddatli majburiyat	540	
Muddati kech-gan boshqa uzoq mud majburiyat	550	
Xaridor va buyurtmachilardan bo‘naklar	560	
Uzoq muddatli bank kreditlari	570	458 675 250
Uzoq muddatli qarzar	580	
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarz	590	
Joriy majburiyatlar jami	600	5 883 027 863
shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari	601	5 882 985 547
ulardan: muddati kechiktirilganlari	602	
Max-t etkazib beruvchilardan qarzar	610	685 157 989
Alohida bo‘linmalardan qarzar	620	6 675 111
Sho‘ba va qaram jamiyatdan mud. qarz	630	3 882 527 491
Muddati kechiktirilgan daromadlar	640	
Soliqlar bo‘yicha kechik-gan majburiyat	650	
Muddati kech-gan boshqa majburiyatlar	660	
Olingan bo‘naklar	670	
Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzar	680	110 799

Sugurtalash bo'yicha qarzlari	690	
Davlatning maqsadli jamgarga qarzlari	700	175 491
Muassislardan qarzlari	710	414 464
Mexnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari	720	267 693
Qisqa muddatli bank kreditlari	730	
Qisqa muddatli qarzlari	740	
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi	750	42 316
Boshqa kreditorlik qarzlari	760	1 314 331 620
Majburiyatlar bo'yicha jami	770	8 856 814 306
BALANS PASSIVI JAMI	780	9 454 023 334

3. Moliyaviy natijalar to'risida hisobot

	Sana	01.01.2019
	satr kodi	yillik
Ko'rsatkichlar nomi		
Mahsulotlarni sotishdan sof tushum	010	
Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	020	
Mahsulotlarni sotishning yalpi foydasi	030	-
Davr xarajatlari jami	040	27 744 515
Sotish xarajatlari	050	
Ma'muriy xarajatlar	060	11 283 987
Boshqa operatsion xarajatlar	070	16 460 528
Kelgusida soliqqa tortilgan bazadan chiqarilgan davr xarajatlari	080	
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	090	838 560
Asosiy faoliyatning foydasi(zarari)	100	- 26 905 955
Moliyaviy faoliyatning foydasi jami	110	34 472 408
Dividendlar shaklidagi daromadlar	120	16 444 806

Foizlar shaklidagi daromadlar	130	689 494
Uzoq muddatli ijaradan daromadlar	140	
Valyuta kursi farqidan daromadlar	150	17 338 108
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	160	
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	170	233 843
Foizlar shaklidagi xarajatlar	180	
Uzoq muddatli ijara bo'yicha xarajatlar	190	
Valyuta kursi farqidan zararlar	200	233 843
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	210	
Umumxo'jalik faoliyatning foydasi(zarari)	220	7 332 610
Favqulodda foyda va zararlar	230	
Daromad(foйда) soliq to'lagunga qadar olingan foyda	240	7 332 610
Daromad(foйда) solig'i	250	
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	260	
Hisobot davrining sof foydasi(zarari)	270	7 332 610

Topshiriq bo'yicha quyidagilarni aniqlang:

Korxonaga balansi ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagilarni hisoblang:

1. Qoplash koeffitsienti
2. Likvidlik koeffitsienti
3. Muxtoriyat koeffitsienti
4. Pul oqimi
5. Buxgalteriya balansi likvidliligi
6. Uzliksiz aylanma mablag'larning mavjudligi
7. Mol-mulkning rentabelligi
8. Mahsulot sotish bo'yicha rentabellik
9. Muddati o'tgan debitorlik qarzlari
10. Muddati o'tgan kreditorlik qarzlari
11. Asosiy vositalarining rentabelligi
12. Taqsimlanmagan foyda

13. Qisqa muddatli bank kreditlari

14. Uzoq muddatli bank kreditlari

9.2-masala. Korxonalar balansi quyida keltirilgan.

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Aktiv			
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar:			
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300)	010	21771322,0	24126163,0
Eskirish summasi (0200)	011	75 249,0	182 490,0
Qoldiq (balans) qiymati (satr 010-011)	012	21696 73,0	23943673,0
Nomoddiy aktivlar:			
Boshlang'ich qiymati (0400)	020	0,0	0,0
Amortizatsiya summasi (0500)	021	0,0	0,0
Qoldiq (balans) qiymati (satr 020-021)	022	0,0	0,0
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr 040++050+060+070+080) , shu jumladan	030	0,0	0,0
Qimmatli qog'ozlar (0610)	040	0,0	0,0
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	050		
Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	060		0,0
Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalariga investitsiyalar (0640)	070		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080		
O'ratiladigan asbob-uskunalar (0700)	090	630 942,0	630 942,0
Kapital qo'yilmalar (0800)	100	0,0	15 500,0
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940)	110		

Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	120		
I bo‘lim bo‘yicha jami (sitr. 012 + 022 + 030 + 090 + 100 + 110 + 120)	130	22327015,0	24590115,0
II. Joriy aktivlar			
Tovar-moddiy zaxiralar, jami (sitr. 150 + 160 + 170 + 180), shu jumladan	140	1 656 736,0	1 877 151,0
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100, 1500, 1600)	150	985 660,0	1 040 917,0
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	160	10 267,0	94 386,0
Tayyor mahsulot (2800)	170	208 918,0	299 275,0
Tovarlarni (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180	451 891,0	442 573,0
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190	0,0	
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200	390 529,0	
Debitorlar, jami (sitr. 220 + 240 + 250 + 260 + 270 + 280 + 290 + 300 + 310)	210	71 310,0	73 353,0
Shundan: muddati o‘tgan	211		0,0
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220	69 280,0	16 000,0
Ajratilgan bo‘linmalarining qarzi (4110)	230	0,0	0,0
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzi (4120)	240	0,0	0,0
Xodimlarga berilgan avanslar (4200)	250	0,0	0,0
Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan avanslar (4300)	260	0	57 099,0
Byudjetga soliq va yig‘imlar bo‘yicha avans to‘lovlar (4400)	270	2 030,0	254,0
Maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha avans to‘lovlari (4500)	280	0,0	0,0
Ta‘sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi (4600)	290	0,0	0,0

Xodimlarning boshqa operatsiyalari bo'yicha qarzi (4700)	300	0,0	0,0
Boshqa debitorlik qarzlar (4800)	310	0,0	0,0
Pul mablag'lari, jami (sitr. 330 + 340 + 350 + 360), shu jumladan	320		
Kassadagi pul mablag'lari (5000)	330	0,0	0,0
Hisob-kitob schetidagi pul mablag'lari (5100)	340	75 487,0	17 534,0
Chet el valyutasidagi pul mablag'lari (5200)	350	2 655,0	2 747,0
Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlari (550, 5600, 5700)	360	0,0	
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	370	0,0	0,0
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380	0,0	0,0
II bo'lim bo'yicha jami (sitr. 140 + 190 + 200 + 210 + 230 + 320 + 370 + 380)	390	2 196 717,0	1 970 923,0
Balans aktivi bo'yicha jami (sitr. 130 + 390)	400	24523732,0	26561038,0

Ko'rsatkichlar nomi	Sitr kod	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Passiv			
I. O'z mablag'lari manbalari			
Ustav kapitali (8300)	410	22636236,0	22636236,0
Qo'shilgan kapital (8400)	420	0,0	0,0
Rezerv kapitali (8500)	430	1 154 481,0	3 507 718,0
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440	0,0	0,0
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450	20 232,0	-270 697,0
Maqsadli tushumlar (8800)	460	357 343,0	384159,0
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlar uchun zaxiralar (8900)	470	0,0	0,0
I bo'lim bo'yicha jami (sitr. 410 + 420 + 430 - 440 +/- 450 + 460 + 470)	480	24168292,0	26257416,0

II. Majburiyatlar			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (sitr. 500 + 510 + 520 + 530 + 540 + 550 + 560 + 570 + 580 + 590)	490	0,0	0,0
shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (sitr. 500 + 520 + 540 + 560 + 590)	491	0,0	0,0
Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000)	500		
Ajratilgan bo'linmalarga uzoq muddatli qarz (7110)	510		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga uzoq muddatli qarz (7120)	520		
Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7230)	530		
Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7240)	540		
Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7250, 7290)	550		
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar (7300)	560	0,0	0,0
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	570	0,0	0,0
Uzoq muddatli qarzlari (7820, 7830, 7840)	580		
Boshqa uzoq muddatli qarzlari (7900)	590		
Joriy majburiyatlar, jami (sitr. 610 + 630 + 640 + 650 + 660 + 670 + 680 + 690 + 700 + 710 + 720 + 730 + 740 + 750 + 760)	600	356 120,0	303 622,0
shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (sitr. 610+630+650+670+690+700+710+720+760)	601	167 690,0	188 392,0

Shundan: muddati o'tgan joriy kreditorlik qarzlari	602		
Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga qarz (6000)	610	69 421,0	73 713,0
Ajratilgan bo'linmalarga (6110)	620		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga qarz (6120)	630	0,0	0,0
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	640	0,0	
Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	650		
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)	660		
Olingan avanslar (6300)	670	67 720,0	53 035,0
Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (6400)	680	437,0	6 555,0
Sug'urtalar bo'yicha qarz (6510)	690	915,0	3 084,0
Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520)	700	8 135,0	16 362,0
Ta'sischi'larga bo'lgan qarzlari (6600)	710		
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700)	720	13 137,0	37 277,0
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730	188 430,0	115 230,0
Qisqa muddatli qarzlari (6820, 6830, 6840)	740		
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	750		
Boshqa kreditorlik qarzlari (6950 dan tashqari 6900)	760	7 925,0	-1 634,0
II bo'lim bo'yicha jami (satr. 490 + 600)	770	356 120,0	303 622,0
Balans passivi bo'yicha jami (satr. 480 + 770)	780	24524412,0	26561038,0

Korxonada balansi asosida kreditga layoqatlilikni asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlarini aniqlang:

1. Yil boshi va yil oxiri bo'yicha
2. Qoplash koeffitsienti
3. Likvidlilik koeffitsienti
4. Muxtoriyat koeffitsienti
5. O'zning mavjud aylanma mablag'larini
6. Aylanma mablag'larning aylanishi koeffitsientini va kunlarda aylanishini.

9.3-masala. Berilgan ma'lumotlar asosida korxonaning aylanma mablag'larini aylanishini tahlil eting va aylanish davrini o'zgarishi hisobiga erishilgan iqtisodiy natijani hisoblab toping va xulosa yozing.

(har bir talaba mustaqil alohida korxonani tanlab oladi)

Aylanma mablag'larning aylanishini tahlili

Ko'rsatkichlar nomi	o'tgan yil	hisobot yil	Farqi (+,-)
1	2	3	4=3-2
1. Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushum, ming so'mda			
2. Oborot mablag'larining o'rtacha yillik qiymati, ming so'mda			
3. Aylanish koeffitsienti			
4. Oborot mablag'larining aylanish davri, kun hisobida			
5. Aylanish salmog'i koeffitsienti			
6. Aylanishni tezlashishi yoki sekinlashishidan mablag'larning bo'shashligi (-) yoki qo'shimcha jalb qilinishi (+):			
a) kun hisobida	X	X	
b) so'mda, ming so'm	X	X	

Axborot manbai: **Korxonaning biznes reja ma'lumotlari.**

Korxonaning buxgalteriya balansi (shakl-1).

1. Korxonani oborot mablag'larining ayrim moddalari bo'yicha aylanishi tezligini tahlil eting.

2. Korxonaning moliyaviy holatini tahlili natijalari bo'yicha umumiy xulosa yozing.

MAVZUGA OID TESTLAR

9.1-testlar

1. *Quyidagi koeffitsentlardan qaysi biri jami kapitaldan, uning jalb qilingan qismidan ham foydalanish samaradorligini tavsiflaydi?*
 - A. foydalilik koeffitsenti
 - B. moliyaviy leveraj koeffitsenti
 - C. tezkor likvidlilik koeffitsenti
 - D. joriy likvidlilik koeffitsenti

2. *Korxonalar uchun joriy likvidlilik koeffitsientining me'yoriy darajasini ko'rsating:*
 - A. 1,0
 - B. 1,25
 - C. 2,0
 - D. 2,75

3. *Mijozning kredit shartnomasi shartlarida ko'rsatilgan ssuda uchun foiz to'lovlari va ssudani qaytara olish qobiliyati nima?*
 - A. daromadlilik
 - B. unumdorlik
 - C. kreditga layoqatlilik
 - D. Likvidlilik

4. *Korxonaning doimiy faoliyatini amalga oshirish uchun ishlatiladigan mablag'lar nima deb ataladi?*
 - A. kassadagi naqd pullar
 - B. aylanma mablag'lar
 - C. ishlab chiqarish zaxiralari
 - D. tugallanmagan ishlab chiqarish

5. *Quyidagilar nima deb ataladi: xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, sotib olingan yarim fabrikatlar va butlovchi qismlar.*
 - A. aylanma mablag'lar
 - B. ishlab chiqarish zaxiralari
 - C. tugallanmagan ishlab chiqarish
 - D. aylanma mablag'larning nomoddiy elementlari

6. *Korxonalarining joriy likvidlilik koeffitsienti (JLK) qanday hisoblanadi?*

- A. likvidli aktivlar/joriy passivlar
- B. mahsulotlarni sotishdan olingan tushum/aktivlarning davrdagi o'rtacha miqdori
- C. davrdagi qarzdorlikning o'rtacha qoldig'i/sotishdan olingan bir kunlik tushum
- D. joriy aktivlar/joriy passivlar

7. *Korxonalarining tezkor likvidlilik koeffitsienti qanday hisoblanadi?*

- A. sotishdan olingan tushum/davrdagi asosiy fondlarning o'rtacha qoldig'i
- B. likvidli aktivlar/joriy passivlar
- C. joriy aktivlar/joriy passivlar
- D. sotishdan olingan tushum/aktivlarning ma'lum davrdagi o'rtacha qoldig'i

8. *Asosiy kapitalning (belgilangan qiymatga ega aktivlar) aylanuvchanligi qanday hisoblanadi?*

- A. sotishdan tushgan tushum/davrdagi aktivlarning o'rtacha miqdori
- B. zaxiralarning davrdagi o'rtacha qoldig'i/sotishdan olingan bir kunlik tushum
- C. joriy aktivlar/joriy passivlar
- D. sotishdan tushgan tushum/davrdagi asosiy fondlarning o'rtacha qoldiq qiymati

9. *Aktivlarning aylanuvchanligi qanday hisoblanadi?*

- A. joriy aktivlar/joriy passivlar
- B. sotishdan tushgan tushum/davrdagi aktivlarning o'rtacha miqdori
- C. sotishdan tushgan tushum/davrdagi asosiy fondlarning o'rtacha qoldiq qiymati
- D. likvidli aktivlar/joriy passivlar

10. *Qaysi koeffitsentlardan biri qarz oluvchining o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalaydi?*

- A. moliyaviy leveraj koeffitsenti

- B. mijozlarning kreditga layoqatligini baholash koeffitsenti
- C. tezkor likvidlilik koeffitsenti
- D. joriy likvidlik koeffitsenti

11. Quyidagi koeffitsentlardan qaysi biri likvidlilik darajasi yuqori bo'lgan aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati shaklida hisoblanadi?

- A. likvidlilik koeffitsenti
- B. jalb qilish koeffitsenti
- C. qoplash koeffitsenti
- D. foydalilik

12. Ushbu koeffitsentlar jami kapitaldan foydalanishni umumiy tavsiflash uchun qo'llaniladi va koeffitsentlar guruhiga qo'shimcha ko'rsatkich sifatida qaraladi?

- A. jalb qilingan va o'z mablag'lari nisbati koeffitsenti
- B. aylanish va qoplash koeffitsenti
- C. foyda va rentabellik koeffitsenti
- D. likvidlilik va muxtorlik koeffitsenti

13. Collateral, Character, Capacity, Cash, Conditions, Control..... qaysi kreditga layoqatlilikni aniqlash usuli haqida so'z yuritilmoqda?

- A. 6 "C" qoidasi, amerika uslubi
- B. amerikancha uslub-skoring so'rov
- C. yevropacha uslub
- D. frantsuzcha uslub

14. O'z aylanma mablag'larining mavjudligi qanday aniqlanadi?

- A. o'z kapitali-uzoq muddatli kreditlar va qarzar-uzoq muddatli aktivlar
- B. o'z kapitali+ uzoq muddatli kreditlar va qarzar-uzoq muddatli aktivlar
- C. o'z kapitali+ uzoq muddatli kredit va qarzar+uzoq muddatli aktivlar
- D. o'z mablag'lari - uzoq muddatli kredit va qarzar+uzoq muddatli aktivlar

15. Amerikalik mutaxassislar qaysi uslubiyot bo'yicha jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligini aniqlaydi?

- A. 6”C” qoidasi
- B. CAMEL
- C. skoring so‘rov
- D. KAMI

16. Korxonada kreditga layoqatlilikning yuqori sinfiga mansub bo‘lishi uchun likvidlik koeffitsienti qanday bo‘lishi kerak?

- A. $LK < 1,5$
- B. $LK > 1,5$
- C. $LK > 2,5$
- D. $LK < 2$

17. Korxonada kreditga layoqatlilikning yuqori sinfiga mansub bo‘lishi uchun qoplash koeffitsienti qanday bo‘lishi kerak?

- A. $QK > 2$
- B. $1 > QK > 0,5$
- C. $2 > QK = 1$
- D. 0,5 dan kam

18. Korxonada kreditga layoqatlilikning yuqori sinfiga mansub bo‘lishi uchun muxtorlik koeffitsienti qanday bo‘lishi kerak?

- A. $MK > 60\%$
- B. $30\% > MK > 15\%$
- C. $60\% > MK \Rightarrow 30\%$
- D. 15% dan kam

19. Qaysi koeffitsient foizlar va asosiy qarz summasi bo‘yicha to‘lovlarni korxonada daromadlari hisobidan qoplanish darajasini ko‘rsatadi?

- A. jalb qilish koeffitsienti
- B. qarzga xizmat ko‘rsatish koeffitsienti
- C. qarz majburiyatlarining mavjudligi koeffitsienti
- D. moliyaviy leveraj koeffitsienti

20. Korxonaning moliyaviy ahvoli yuqori deb qaysi holatda sanaladi?

- A. korxonaning likvid mablag‘laridan qisqa muddatli majburiyatlaridan 2 marta va undan yuqori bo‘lsa
- B. likvid mablag‘lar kam bo‘lsa

- C. likvid mablag‘lar va qisqa muddatli majburiyatlar teng bo‘lsa
- D. kreditlar ko‘proq jalb qilingan bo‘lsa

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

9.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:


- Aylanma aktivlar -
- Aylanma mablag‘lar -
- Tijorat banki mijozining kreditga layoqatliligi
- O‘stirilmaydigan kreditlar-
- O‘zaro aloqador shaxslar-
- Oilaviy tadbirkorlik -
- Pul aylanish tezligi –
- Pul massasi -
- Qisman ta‘minlangan kreditlar-
- Qisqa muddatli likvidlilik-
- Qoplash koeffitsienti-
- Muddati o‘tgan kreditlar -
- Muddati uzaytirilgan kredit –
- Muddatli kredit –
- Muxtoriylik koeffitsienti-
- Skoring usuli -
- Kreditlash jarayoni-

9.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Aylanma mablag‘ deganda nimani tushunasiz?
2. Aylanma mablag‘larni to‘ldirishning qanday manbalari mavjud?
3. Korxonalarining aylanma mablag‘larini to‘ldirish maqsadiga beriladigan qisqa muddatli kreditlarning miqdori qanday aniqlanadi?
4. Kredit to‘loviga layoqatlilik deganda nimani tushunasiz?
5. Bank mijozlarining kredit to‘loviga layoqatliligini baholashning qanday usullari mavjud?
6. Korxonalarining kredit to‘loviga layoqatliligi moliyaviy koeffitsientlar orqali qanday aniqlanadi?
7. Korxonalarining kredit to‘loviga layoqatliligi pul oqimini baholash usuli orqali qanday aniqlanadi?
8. Yuridik shaxslarning kredit to‘loviga layoqatliligi skoring usuli orqali qanday aniqlanadi.

MAVZUGA OID KROSSVORD

9.1-krossvord



Eniga:

1. Mijozning kredit to'loviga layoqatlilik ko'rsatkichini ifodalovchi asosiy koeffitsientlardan biri

8. Tarkibiy tuzilma jihatidan aylanma kapitalning natural-buyum shakllaridan biri

9. Kredit -bankdagi yig'ilgan, tarkib topgan mablag'lardan likvidlilik rezervlarini ayirmasiga teng

10. Aylanma kapitalning funktsiyalaridan biri

12. Aylanma mablag'lar (kapital)ni shakllantirish va moliyalashtirishning o'z manbalaridan biri

14. Yarim emperik usullarga asoslangan kompleks tahlil modeli

15. Aylanma aktivlar I guruhiga kiruvchi aktiv

Bo'yiga:

2. Belgilangan tartibga muvofiq foizlar hisoblanishi to'xtatiladigan kreditlar

3. Jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligini baholash usuli

4. Mijozning kreditga layoqatliligini ifodalovchi qo'shimcha ko'rsatkich

5. Mijozning kredit to'loviga layoqatlilik ko'rsatkichini ifodalovchi asosiy koeffitsientlardan biri

6. Jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshiriladigan birgalikdagi faoliyati bo'lib, er-xotin tomonidan ularga birgalikdagi umumiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan umumiy mol-mulk negizida amalga oshiriladigan tadbirkorlik turi

7. Mijozning pul oqimini baholash usuli

11.- bu minimal miqdordagi zaxiralar bo'lib, ular doimo xo'jalik subyektlari aylanmasida bo'lishi lozim

13. Yarim emperik usullarga asoslangan kompleks tahlil modeli

KREDIT TA'MINOTI VA UNING SHAKLLARI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqiy majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi.

Garov zakalat, ipoteka, shuningdek, huquqlar garovi tarzida amal qilishi mumkin.

Garovga qo'yiladigan mulk garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga o'tkazilganda garov zakalat deb hisoblanadi.

Shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnoma tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta'minlash yuzasidan beradigan pul summasi zakalat hisoblanadi.

garov reestri — qarzdorlarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida berib qo'ygan mol-mulkiga nisbatan kreditorlarning huquqlari to'g'risidagi, shuningdek qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlariga qonunga muvofiq qo'yilgan cheklov hamda qarzdor o'z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta'minlashi bilan bog'liq boshqa talablar haqidagi yozuvlarni (bundan buyon matnda yozuvlar deb yuritiladi) o'z ichiga olgan ma'lumotlarning yagona axborot bazasi;

Kafolatga binoan bank, boshqa kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti (kafil) boshqa shaxs(printsipal)ning iltimosiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq printsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida printsipalga yozma majburiyat beradi.

Kafillik shartnomasi bo'yicha kafil boshqa shaxs o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi.

Kafillik shartnomasi kelgusida vujudga keladigan majburiyatni ta'minlash uchun ham tuzilishi mumkin.

Kafillik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi kerak. Yozma shaklga rioya qilmaslik kafillik shartnomasining haqiqiy bo'lmasligiga olib keladi.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 21 dekabr 1995 yil.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi (O‘RQ-580-sonli) Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 23 oktyabrdagi «Garov reestri to‘g‘risida»gi (O‘RQ-3562-sonli) Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 1 maydagi «Garov to‘g‘risida»gi (O‘RQ-614-sonli) Qonuni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-3270-sonli) Qarori

MAVZUGA OID MASALALAR

10.1-masala. Ta‘minot bo‘yicha moliyaviy instrumentlarning baholash va ta‘minot qiymatini aniqlash.

Davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari	Baholash yoki bozor qiymati (hisoblash bazasi)	Ta‘minot qiymati
Davlat obligatsiyalari		
Aksiyalar (kotirovka qilinadigan)		
Aksiyalar (kotirovka qilinmaydigan)		
Bank filiallari va boshqa banklardagi milliy va chet el valyutadagi depozitlari		
Sug‘urta kompaniyalari yoki bank kafolati		
Kredit qaytmaslik riski sug‘urta polisi		

Aniqlang:

1. Tegishli bankning kredit ta‘minoti bo‘yicha davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarining baholash qiymati shartlarini.

2. Tegishli bankning ta'minoti bo'yicha davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarining ta'minot qiymati shartlarini.

10.2-masala. Quyidagi jadvalda tijorat banklarining ta'minot bo'yicha garovni baholash tamoyillarini aniqlash mezonlarining namunaviy shakli keltirilgan.

Garov turi	Baholash yoki bozor qiymati (hisoblash bazasi)	Kredit muddati bo'yicha:		
		18 oygacha	18 oydan 5 yilgacha	5 yildan ortiq
Er maydonlarini (bog', uzumzor va boshqalar) foydalanish huquqi (ijara)				
Uy-joy				
Noturar bino va inshootlar (savdo do'konlari, mexmonxonalar, i/ch tseklari, ofis binolari va boshqalar)				
Yaxlit ishlab chiqarish liniyalari ko'rinishidagi, alohida ravishda daromad keltiradigan texnologik uskunalar (asosiy vositalar)				
Avtotransport vositalari-maxsus texnika vositalari				
	Avtotransport vositalari-maxsus texnikalar ishlab chiqarilgan yildan kelib chiqqan holda baholovchi bahosidan:			
	- Ishlab chiqarilganiga 3 yilgacha bo'lganda			

	- Ishlab chiqarilganiga 3 yildan oshiq bo'lganda			
Omborxonadagi tovarlar va tayyor mahsulotlar qoldiqlari				
Zargarlik buyumlari				
Kadastr hujjatlari lozim darajada rasmiylashtirilmagan, chet eldan keltirilgan texnologiya asosida qurilgan issiqxona majmualari				

Aniqlang:

1. Tegishli bankning kredit ta'minoti bo'yicha garov turlarining baholash qiymati shartlarini va kredit turlari bo'yicha shartlarini.

10.3-masala. “Yantar” AJ xomashyo va material sotib olish maqsadida 20 mln. so‘m qarz so‘rab bankka murojaat qildi. Firma kreditga garov sifatida quyidagi mulk turlarini taqdim etdi:

- Bino va inshootlar- 10.0 mln. so‘m
- Asosiy vositalar – 7.0 mln. so‘m
- Ishlab chiqarish zaxiralari -5.0 mln.so‘m
- Tayyor mahsulot qoldig‘i - 4.0 mln.so‘m
- Qisqa muddatli majburiyatlar -7.0 mln.so‘m

Aniqlang:

• Bank qaysi mulk turini kreditlar bo'yicha garov sifatida qabul qilsa qulayroq?

• Kredit ta'minotning minimal summasi va mulk turlarini aniqlang.

• Garov turlari va summasi kreditning necha foizini tashkil etishi kerak.

10.4-masala. «Valent» AJ savdo vositachilik faoliyati bilan shug‘ullanadi va 15 mayda bankka salqin ichimliklar sotib olish uchun 25 mln. so‘m miqdorida, yillik 20 foiz stavkada 3 oyga kredit buyurtmasi berdi.

Ta'minotga har birining bahosi 60000 so'mdan bo'lgan 5000 dona qishki oyoq kiyimlari taqdim etildi. Bank tomonidan kredit 10 iyun kuni ajratildi. Oyoq kiyimi do'koni avgust oyida har birini 40000 so'mdan sotib olishini ma'lum qildi.

Aniqlang:

Garovning etarliligini;

Garovni qabul qilishda bank tomonidan qo'shimcha belgilanishi mumkin bo'lgan shartlarni .

MAVZUGA OID TESTLAR

10.1-testlar

1. *Ikkilamchi kredit ta'minotini ko'rsating?*

- A. garov, yuqori debet oboroti, yaxshi kredit tarixi
- B. yuqori debet oboroti, yaxshi kredit tarixi, biznes reja, imidj, reyting
- C. garov, kafolat, kafillik, sug'urta polisi
- D. garov, sug'urta polisi, kafillik, yaxshi kredit tarixi, brend

2. *Kafolatning kuchga kirishi qachon amalga oshadi?*

- A. kafolat berilgandan keyin 3 oy
- B. kafolat berilgandan keyin 1 oy
- C. odatda kafolat berilgan kundan boshlab
- D. kafolatning kuchga kirishini benefitsiar belgilaydi

3. *Qanday holatlarda kafolat chaqirib olinadi?*

- A. u kafil tomonidan chaqirib olinishi mumkin emas
- B. tomonlar kelishuviga ko'ra
- C. muddat tugaganda
- D. xohlagan paytda

4. *Sessiya nima?*

A. Sessiya – bu kredit ta'minotining bir turi bo'lib, bunda qarzdor o'zining debitorlik majburiyatlari bo'yicha kreditorga yon beradi;

B. Sessiya - bu bank tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'oz bo'lib, qarz majburiyatini ifoda etadi;

C. Sessiya – bu kredit ta'minotining bir turi bo'lib, bunda qarzdor uzining kreditorlik majburiyatlari bo'yicha kreditorga yon berishni nazarda tutadi;

D. Sessiya- bank depozit sertifikatlarini umumiy yig'indisi sifatida aniqlanadi.

5. *Quyidagilardan qaysi biri yuqori likvidli ta'minot hisoblanadi?*

- A. ro'chmas mulk
- B. tijorat banklarida ochilgan hisobvaraqlardagi milliy va xorijiy valyuta shaklidagi garov
- C. kafolat
- D. kafillik

6. *Quyidagilardan qaysi biri yuqori likvidli ta'minot hisoblanadi?*

- A. xo'jalik jamiyatidagi ulushga bo'lgan huquq
- B. hukumatning qimmatli qog'ozlari shaklidagi garov
- C. ko'char mol-mulk
- D. ko'chmas mulk, shu jumladan, yer uchastkasiga bo'lgan huquq

7. *Quyidagilardan qaysi biri yuqori likvidli bo'lmagan ta'minot hisoblanadi?*

- A. ko'chmas mulk, shu jumladan, er uchastkasiga bo'lgan huquq
- B. Hukumatning qimmatli qog'ozlari shaklidagi garov
- C. qimmatbaho metallar shaklidagi oltin va kumush qo'yilmalari shaklidagi zakalat
- D. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolati

8. *Quyidagilardan qaysi biri yuqori likvidli bo'lmagan ta'minot hisoblanadi?*

- A. yuridik va jismoniy shaxslarning kafolat va kafilliklari
- B. hukumatning qimmatli qog'ozlari shaklidagi garov
- C. qimmatbaho metallar shaklidagi oltin va kumush qo'yilmalari shaklidagi zakalat
- D. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolati

9. *Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqiy majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi nima deyiladi?*

- A. kafolat
- B. kafillik
- C. neustoyka
- D. garov

10. Qanday holatda tijorat banklari tomonidan kafolat berish ta'qiqlanadi?

A. kredit portfelida 8 foiz va undan yuqori miqdordagi to'lov muddati o'tgan yoki muammoli aktivlari mavjud bo'lsa

B. kredit portfelida 5 foiz va undan yuqori miqdordagi to'lov muddati o'tgan yoki muammoli aktivlari mavjud bo'lsa

C. Tijorat banklarining moliyaviy holatidan qat'iy nazar kafolatlar berishga ta'qiq mavjud emas

D. kredit portfelida 6 foiz va undan yuqori miqdordagi to'lov muddati o'tgan yoki muammoli aktivlari mavjud bo'lsa

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

10.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

Kreditning ta'minlanganligi -

Birinchi toifali garov obyektlari -

Garov -

Sessiya –

Ochiq sessiyada -

Jim (tixaya) sessiyada –

Garov reestri —

Kafillik –

Bank kafolati –

Sug'urta polisi -

Birlamchi manbalar –

Ikkilamchi manbalar -

10.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Kreditning ta'minoti deganda nimani tushunasiz?

2. Kredit ta'minoti kredit munosabatlarida qanday o'rin tutadi?

3. Yuqori likvidli garov obyekti deganda nimani tushunasiz?

4. Kredit uchun garov qay tartibda rasmiylashtiriladi?


5. Garov obyektini sotish tartibi qanday?

6. Garov obyekti baholovchi kompaniya tomonidan qanday baholanadi?

7. Marjinal qiymat deganda nimani tushunasiz?

MAVZUGA OID KROSSVORD

10.1-krossvord



Eniga:

1. Korxonalar, firmalar, tashkilotlarda naqd mulk va tovarlarni ro'yxatdan o'tkazish

5. Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqiy majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi

6. Qog'oz pullarning g'aznaxona yoki boshqa davlat moliya organlari tomonidan muomalaga chiqarilishi; barcha shakldagi pul belgilarini muomalaga chiqarish

8. Biror bir ta'minotsiz berilgan kreditlar

9. Ko'rsatilgan muddatda to'lovni amalga oshirishga rozilik beradigan kredit turi

10. Birlamchi kredit ta'minoti turi

13. Ikkilamchi garov ta'minotining bir shakli

14. Turli xildagi mahsulotlar, detallar, uzellar va boshqa qo'llaniladigan materiallar va texnologik jarayonlarni ratsional jihatdan bir xilligini ta'minlash

Bo'yiga:

1. Ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruktsiya qilish, yangi bino va

inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalar hamda qimmatli qog'ozlarni sotib olish maqsadida olingan uzoq muddatli kreditlar

2. Beriladigan kreditning qaytarilishi aniq moddiy qimmatliklar, pul hujjatlari yoki pul mablag'larini olishga bo'lgan huquq bilan kafolatlangan bo'lishiga nima deyiladi?

3. Garovning turi?

4. Sotuvchilarning xaridorlarga tovar shaklida beradigan krediti

7. Bozor munosabatlari rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda ta'minlanganlik shakli sifatida tez-tez talab bo'yicha yon berish va mulk huquqini berish amaliyoti

11. Kredit ta'minoti uchun sug'urta tashkiloti tomonidan beriladigan hujjat

12. Ikkilamchi garov ta'minotining bir shakli

11-MAVZU

KREDITLASH JARAYONLARI VA ULARNING BOSQICHLARI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Kreditlash xizmati bo'yicha hujjatlar to'plamini shakllantirish jarayoni va uning tahlili quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1) mijozlar arizalarini va boshqa taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish va mijozlar bilan suhbatlashish, bo'lg'usi qarz oluvchini uning huquqiy maqomini aniqlash maqsadida o'rganish;

2) "Kredit-axborot tahliliy markazi kredit byurosi" MChJ ma'lumotlar bazasidan kreditlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

3) Loyihani amalga oshirish joyi va garovga qo'yilayotgan mulkning fotosuratlari (kredit xodimi joyiga chiqqan holda fotosuratlar olinishi shart)

4) kreditlash xizmati bahosini (foizini) aniqlash;

5) chet el banklari kredit liniyasi orqali moliyalashtiriladigan investitsion loyihalar bo'yicha chet el bankining dastlabki roziligini olish;

6) kreditlash xizmati ko'rsatish masalasini filial Kredit komissiyasi/Bank Kredit qo'mitasida ko'rib chiqish;

7) chet el banklari kredit liniyasi orqali moliyalashtirilgan investitsion loyihalar bo'yicha chet el banklari bilan individual qarz shartnomasini tuzish;

8) kreditlash xizmatiga oid shartnomalarning loyahasini tayyorlash, ularni tuzish va rasmiylashtirish.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 11 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi (O'RQ-582-sonli) Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning

barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi (PF-4058-sonli) Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 4 dekabrda 422-sonli) Qarori bilan tasdiqlangan "Banklarni kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish Tartibi".

5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 2 martdagi "O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to'g'risida"gi (906-sonli) Nizomi.

MAVZUGA OID MASALALAR

11.1-masala. Mijozga 8 million so'm miqdoridagi ipoteka krediti 12 million so'm miqdoridagi binoning garovi evaziga 1 yil muddatga yillik 22 foiz bilan berildi. Kredit muddati tugagach, mijoz asosiy qarzni va foizlarni qaytarib bera olmadi.

Kreditga yillik 45% stavka bilan *kredit* bo'yicha to'lov muddatlari *kechiktirilgan* davr e'lon qilindi. Garovga qo'yilgan bino sotuvga qo'yildi va *Kredit* bo'yicha to'lov muddatlari *kechiktirilgan* davr boshlangandan 18 kun keyin bino 11,5 million so'mga sotildi. Bankka haqiqatan to'langan foizlar miqdorini va mijozga qaytarilgan pul miqdorini aniqlang.

11.2-masala. Korxonada 5 yil mobaynida bank depozit schyotidan investitsiya loyihasini moliyalashtirishning 3 xil variantini ko'rib chiqmoqda:

yillar	Pul oqimlari, mln.so'mda			Yillik foiz stavka		
	1- variant	2- variant	3- variant	1- variant	2- variant	3- variant
1.	4	3,5	3,5	15%	15%	16%
2.	4	2,5	2,5	15%	15%	17%
3.	4	5	5	15%	15%	15%
4.	4	5,5	5,5	15%	15%	18%
5.	4	3,5	3,5	15%	15%	14%

Aniqlang:

Har bir variant uchun korxonada bank depozit schyotiga qo'yishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari summasini aniqlang.

11.3-masala. Shartnomaga muvofiq kreditor 90 kundan keyin 200 mln so‘m to‘lashi kerak. Kredit yillik 20% bilan berilgan bo‘lsa, kreditning dastlabki miqdorini aniqlang.

11.4-masala. Investor 150 million so‘m miqdoridagi korxonaga sotib oldi. To‘lovlar tizimida investorning o‘z mablag‘lari 30 million so‘mni tashkil etadi, qolgan mablag‘ ipoteka kreditidan olingan mablag‘lardir. Ipoteka qarzi koeffitsientini hisoblang.

11.5-masala. 200 ming so‘mlik kredit 3,5 yil muddatga berilgan bo‘lib. 1 yil uchun foiz stavkasi 20% ni tashkil etadi va keyingi har olti oyda u 1% ga oshadi. Hisoblash multiplikatori va hisoblangan summani aniqlang.

11.6-masala. Mijozga yillik 25% stavkasi bilan 4 oy muddatga 400 ming so‘m miqdorida kredit ajratildi. Amalda kredit muddatidan 10 kun oldin to‘lanadi. Kreditdan foydalanishning butun davri uchun foizlar miqdorini va amalda foydalanilgan vaqt uchun foizlar miqdorini hisoblang.

11.7-masala. Mijoz bankdan 5 oy muddatga yillik 22% stavka bilan 80 mln. so‘m miqdorida kredit oldi. Foizlar har oy to‘lanadi. Muddati tugagach, mijoz asosiy qarzni to‘liq qopladi, lekin oxirgi oy uchun foizlarni to‘lamadi. Buning natijasida kechiktirilgan foizlar summasiga qarzdorlikning har bir kuni uchun qarz summasining 0,6% miqdorida penya hisoblanadi.

Bankka har oy to‘lanadigan foizlar miqdorini, oxirgi oyda to‘lanmagan foizlar miqdorini, shartnomaning amal qilish muddati tugaganidan keyin 23 kun ichida to‘langanligi sababli foizlarni kechiktirib to‘laganlik uchun hisoblangan penya miqdorini aniqlang.

MAVZUGA OID TESTLAR

11.1-testlar

1. Shartlari qayta ko‘rib chiqilgan aktivlar sifati qanday toifaga kiritilishi mumkin emas?

- A. substandart
- B. standart
- C. shubhali
- D. umidsiz

2. Oxirgi bir yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya sifat jihatidan qanday tasniflanadi?

- A. standart
- B. substandart
- C. qoniqarsiz
- D. shubhali

3. Oxirgi ikki yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya sifat jihatidan qanday tasniflanadi?

- A. substandart
- B. shubhali
- C. umidsiz
- D. yaxshi

4. Oxirgi uch yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya sifat jihatidan qanday tasniflanadi?

- A. qoniqarsiz
- B. umidsiz
- C. substandart
- D. shubhali

5. «Umidsiz» aktivlar bo'yicha zaxiralar hisobidan qoplash to'g'risidagi qaror kim tomonidan qabul qilinadi?

- A. tijorat banki Kengashi
- B. tijorat banki Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi
- C. kreditlash Departamenti
- D. tijorat banki Boshqaruvi

6. Kreditlashning fundamental bloki qanday elementlardan tashkil topgan?

- A. kreditlash subyekti, obykti va ta'minoti
- B. kreditlash subyekti va obykti
- C. kredit ta'minoti, kreditlash usullari va kredit hisoboti
- D. kreditlash usullari va shakllari

7. Muammoli aktivlarlar deb qanday aktivlarga aytiladi?

- A. sifati «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar

B. sifati «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar

C. sifati «qoniqarsiz» va «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar

D. sifati «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar

8. *“Maxsus zaxiralar” qanday zaxiralar hisoblanadi?*

A. tijorat banki faoliyati davomida umuman yoki biror-bir faoliyat turi natijasida ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash maqsadida tashkil qilinadigan zaxiralar

B. soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langandan so‘ng sof foyda yoki avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan shakllangan zaxiralar

C. bankning o‘ziga tegishli bo‘lgan xorijiy valyutadagi kapital zaxira qiymatining o‘shishi natijasida yuzaga keladigan zaxiralar

D. sifati «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplashga mo‘ljallangan majburiy zaxiralar

9. *Quyidagilardan qaysi biri aktivlar sifatini tasniflash tizimining asosiy mezonini hisoblanmaydi?*

A. tarmoq (iqtisodiyot sektori) tendentsiyasi va istiqboli

B. ta‘sischilari va moliyaviy hamkorlari

C. moliyaviy holati va kredit olishga qodirligi

D. kredit tarixi, kredit ta‘minotining yomonlashuvi yoki likvidligining pasayishi

10. *Qarzlarning o‘z muddatida to‘lanishiga shubha tug‘dirmaydigan aktivlar sifat darajasiga ko‘ra qanday tasniflanadi?*

A. substandart

B. yaxshi

C. standart

D. shubhali

11. *«Standart» deb tasniflangan aktivlar uchun qancha miqdorda zaxira tashkil etiladi?*

A. qarz (qoldiq) summasining o‘n foizi

B. qarz (qoldiq) summasining yig‘ima besh foizi

C. qarz (qoldiq) summasining bir foizi

D. qarz (qoldiq) summasining ellik foizi

12. *Quyida keltirilgan qaysi aktivlarning sifati «substandart» deb tasniflanadi?*

- A. qarz oluvchining kapitali etarli darajada bo'lmasa
- B. qarzdorning 2-son kartotekasida 31 kundan ortiq, lekin 90 kundan oshmagan muddatga kechiktirilgan to'lov hujjatlari mavjud bo'lsa
- C. oxirgi 180 kun ichida aktivlarning asosiy qarzi va (yoki) foizlari bo'yicha muddati 30 kungacha kechiktirilgan bir nechta holatlar mavjud bo'lsa
- D. ishonchli (e'timodli) aktivlar bo'yicha asosiy qarz va foizlar bo'yicha 31 kundan ortiq, lekin 90 kundan oshmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa

13. *Quyidagilardan qaysi biri mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati «qoniqarsiz» deb tasniflanadi?*

- A. oxirgi 180 kun ichida aktivlarning asosiy qarzi va (yoki) foizlari bo'yicha muddati 30 kungacha kechiktirilgan bir nechta holatlar mavjud bo'lsa
- B. qarzdorning 2-son kartotekasi mavjud bo'lib, undagi to'lov hujjatlarining muddati 30 kundan oshmagan bo'lsa
- C. ta'minlangan aktivlar bo'yicha asosiy qarz va foizlar bo'yicha 91 kundan ortiq, lekin 120 kundan oshmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa
- D. aktivlarni undirilishi sud jarayonida bo'lsa

14. *Quyidagilardan qaysi biri mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati «shubhali» deb tasniflanadi?*

- A. ta'minlangan aktivlar bo'yicha asosiy qarz va foizlar bo'yicha 121 kundan ortiq lekin, 180 kundan oshmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa
- B. ishonchli (e'timodli) aktivlar bo'yicha asosiy qarz va foizlar bo'yicha 31 kundan ortiq, lekin 90 kundan oshmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa
- C. qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag'larining mo'ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun etarli bo'lmasa
- D. oxirgi 180 kun ichida aktivlarning asosiy qarzi va (yoki) foizlari bo'yicha muddati 30 kungacha kechiktirilgan bir nechta holatlar mavjud bo'lsa

15. *Quyidagilardan qaysi biri mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati «umidsiz» deb tasniflanadi?*

A. qarzdorning 2-son kartotekasida 91 kundan ortiq, lekin 180 kundan oshmagan muddatga kechiktirilgan to'lov hujjatlari mavjud bo'lsa

B. qarzdorning 2-son kartotekasida muddati 180 kunga kechiktirilgan to'lov hujjatlari mavjud bo'lsa

C. ta'minlangan aktivlar bo'yicha asosiy qarz va foizlar bo'yicha 91 kundan ortiq, lekin 120 kundan oshmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa

D. qarz oluvchining kapitali etarli darajada bo'lmasa

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

11.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

Kredit riski-

Ssuda operatsiyalaridan olinadigan daromadlar -

Diskont tijorati -

Kredit siyosatining maqsadi –

Kredit siyosatining vazifasi –

Kreditga layoqatlilik-

Kreditlash jarayoni-

Kreditlash obyektlari-

Kreditlash strategiyasi-

Kreditlash subyektlari-

Kreditlash taktikasi-

Kreditlash tarixi-

11.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Kreditlash necha bosqichda amalga oshiriladi?

2. Banklarda kredit yig'ma jildi qanday shakllantiriladi?

3. Kredit hujjatlarini rasmiylashtirishga nisbatan qanday talablar qo'yiladi?

4. Mijozning kredit tarixi deganda nimani tushunasiz?


5. Kredit shartnomasining tarkibiy tuzilishi nimalardan iborat?

6. Kredit monitoringi nima va u qanday tartibda amalga oshiriladi?

7. Kredit monitoringining qanday turlari mavjud?

MAVZUGA OID KROSSVORD

11.1-krossvord



Eniga:

2. Obyekt umumlashuviga ko'ra kredit turi
3. Kreditlash tizimi bloklaridan biri
5. Kredit siyosatiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan biri
6. Kredit shartnomasining asosiy shartlaridan biri
7. Kredit siyosatiga ta'sir etuvchi ichki omillardan biri
9. Eksportyor bankning to'g'ridan to'g'ri milliy eksportyorni kreditlamasdan, balki chet ellik xaridorni, ya'ni, importyor mamlakat firmasi va uning bankini kreditlashda foydalaniladigan kredit turi
11. Kreditlash jarayoni bosqichi
12. Kredit siyosatiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan biri
14. Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda banklarning tutadigan strategiya va taktikasi
15. Kredit monitoringining turi

Bo'yiga:

1. Kredit qaytarish muddatining uzaytirilishi

4. Kredit buyurtmasini ko‘rib chiqishda kredit hujjatlarining to‘liqligi, to‘g‘ri va puxta rasmiylashtirilganligi, ta‘minlanganligi va maqsadlilikini o‘rganuvchi monitoring turi

8. Kredit shartnomasining asosiy shartlaridan biri

10. Kreditlarni qaytmasligi natijasida zarar ko‘rish xavfi

13. Kreditlashning texnik-iqtisodiy bloki elementlaridan biri

TIJORAT BANKLARINING FOIZ SIYOSATI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

o'rtacha tortilgan foiz stavkasi — banklar tomonidan hisobot davrida milliy valyutada jalb qilingan yuridik shaxslarning jamg'arma va muddatli depozitlari hamda jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha, jamg'arma va muddatli omonatlari, shuningdek, bank plastik kartalaridagi mablag'lar bo'yicha belgilangan yillik foiz stavkalari hamda umumiy depozitlar (omonatlar) summasidan kelib chiqqan holda hisoblanadigan foiz stavkasi;

hisobot davri — yilning har bir choragi yakuni bo'yicha olingan davr.

Kreditlar, depozitlar bo'yicha foiz stavkalari, bank operatsiyalariga oid vositachilik haqi miqdori bank tomonidan mustaqil belgilanadi.

Bank mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar shartlarini, shu jumladan, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini va ularni belgilash tartibini, depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini, vositachilik haqi miqdorini va ushbu shartnomalarning amal qilish muddatlarini bir taraflama o'zgartirish huquqiga ega emas.

real foiz stavkasi - aktivning boshlang'ich balans qiymati bilan tenglashtirish uchun aktivdan foydalanish muddati mobaynida kutilayotgan kelgusidagi pul tushumlari oqimini diskontlash uchun ishlatiladigan foiz stavkasi;

real foiz stavkasi usuli - bu usul diskont yoki mukofotni foizli daromadlar(yoki xarajatlar)ga amortizatsiya qilish yo'li bilan yoki kechiktirilgan foiz to'lovlarini (masalan, har oyda emas, balki har yilda olinadigan yoki to'lanadigan) taqsimlash yo'li bilan aktiv (majburiyat)ning xizmat muddati davomida doimiy foiz stavkasini tan olishga olib keladi.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi (PF-5992-sonli) Farmoni

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (PQ-2344-sonli) Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi (PQ-3620-sonli) Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2004 yil 24 yanvardagi «Foizlarni o‘stirmaslik to‘g‘risida»gi (1304-sonli) Nizomi.

MAVZUGA OID MASALALAR

12.1-masala. Berilgan ma’lumotlardan foydalanib, tijorat bankining sof foizli spred koeffitsienti aniqlang.

- * brutto kreditlar-24170 mln so‘m
- * netto kreditlar - 23010 mln so‘m
- * kreditlardan olingan foizlar – 2634 mln so‘m
- * talab qilib olinadigan depozitlar – 30144 mln so‘m
- * muddatli depozitlar – 7567 mln so‘m
- * jamg‘arma depozitlar – 5164 mln so‘m
- * talab qilib olinadigan depozitlarga to‘langan foizlar – 301,4 mln so‘m
- * muddatli depozitlarga to‘langan foizlar – 810,6 mln so‘m
- * jamg‘arma depozitlarga to‘langan foizlar – 672,1 mln so‘m.

12.2-masala. Vekselning nominal qiymati 150 000 so‘m. Veksel egasi to‘lovni amalga oshirish sanasidan 20 kun oldin uni bankda hisobga oldi va evaziga 130 000 so‘mni oldi. Agar bank yili 360 kun bo‘lsa, hisob stavkasini aniqlang.

12.3-masala. Vekselning nominal qiymati – 50 000 so‘m, to‘lash muddati 3 oy. Bank ushbu vekselni yillik 30% hisob stavkasi bo‘yicha hisobga oldi. Veksel egasi qancha oladi? Bankning diskonti qanchaga teng?

12.4-masala. Mijozi nominal qiymati 100 000 so‘m bo‘lgan vekselni bankka 150 kundan keyin hisobga taqdim etmoqda. Hisob-kitobni to‘lash muddati 200 kun keyin. Bankning hisob stavkasi 30% ni tashkil etadi. Diskont miqdorini aniqlang.

MAVZUGA OID TESTLAR

12.1-testlar

1. *Tijorat banklarining foiz stavkasiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsating:*

- A. qayta moliyalashtirish siyosati, majburiy zaxiralar me'yori, inflyatsiya, depozit foizi
- B. ssuda miqdori va muddati, investitsiya summasi
- C. depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasi, inflyatsiya, mijozning o'zi
- D. mijozning moliyaviy faoliyati, qayta moliyalash siyosati

2. *Jahon tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklari depozitlarining etarliligiga nisbatan belgilangan me'yoriy talab qancha?*

- A. 25%
- B. 30%
- C. 20%
- D. 50%

3. *Jahon tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklari sof foizi spread koeffitsientiga nisbatan belgilangan me'yoriy talab qancha?*

- A. 1,25%
- B. 1,25%
- C. 1,25%
- D. 1,25%

4. *Jahon tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklari sof foizli marjasiga nisbatan belgilangan me'yoriy talab qanday?*

- A. 4,5%
- B. 4,5%
- C. 4,5%
- D. 4,5%

5. *Foiz marjasi - bu...?*

- A. Foizli daromadlar bilan foizli xarajatlar o'rtasidagi farq
- B. Foizsiz daromadlar va foizsiz xarajatlar o'rtasidagi farq
- C. Daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq

D. Resurslar va kreditlar o'rtasidagi farq

6. Foiz stavkalarining hisoblanishiga ko'ra turlarini ko'rsating

- A. Oddiy va murakkab foiz stavka
- B. Aktiv va passiv foiz stavka
- C. Nominal va real foiz stavka
- D. Qat'iy va suzib yuruvchi foiz stavka

7. Foiz stavkalari tizimi o'z ichiga nimalarni oladi?

- A. Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi, banklararo kredit resurslari bozori stavkasi, depozitlar stavkasi, kredit uchun foiz stavkasi
- B. Depozitlar stavkasi, Markaziy bank revolvatsiya va devalvatsiya siyosati
- C. Kredit uchun foiz stavkasi, bank aktivlari o'rtacha qiymati
- D. Markaziy bankning hisob stavkasi, depozitlarning balansdagi ulushi

8. Tijorat banklarining foiz stavkasiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsating.

- A. ssuda miqdori va muddati, investitsiya summasi
- B. depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasi, inflyatsiya, mijozning o'zi
- C. remoliyalashtirish siyosati, majburiy zaxiralar me'yor, inflyatsiya, depozit foizi
- D. mijozning moliyaviy faoliyati, qayta moliyalash siyosati

9. Foiz stavkalarining hisoblanishiga ko'ra turlarini ko'rsating

- A. aktiv va passiv foiz stavka
- B. nominal va real foiz stavka
- C. qat'iy va suzib yuruvchi foiz stavka
- D. oddiy va murakkab foiz stavka

10. O'zgarish darajasiga ko'ra foiz stavkalarining turlarini ko'rsating

- A. oddiy va murakkab foiz stavka
- B. aktiv va passiv foiz stavka
- C. nominal va real foiz stavka
- D. fiktsirlangan va suzib yuruvchi foiz stavka

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

12.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

Fiskal-monetar risk-

Foiz riski-

Foizlar –

Aktiv operatsiyalar bo'yicha foizlar –

Tijorat banklarining foiz siyosati –

Antisipativ foiz stavkasida -

Dekursiv foiz stavkasi

Qiymat plyus modeli –

Praym-rayt (gohida u bazaviy yoki ma'lumot stavkasi deb ataladi)-

Qiymat-foyda modeli –

Kredit riski-

Foiz riski-

Marja –


Bank foiz stavkasi -

12.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar:

1. Foiz stavkalarining qanday turlari mavjud?
2. Tijorat banklari foiz siyosatining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Oddiy foizlar qanday hisoblanadi?
4. Murakkab foizlar qanday hisoblanadi?
5. Tijorat banklari jalb qilgan resurslarning bahosiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Tijorat banklari kreditlarining bahosiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
7. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi bilan tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalari o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
8. Pul bozorida foiz stavkalari qanday shakllanadi?
9. Kapitallar bozorida foiz stavkalari qanday shakllanadi?

MAVZUGA OID KROSSVORD

12.1-krossvord



Eniga:

1. Kredit muassasalari turi bo'yicha foiz stavkasining turi

8. Moliyaviy aktivning foydali xizmat muddati davomida yoki qayerda maqbul bo'lsa, nisbatan qisqa davrda kelgusida kutilayotgan pul oqimlarini, uning sof balans qiymatiga ega bo'lishi uchun aniq diskontlaydigan foiz stavkasi.

11. Kreditdan foydalanish davrida o'zgarish xarakteriga qarab foiz stavkasining turi.

12. Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar belgilangan davrning boshida mijozlardan undirib boriladigan foiz stavkasi.

13. Foydalanish ko'lami bo'yicha foiz stavkasining turi.

14. Kredit shakllari bo'yicha foiz stavkasining turi.

15. Kredit foiz stavkasi turi.

Bo'yiga:

2. Foiz stavkalarining tuzilishi bo'yicha turi.
3. Foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi umumiy (tashqi) omillardan biri.
4. Banklar tomonidan berilgan kreditlar bilan ularning manbalarining muddati o'rtasidagi nomunofiqlik riski.
5. Banklarning oladigan foizi bilan beradigan foiz o'rtasidagi farq.
6. Hisoblangan foizlar belgilangan davr oxirida to'lanadigan foiz stavkasi
7. Foizlarni to'lash shakli bo'yicha kredit foiz turi.
9. Foizlarni hisoblash usuli bo'yicha kredit foiz turi.
10. Foizlarni o'zgarishi bo'yicha kredit foizi turi

ALOHIDA KREDIT TURLARI VA USULLARI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Iste'mol krediti jismoniy shaxsga (iste'molchiga) uning iste'mol ehtiyojlarini qondirish maqsadida tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish uchun beriladigan kreditdir.

Moliyaviy iste'mol krediti va tovar iste'mol krediti iste'mol kreditining shakllaridir.

Sinditsiyalashtirilgan kredit — bir necha banklar tomonidan yirik investitsiya loyihalarini birgalikda kreditlash.

Overdraft – Bank tomonidan Qarz oluvchiga o'rnatilgan limit va muddat doirasida beriladigan kredit.

Revolver kreditlash uchun qayta tiklanadigan kredit liniyasi bir yilgacha bo'lgan muddatga ochiladi

Ta'lim kreditlari Oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlariga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan talabalarning o'qishi uchun talabalarning o'zlariga, ularning ota-onalariga yoki vasiylariga berilishi mumkin.

Ipoteka kreditlari – muomala layoqatiga, doimiy ish joyiga, yashash joyida ro'yxatdan o'tgan, o'z faoliyati natijasida olingan daromadga va boshqa daromadlarga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga quyidagi maqsadlarga beriladi:

a) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kelishilgan yakka tartibdagi va namunaviy loyiha asosida, qurilishning belgilangan normalari va qoidalariga rioya qilib yakka tartibda uy-joy qurishga;

b) yakka tartibda uy-joyni rekonstruktsiya qilishga;

v) yakka tartibdagi uy-joy yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani sotib olishga.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 6 maydagi «Iste'mol krediti to'g'risida»gi (O'RQ-33-sonli) Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 4 oktyabrdagi «Ipoteka krediti to'g'risida»gi (O'RQ-58-sonli) Qonuni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni

3. Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 26 iyuldagi 318-sonli) Qarori bilan tasdiqlangan “Oliy o‘quv yurtlarida to‘lov-kontrakt asosida o‘qish uchun ta’lim kreditlari berish to‘g‘risida”gi Nizom

MAVZUGA OID MASALALAR

13.1-masala. Mijozning joriy hisobraqamida 2014 yil 5 may kuni soat 10:00da 2310 ming so‘m pul bor edi. Shu kuni 10:30 da hisobraqamga 1100 ming so‘m pul tushdi. Soat 11:00 da mijoz etkazib berilgan tovarlar uchun 3470 ming so‘m pul to‘ladi.

2014 yil 6 may kuni hisobraqamga 1230 ming so‘m pul tushdi. Shu kuni kunning ikkinchi yarmida joriy hisobraqam 1300 ming so‘mga debetlanadi.

Ikki kun mobaynida mijoz bankning qancha summadagi overdraft kreditidan foydalandi?

13.2-masala. Universitetda yillik to‘lovlarning asosiy miqdori 2000 AQSh dollarini tashkil etadi va inflyatsiyani hisobga olgan holda oshib boradi (15%). O‘qish muddati 5 yil. Universitet butun o‘qish muddati davomiga birdaniga 10 ming dollar to‘lashni taklif qilmoqda. Agar bank foizlari 13%, omonat summasi 14 ming dollar bo‘lsa, bu taklif talabaga foydali bo‘ladimi yoki yo‘q?

MAVZUGA OID TESTLAR

13.1-testlar

1. Revolver kreditlar qancha muddatga beriladi

- A. shartnomadagi tomonlarning kelishuviga bog‘liq
- B. 1 yildan 2 yilgacha muddatga
- C. 1 yilgacha bo‘lgan muddatga
- D. 10 yil muddatga

2. Lombard krediti bu:

- A. Qimmatli qog‘ozlarni garovga olish asosida kredit berish.
- B. Sertifikatli kreditlar berish.
- C. Byumlarni qabul qilib kreditlash
- D. Tovarlar evaziga kredit berish

3. Ipoteka to'g'risidagi shartnoma qachondan boshlab kuchga kiradi.

- A. Kredit berish bo'yicha farmoyish chiqqandan so'ng 10 kun ichida
- B. ipoteka krediti berilishi bilan
- C. shartnoma imzolanganidan keyin
- D. davlat ro'yxatidan o'tkazilishi bilan tomonlarning kelishuvi asosida

4. Sinditsiyali kredit-bu:

- A. Bitta bank tomonidan bir nechta loyihani moliyalashtirish uchun berilgan kredit
- B. Bir nechta bank tomonidan bir nechta loyihani moliyalashtirish uchun berilgan kreditlar
- C. Bitta loyihani kreditlash uchun ikki va undan ortiq bank tomonidan berilgan kredit
- D. Yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish maqsadida beriladigan kredit

5. Ochiq kredit liniyalari bo'yicha kreditlashning xususiyati nimada?

- A. Har xil kredit berishda kredit paketi tuziladi
- B. Barcha tashkilotlarga beriladi
- C. Ochiq kreditliniya kiritiladi
- D. Kredit paketi bir marta rasmiylashtiriladi va kredit liniya ochiladi

6. Revolver kreditlash uchun qayta tiklanadigan kredit liniyasi qancha muddatga ochiladi?

- A. bir yilgacha bo'lgan muddatga
- B. kichik biznes subyektlariga bir oygacha muddatga, yirik ishlab chiqarish korxonalariga bir yilgacha muddatga
- C. revolver kreditlarining muddati belgilanmagan, xohlagan paytida murojaat etishlari mumkin
- D. odatda revolver kreditlari bir chorakka ochiladi va har oyning oxirida hisob-kitob qilinadi

7. Revolver kreditini olish uchun birinchi marta murojaat qilishda qarz oluvchi quyidagi hujjatlarning qaysi birini taqdim etmaydi?

- A. pul oqimlari majburiy tartibda ko'rsatiladigan biznes-reja
- B. debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma'lumotnoma (2a-shakl)
- C. ta'minot turlaridan birortasi
- D. mijozlari bilan tuzilgan oldi-sotdi shartnomalari va schyot-faktura (yoki veksel)

8. Ipoteka qo'llanilishi mumkin bo'lmagan obyektlar ro'yxati kim tomonidan belgilanadi?

- A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- B. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va ipoteka bo'yicha ko'chmas mulk agentligi
- C. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi GeoKadastr tashkiloti bilan hamkorlikda
- D. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

9. Ushbu kredit Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga sarf-xarajatlarni Markaziy bankda qayta hisobga olish yo'li bilan beriladi.

- A. lombard krediti
- B. muddatli kredit
- C. overdraft
- D. diskont krediti

10. Kreditlashning qaysi shaklida mijozning joriy hisobraqami nafaqat saqlanadi, balki unda debetli qoldiq bo'lishiga ruxsat etiladi?

- A. overdraft
- B. konsortsial kredit
- C. kontokorrent
- D. revolverli kredit

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

13.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

Bank krediti –

Overdraft –

Kontokorrent schyotidan kreditlash –

Lombard kreditlari deganda –

Iste'mol krediti –


Ipoteka krediti –
Sinditsiyalashtirilgan kredit –
Yirik investitsiya loyihasi –
Etakchi bank –
Ta'lim kreditlari –
Ta'minlanmagan kreditlar –

13.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Kreditlar muddatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
2. Kreditlar ta'minlanganligiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Kreditlar takror ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. Kreditlar bahosiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
5. Kreditlar foiz stavkasining turiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
6. Kreditlar tarmoq xususiyatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
7. Kreditning kreditlash obyektlariga ko'ra qanday turlari mavjud?
8. Kreditning maqsadli yo'nalishi va kredit munosbatlarida ishtirok etuvchi subyektlarga ko'ra qanday turlari mavjud?
9. Xalqaro kredit nima va uning qanday turlari, obyekti va subyekti mavjud?
10. Kreditlashning qanday zamonaviy usullarini bilasiz?
11. Overdraft shaklida kreditlash qay tartibda amalga oshiriladi?
12. Kreditlashning kontokorrent shakli nima va u overdraftdan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
13. Kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlashning afzalliklari nimada?
14. Mijozni alohida ssuda hisobarqamidan bir marotabali kreditlash qanday amalga oshiriladi?
15. Faktoringda tovar hujjatlari qaysi shartlar asosida sotib olinadi?
16. Forfeyting nima?

MAVZUGA OID KROSSVORD

13.1-krossvord



Eniga:

6. Bir nechta banklar tomonidan yirik investitsiya loyihalarini birgalikda kreditlash.

11. Sotib olingan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar haqini bo'lib-bo'lib to'lash tarzida iste'molchiga beriladigan iste'mol krediti.

12. Kredit qo'yilmalarining iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar, qarz oluvchilar guruhlari hamda kerit turlari bo'yicha samarali taqsimlanishi.

14. Banklar tomonidan qimmatli qog'ozlarni yoki nodir metallarni garovga olish yo'li bilan qat'iy qayd qilingan muddatda beriladigan kreditlar.

15. Foiz stavkasi bozor stavkasidan yuqori bo'lgan kreditlar.

Bo'yiga:

1. Mijozning faoliyatidan keladigan tushumlari schyotining kreditida, mijozning faoliyati bilan bog'liq to'lovlar esa schyotning debetida aks etadigan alohida kredit turi.
2. Kreditlarning muddatiga ko'ra turi.
3. Hozirgi davrda tijorat banklari amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy kreditlash usullaridan biri.
4. Sotib olingan tovarlar (xizmatlar) haqini to'lash uchun pul mablag'lari tarzida iste'molchiga beriladigan iste'mol krediti.
5. Kreditning maqsadli yo'nalishi va kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlarga ko'ra kredit turlaridan biri.
7. Biror bir ta'minotsiz berilgan kreditlar.
8. Kontokorrent hisob raqamining maxsus shakli.
9. To'qimachilik korxonalariga va ulgurji savdo korxonalariga taqdim etiladigan qayta tiklanadigan kredit liniyasi.
10. Tarmoq xususiyatiga ko'ra kreditning turlaridan biri.
13. Kreditning bahosiga ko'ra turlaridan biri.

14-MAVZU

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Mikrofirma - ishlab chiqarish tarmoqlarida, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 20 kishi, xizmat ko'rsatish sohasida va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa tarmoqlarda, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 10 kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlarida, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 5 kishi bo'lgan korxonalar.

Kichik korxonalar - quyidagi tarmoqlarda ish bilan band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni:

engil, oziq-ovqat hamda qurilish materiallari sanoatida – 200 kishigacha;

metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik va mebel sanoatida - 100 kishigacha;

mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat - ishlab chiqarish sohalarida - 50 kishigacha;

fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalarida (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida - 25 kishigacha bo'lgan korxonalar.

Oilaviy korxonalar - uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxonalar faoliyatini faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkor - jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshiruvchi subyekt.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi (O'RQ-328-sonli) Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi (PF-4609-sonli) Farmoni

MAVZUGA OID TESTLAR

14.1-testlar

1. Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga beriladigan mikrokreditlar mevali daraxtlar va uzum ko'chatlarini sotib olish, baliqchilik va parrandachilikni rivojlantirish uchun qancha muddatga beriladi?

- A. 1 yillik imtiyozli davr bilan 5 yilgacha
- B. 6 oylik imtiyozli davr bilan 1 yilgacha
- C. 1 yillik imtiyozli davr bilan 3 yilgacha
- D. 6 oylik imtiyoz bilan 3 yilgacha

2. Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga beriladigan mikrokreditlar limon etishtirishga mo'ljallangan issiqxonalar tashkil etish uchun qancha muddatga beriladi?

- A. 1 yillik imtiyozli davr bilan 5 yilgacha
- B. 3 yillik imtiyozli davr bilan 5 yilgacha
- C. 1 yillik imtiyozli davr bilan 3 yilgacha
- D. 2 yillik imtiyozli davr bilan 5 yilgacha

3. Quyidagilardan qaysi biri bankka aloqador bo'lgan shaxs hisoblanmaydi?

A. bankning 5 yildan ortiq bo'lgan mijozlari, ularning mansabdor shaxslari hamda 3 yildan ortiq korporativ mijozlar

B. bank ustav kapitalining 10 foizi va undan ortiq qismiga egalik qilib turgan yuridik shaxsning mansabdor shaxslari, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari

C. bank ustav kapitalining 10 foizi va undan ortiq qismiga egalik qilib turgan jismoniy shaxs va uning yaqin qarindoshlari

D. Bankning mansabdor shaxslari, jumladan bank kengashining a'zolari, ushbu bankning barcha xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari

4. Bankning barcha aloqador bo'lgan shaxslariga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi qanchani tashkil etadi?

- A. bank regulyativ kapitalining 100 foizidan oshmasligi lozim
- B. bank birinchi darajali kapitalining 50 foizidan oshmasligi lozim
- C. bank birinchi darajali kapitalining 100 foizidan oshmasligi lozim
- D. bank birinchi darajali asosiy kapitalining 100 foizidan oshmasligi lozim

5. Ta'minotga ega bo'lmagan banklararo kredit bitimlarini tuzganda bir qarzdorga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning maksimal me'yor qancha?

- A. bank birinchi darajali kapitalining 15 foizi
- B. bank birinchi darajali kapitalining 20 foizi
- C. bank regulyativ kapitalining 15 foizi
- D. bank birinchi darajali kapitalining 25 foizi

6. Kichik biznes subyektlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga beriladigan kreditlarning muddati qancha?

- A. 12 oy muddatgacha
- B. 18 oy muddatgacha
- C. 6 oy muddatgacha
- D. 24 oy muddatgacha

7. Kichik biznes subyektlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga beriladigan kreditlarning foizi qancha?

- A. tijorat banki va mijoz o'rtasida kelishgan holda o'rnatiladi
- B. O'zR Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi miqdorida
- C. O'zR Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasining 50 foizi miqdorida

D. O‘zR Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasining $\frac{1}{4}$ qismi miqdorida

8. *Tijorat banklari Imtiyozli kredit berish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun aylanma mablag‘larni to‘ldirishga kreditlar qancha muddatga beriladi?*

- A. kamida 3 yil muddatga
- B. kamida 5 yil muddatga
- C. muddatiga aniq talab qo‘yilmagan
- D. kamida 2 yil muddatga

9. *Tijorat banklari Imtiyozli kredit berish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan berilgan kreditlar foiz stavkasi miqdori qancha?*

- A. qayta moliyalash stavkasining 50 foizi
- B. aniq foiz stavkasi belgilanmagan
- C. qayta moliyalash stavkasining 75 foizi
- D. qayta moliyalash stavkasi miqdorida

10. *Tijorat banklari Imtiyozli kredit berish maxsus jamg‘armasiga ajratmalar nimaga qarab ajratiladi?*

- A. bank kapitali
- B. bankning jalb qilingan depozitlari
- C. muammoli kreditlariga qarab
- D. har chorakdagi sof foydaning prognoz summasi

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

14.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

Tadbirkorlik faoliyati -

Yakka tartibdagi tadbirkorlik -

Mikrofirmalar –

Kichik korxonalar -

Dehqon xo‘jaligi -

Fermer xo‘jaligi –

Mikromoliyalash –

Mikrokredit –

Mikroqarz -

Mikrolizing –

Oilaviy tadbirkorlik –

Oilaviy korxonalar -

14.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Kichik biznes subyektining maqomi qaysi mezonlar asosida aniqlanadi?

2. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes qanday o‘rin tutadi?

3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning qanday me‘yoriy-huquqiy asoslari mavjud?

4. “Mikrokreditbank” tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mikrokreditlarni berish va rasmiylashtirish tartibi qanday?

5. “Mikrokreditbank” tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mikrolizing xizmati qay tartibda ko‘rsatiladi?


6. Kichik biznes subyektlari xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari hisobidan qanday tartibda kreditlanadi?

7. Kichik biznes subyektlarining investitsiya loyihalarini tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari hisobidan moliyalashtirish qanday tartibda amalga oshiriladi?

8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda banklar tomonidan kreditlashning qaysi shakllaridan foydalaniladi?

MAVZUGA OID KROSSVORD

14.1-krossvord



Eniga:

2. Kredit shartnomasiga ko‘ra to‘lov muddati hali yetib kelmagan ssuda.

3. Fermer xo‘jaligi faoliyat qaysi hujjat asosida faoliyat ko‘rsatadi.

5. Qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun bazaviy hisoblash miqdorining ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladigan pul mablag‘lari.

6. Jahon amaliyotida mikromoliyalash sohasida ko‘rsatiladigan xizmat turlaridan biri.

8. ... pulni deponentga qo‘yish xizmatlari bo‘lib, bu xizmatlar biron-bir shaxsga kelgusida foydalanish uchun ozroq miqdorda pul saqlash imkonini beradi.

9. xo‘jaligi oilaviy mayda Tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

12. Banklar va mikrokredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxs bo‘lgan qarz oluvchiga bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdoridan oshmaydigan summada pul mablag‘lari.

13. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati subyektlaridan biri.

14. Bir tomonning ikkinchi tomon talabiga ko‘ra belgilangan ishni bajarishi to‘g‘risidagi shartnoma.

Bo‘yiga:

1. Tadbirkorlik faoliyati subyektlariga kreditlar berilayotganda kafolat beruvchi bo‘lishi mumkin bo‘lgan tashkilot.

2. Obyektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me‘yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko‘rsatkichlariga moslashtirish.

4. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini erkin savdo hamda oila ehtiyojlari uchun yetishtirish, shuningdek, yakka tartibdagi uy-joy qurilishi hamda uy-joyni obodonlashtirish maqsadida oila a‘zolaridan biriga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va o‘lchamlarda ajratib beriladigan yer uchastkasi.

7. ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida

ta'qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyekti.

10. Xo'jalik yurutuvchi subyektning o'z faoliyatidan foyda olish maqsadida moliyaviy va operatsiya siyosatini aniqlash imkoniyati.

11. Bir bankning boshqa bankdagi hisobvarag'i.

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QISHLOQ XO‘JALIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH

MAVZUGA OID ASOSIY TA’RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Dehqon xo‘jaligi - oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan tomorqa er uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtiradigan va realizatsiya qiladigan, yuridik shaxsni tashkil etgan va tashkil etmagan holda faoliyat yuritadigan oilaviy mayda tovar xo‘jaligi;

Fermer xo‘jaligi - yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan, ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt.

MAVZUGA OID ME‘YORIY HUJJATLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi (O‘RQ-580-sonli) Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-3272-sonli) Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-3066-sonli) Qarori.

MAVZUGA OID TESTLAR

12.1-testlar

1. Dehqon xo‘jaligida xo‘jalik faoliyatini davom ettirish istagida bo‘lgan biron nafar xo‘jalik a‘zosi yoki merosxo‘ri qolmaganda nima qilinadi?

- A. dehqon xo‘jaligi sotib yuboriladi
- B. dehqon xo‘jaligi tugatiladi (faoliyati to‘xtatiladi)
- C. davlat ixtiyoriga o‘tkaziladi
- D. boshqa dehqon xo‘jaligi bilan qo‘shib yuboriladi

2. Dehqon xo'jaliklari o'z faoliyatlarini qanday shaklda amalga oshiradi?

- A. yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan
- B. yuridik shaxs tashkil etmasdan
- C. yuridik shaxs tashkil etib
- D. mas'uliyati cheklangan jamiyat sifatida

3. Dehqonchilik mahsuloti etishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklariga ijaraga beriladigan er uchastkalarining eng kam o'lchami paxtachilik va g'allachilik uchun qancha gektarni tashkil etadi?

- A. kamida 10 gektar
- B. kamida 5 gektar
- C. kamida 30 gektar
- D. kamida 50 gektar

4. Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qanday holatda fermer xo'jaligi tomonidan garovga qo'yilishi mumkin?

- A. kreditlar olishda
- B. garovga qo'yilishi mumkin emas
- C. fermer xo'jaligi tugatilayotganda
- D. kreditorlik qarzlari oshib ketganda

5. Ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt deb kimga aytiladi?

- A. kichik korxonalar
- B. oilaviy tadbirkorlar
- C. fermer xo'jaligi
- D. dehqon xo'jaligi

6. Quyidagilardan qaysi biri fermer xo'jaliklarining huquqiga kirmaydi

- A. ijaraga olingan er uchastkalarining xorijiy investorlarga sotish
- B. xarid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers kontraktlari tuzish

C. etishtirgan mahsulotini, shu jumladan, bu mahsulotni iste'molchilarga realizatsiya qilish huquqini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish

D. ixtisoslashuvni hisobga olgan holda va tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari asosida qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishni amalga oshirish

7. Oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyat qanday ataladi?

- A. dehqon xo'jaligi
- B. fermer xo'jaligi
- C. mikrofirma
- D. oilaviy tadbirkorlik

8. Oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa er uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirish va realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi kichik biznes subyektlari kimlar?

- A. fermer xo'jaligi
- B. mikrofirma
- C. oilaviy korxonona
- D. Dehqon xo'jaligi

9. Joylarda kamida uch yil mobaynida yashab turgan fuqarolarga dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa er uchastkasi sug'oriladigan erlarda qanchani tashkil etadi?

- A. 0,5 gektargacha
- B. 1 gektargacha
- C. cheklanmagan
- D. 0,35 gektargacha

10. Oilali va qishloq joylarda kamida uch yil mobaynida yashab turgan fuqarolarga dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa er uchastkasi sug'orilmaydigan (lalmikor) erlarda qanchani tashkil etadi?

- A. 0,5 gektargacha

- B. 0,35 gektargacha
- C. 1 gektargacha
- D. cheklanmagan

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

15.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:


- dividend –
- diler –
- dotatsiya –
- er rentasi -
- erning bahosi -
- er uchastkasi birligiga to‘g‘ri keladigan sof (R) foyda –
- kontraktatsiya -
- ijara –
- ijara shartnomasi –

15.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Imtiyozli kreditlar deganda nimani tushunasiz?
2. Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar qaysi toifadagi subyektlarga beriladi?
3. Tijorat banklarining Imtiyozli kreditlash jamg‘armasi mablag‘lari qaysi manbalar hisobidan shakllantiriladi?
4. Qishloq xo‘jaligi korxonalariga imtiyozli kreditlar berish tartibi qanday?
5. Imtiyozli kreditlarning foiz stavkalari qanday belgilanadi?
6. Tijorat banklarining imtiyozli kreditlar berish amaliyotiga nisbatan qanday moliyaviy imtiyozlar qo‘llaniladi?

MAVZUGA OID KROSSVORD

15.1-krossvord



Eniga:

5. Mijozning qanchalik kreditorlardan mustaqilligini ifodapaydigan koeffitsienti.

7. Akkreditivni aktseptli kredit bilan uyg'unlashuvi xususiyati qaysi kreditga xos

9. Bank mijozlarining kredit tarixlariga asoslangan matematik yoki statistik usuli hisoblanadi

12. Aktivning qoplanish summasining balans qiymatidan pasayishi

13. Bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan mahsulot(daromad)ning yer egalari tomonidan o'zlashtiriladigan qismi.

14. Sotuvchilarmng xaridorlarga tovar shaklida beradigan krediti.

Bo'yiga:

1. Bankning amalga oshirayotgan operatsiyalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni ma'lum birsug'urta badali asosida sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rilgan zararni qoplab berish shartnomasini tuzish

2. Belgilangan tartibga muvofiq foizlar hisoblanishi to'xtatiladigan kreditlar qanday kreditlar deb ataladi?

3. Turli xildagi mahsulotlar, detallar, uzellar va boshqa qo'llaniladigan materiallar va texnologik jarayonlarni ratsional jihatdan bir xilligini ta'minlash

4. Muayyan vaqt davomida moliyaviy tushumlar va sarflar o'rtasidagi farq.

6. Tashkilot korxonaiarga davlat tomomdan beriladigan yordam puli, moddiy yordam, qo'shimcha to'lov.

8. Sifati «qoniqarsiz». «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar qanday aktivlar deyiladi?

9. Ziyon qilish ehtimoli yuqori bo'lgan, lekin ayrim ijobiy amallari mavjud bo'lgan kreditlar qanday ataladi?

10. Mulkka egalik qilish hamda vaqtincha foydalanish uchun to'lanadigan muayyan haq

11. Qaytarilish muddati kelgan, lekin bank mijozining to'lovga noqobilligi tufayli to'lanmayotgan ssudalar qanday ssudalar deyiladi?

TIJORAT BANKLARINING FAKTORING OPERATSIYALARI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Faktoring — xo'jalik yurituvchi subyektlar — etkazib beruvchilarni moliyalashga doir bank xizmatlarining bir turi bo'lib, bunda ular bank — moliyaviy agentga etkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovchilar tomonidan aktseptlangan, lekin to'lov talabnomalari bo'yicha haqi to'lanmagan to'lovni, regress huquqisiz olish huquqini beradi.

Banklar faktoring operatsiyalarini ularning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvaraqlari joylashgan erdagi mijozlar bilan shartnomalar asosida amalga oshiradilar.

Faktoring xizmatlarini ko'rsatish asosida to'lovchi tomonidan moliya agentiga pul talabini bajarish muddatlari 90 kundan oshmasligi kerak.

Faktoring operatsiyalari:

byudjet tashkilotlariga taqdim etiladigan talablar bo'yicha;
jismoniy shaxslarning qarz majburiyatlari bo'yicha;
to'lovga noqobil deb e'lon qilingan korxonalarining majburiyatlari bo'yicha;
zarar ko'rib ishlaydigan korxonalar bo'yicha;
kapital qo'yilmalarni moliyalash bo'yicha;
eksportga oid konsignatsiya kontraktlari bo'yicha;
kompensatsiya va barter bitimlari bo'yicha;
ishga bosqichma-bosqich yoki bo'nak bilan haq to'lash bo'yicha;
to'lovchi shartnomada shartlangan vaqt mobaynida, shuningdek, sotish xizmati ko'rsatilganidan keyin mahsulotni qaytarish huquqiga ega bo'lgan oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha amalga oshirilishi mumkin emas.

Eksport mahsulotlari bo'yicha faktoring xizmatlarini tijorat banklari xorijiy valyutada talab qilib olingungacha depozit hisobvaragi bo'lgan, faqat o'zlari xizmat ko'rsatadigan korxonalar va tashkilotlarga ko'rsatadilar.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni, 5,7-moddalar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-3270-sonli) Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-3620-sonli) Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 3 avgustdagi “Tijorat banklari tomonidan o‘zbekiston respublikasi hududida faktoring operatsiyalarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi (953-sonli) Nizomi

MAVZUGA OID MASALALAR

16.1-masala. A firma umumiy summasi 300 000 so‘m miqdoridagi mahsulotlarni B va C firmalariga yuborib, tegishli schyot-fakturani tayyorladi va qarzni undirish huquqini bankka berdi. Bank B va C firmalarining to‘lov qobiliyatini baholaganidan keyin, A firmasiga to‘lanishi mumkin bo‘lgan avans to‘lov miqdorini 90 000 so‘m deb belgiladi.

B va C firmalar tomonidan bankka to‘lovlar quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshirilgan:

- 80 000 so‘m. – A firmaga avans to‘lovi to‘langanidan 5 kundan keyin;

-70 000 so‘m - 4 kundan keyin;

- 150 000 so‘m - 7 kundan keyin.

Bankning faktoring xizmati uchun bir kunlik foiz stavkasi 0,13 foizni tashkil etadi. Mijozga to‘langan avans to‘lovining foizi sifatida faktoring xizmati uchun bank daromadini hisoblang.

16.2-masala. Faktoring operatsiyasi bo‘yicha hisob-kitoblarda mablag‘larning muomalada bo‘lish muddatini aniqlang. Kredit summasi 200 ming so‘m , yillik foiz stavkasi 16%, kredit to‘lovi 1200 so‘m.

16.3-masala. Faktoring xizmatlarining narxi – 360 000 so‘m, kredit bo‘yicha foizlar - yiliga 19%. Hisob-kitoblarda mablag‘larning

o‘rtacha aylanish davri 15 kun. Faktoring operatsiyalari uchun qarz miqdorini aniqlang.

16.4-masala. Bank korxonaga bilan faktoring operatsiyasini amalga oshirdi. Bank tomonidan debitor qarzlarni sotib olishga sarflangan mablag‘ 840 000 so‘mni tashkil etdi. Kredit stavkasi 21 foiz. Xaridor bilan mablag‘larning o‘rtacha aylanish davri 10 kun. Penya(jarima)ning butun miqdori (0,03%) faktor daromadi (2 kun) deb belgilangan. Faktoring shartnomasining muddati tugaganidan keyin mol yetkazib beruvchining banki tomonidan olingan summa 730 000 so‘mni tashkil etdi. Sug‘urta foizini va faktoring operatsiyalaridan keladigan daromadni aniqlang.

16.5-masala. Kredit stavkasi yiliga 17 foizni tashkil etadi. Mijozlar bilan hisob-kitoblarda mablag‘larning o‘rtacha aylanish muddati 22 kun. Sotuvchi 600 ming so‘m miqdoridagi schyot-fakturalarni taqdim etdi. Faktoring to‘lovlarining stavkasi va miqdorini aniqlang.

MAVZUGA OID TESTLAR

16.1-testlar

1. Dunyo bo‘yicha Faktoring operatsiyalarining yuqori salmog‘i qaysi qit‘aga to‘g‘ri keladi.

- A. Amerika qit‘asi
- B. Osiyo qit‘asi
- C. Yevropa qit‘asi
- D. Afrika qit‘asi

2. 1960-yilda jahonda birinchi bo‘lib tashkil etilgan Faktoring assotsatsiyasi.

- A. Factors Chain International (FCI)
- B. International Factors Group
- C. EDIFACT
- D. IFEXchange

3. Faktoring operatsiyalarida necha nafar qatnashchi ishtirok etadi?

- A. 3
- B. 2
- C. 4
- D. Istalgancha ishtirokchi bo‘lishi mumkin

4. Xalqaro bank amaliyotida Faktoring operatsiyalari nechta shaklidan foydalaniladi?

- A. 3
- B. 8
- C. 5
- D. 6

5. Xalqaro bank amaliyotida Faktoring xizmatlarining bahosi qanday elementlardan tashkil topadi?

- A. Debitorlik qarzlari miqdori va ular uchun hisoblanadigan foizlar
- B. Foizlar va komission to'lovlar
- C. Debitorlik qarzlari miqdori va komission to'lovlar
- D. Debitorlik qarzlari muammolik darajasi va uning uchun komission to'lovlar.

6. Jahon amaliyotida Faktoring operatsiyalari bo'yicha chegaraviy summalarni belgilashning qanday usullari mavjud?

- A. Kreditlash limitini ajratish, alohida shartnomalar bo'yicha sug'urta
- B. Kreditlash limitini ajratish, alohida shartnomalar bo'yicha sug'urta, har oylik yuk jo'natish limitini aniqlash.
- C. Alohida shartnomalar bo'yicha sug'urta, har oylik yuk jo'natish limitini aniqlash.
- D. To'g'ri javob keltirilmagan

7. Faktoring operatsiyalari qaysi jihatlar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin emas

- A. Budget tashkilotlariga taqdim etiladigan talablar bo'yicha
- B. Zarar ko'rib ishlaydigan korxonalar bo'yicha
- C. Kapital qo'yilmalarni moliyalash bo'yicha
- D. Yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri

8. Tijorat banklari tomonidan Faktoring operatsiyalarini amalga oshirish qanday bosqishlarda amalga oshiriladi?

- A. Sotuvchi va xaridoridor o'rtasida to'lovni kechiktirilish ko'zda tutilgan shartnomani tuzish, tovarlarni yetkazib berish, Faktoring shatrnomasini tuzish, xarid qiluvchi tomonidan to'lovni amalga oshirish.

B. Sotuvchi va xaridoridor o'rtasida to'lovni kechiktirilish ko'zda tutilgan shartnomani tuzish, Bank tomonidan moliyalashtirishni amalga oshirish, xarid qiluvchi tomonidan to'lovni amalga oshirish.

C. Tovarlarni yetkazib berish faktoring shartnomasini tuzish, bank tomonidan moliyalashtirishni amalga oshirish, xarid qiluvchi tomonidan to'lovni amalga oshirish.

D. Sotuvchi va xaridoridor o'rtasida to'lovni kechiktirilish ko'zda tutilgan shartnomani tuzish, tovarlarni yetkazib berish, faktoring shartnomasini tuzish, bank tomonidan moliyalashtirishni amalga oshirish, xarid qiluvchi tomonidan to'lovni amalga oshirish.

9. Bank yoki faktoring kompaniyasi majburiyatni sotib olgandan so'ng, o'z mablag'larini qaytara olmaganda, zararni qoplab berish talabi bilan chiqish huquqini beruvchi faktoring turi.

- A. Regress huquqli faktoring
- B. Regress huquqsiz faktoring
- C. Chaqirib olinuvchi faktoring
- D. Revolver faktoring

10. Bank yoki faktoring kompaniyasi majburiyatni sotib olgandan so'ng, o'z mablag'larini qaytara olmaganda, zararni qoplab berish talabi bilan chiqish huquqini berilmaydigan faktoring turi.

- A. Regress huquqli faktoring
- B. Regress huquqsiz faktoring
- C. Chaqirib olinuvchi faktoring
- D. Revolver faktoring

11. Faktoring ostidagi majburiyatni boshqa shaxslarga o'tkazganda debitor xabardor qilinuvchi faktoring turi.

- A. Ochiq faktoring
- B. Yopiq faktoring
- C. Chaqirib olinuvchi faktoring
- D. Revolver faktoring

12. Faktoring ostidagi majburiyatni boshqa shaxslarga o'tkazganda debitor xabardor qilinmaydigan faktoring turi.

- A. Ochiq faktoring
- B. Yopiq faktoring
- C. Chaqirib olinuvchi faktoring
- D. Revolver faktoring

13.Faktor va uning mijozi turli xil mamlakatdan bo‘lgan holatdagi faktoring turi.

- A. Xalqaro faktoring
- B. Ichki faktoring
- C. Chaqirib olinuvchi faktoring
- D. Revolver faktoring

14.Faktor va uning mijozi bitta mamlakatdan bo‘lgan holatdagi faktoring turi.

- A. Xalqaro faktoring
- B. Ichki faktoring
- C. Chaqirib olinuvchi faktoring
- D. Revolver faktoring

15.Dunyoda faktoringga oid dastlabki operatsiya qachon va qayerda amalga oshirilgan?

- A. 1994-yil, O‘zbekistonda
- B. XX asrda, AQShda
- C. Miloddan avvalgi 2000 yillarda Mesopatamiyada
- D. Miloddan avvalgi 3 asrda Misrda

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

16.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

Faktoring –

Fiskal-monetar risk-

Foydalilik-risk-

Faktor –

Yetkazib beruvchi (kreditor) –

Xaridor (qarzdor) –

Ichki faktoring (domestic factoring) –

Tashqi faktoring (xalqaro faktoring - international factoring) –

Konvension (keng, ochiq) –

Konfidensial -

Regress huquqi bilan (ingl. recourse factoring) –

Regress huquqsiz (ingl. non recourse factoring) –


16.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Faktoring so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
2. Faktoringda regress huquqi qanday qo‘llaniladi?
3. Regress huquqsiz deganda nimani tushunasiz?

4. Banklarning faktoring kreditlari qanday rasmiylashtiriladi?
5. Banklarning faktoring operatsiyalarini amalga oshirishning qanday me'yoriy-huquqiy asoslari mavjud?
6. Faktoring kreditlari bilan bog'liq bo'lgan qanday risklar mavjud?

MAVZUGA OID KROSSVORD

16.1-krossvord



Eniga:

2. Xo'jalik yurituvchi subyektlar - mol yetkazib beruvchilarni (bundan keyingi matnda - mijoz) ular tomonidan bank - moliya agentiga to'lovchilardan (bundan keyingi matnda -to'lovchi) jo'natilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun ular tomonidan akseptlangan, lekin hali to'lanmagan to'lov talabnomalari bo'yicha pul to'lovini olish huquqini o'tib berishlari evaziga, regress huquqsiz, moliyalashtirish borasidagi bank xizmati turi.

3. Yetkazib beruvchining kontragentlari uning sotishini bank tomonidan kreditlanishi haqida xabardor qilinmaydigan faktoring turi.

5. Kredit resurslari qiymatining keskin o'zgarish riski.

8. Xalqaro bank amaliyotida faktoring operatsiyalari shakllaridan biri.

9. Qaysi faktoring operatsiyasida sotuvchi talabni bankka sotilganligi to'g'risidagi ma'lumotni sotib oluvchiga yetkazishga majbur.

10. Bankning mijoz bilan faktoring xizmati ko'rsatishga doir shartnomasida ko'rsatilishi shart bo'lgan elementlardan biri.

11. Mijozga moliyaviy xizmatlarning universal tizimini ko'rsatish bo'lib, buxgalteriya hisobi mol etkazib beruvchilar va sotib oluvchilar bilan hisoblashish, sug'urtali kreditlash va boshqa moliyaviy xizmatlarni o'z ichiga oladigan faktoring turi.

12. Londondagi jahon ssuda kapitallari bozoridagi foiz stavkasi.

13. Forfeytingdan olingan daromadlar qaysi daromadlar turkumiga mansub.

14. Kelgusi bitimda belgilangan oldindan kelishilgan narx bo'yicha ma'lum miqdordagi ba'zi asosiy aktivlarni sotish, boshqa tomon esa sotib olish majburiyatiga muvofiq tuzilgan kelishuvlarga qanday bitimlar deyiladi?

Bo'yiga:

1. Faktoring operatsiyalari qaysi operatsiyalar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin emas.

4. Yetkazib berish haqini o'z vaqtida to'lamaslik riski.

6. Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha taraflar, shuningdek, faktoring kompaniyasi bitta mamlakatda joylashgan faktoring turi

7. Forfeyting operatsiyasida qaysi hujjatdan foydalaniladi?

11. Ikki valyutaning o'zaro nisbati bo'lib, bu nisbat mazkur valyutalarning uchinchi valyutaga nisbatan kursi orqali aniqlanadigan kurs?

TIJORAT BANKLARINING LIZING OPERATSIYALARI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Lizing (moliyaviy ijara) — bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdin (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib sotib olishni va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga o'n ikki oydan ortiq muddatga berishni nazarda tutadigan ijara munosabatlarining alohida turi;

mikrolizing — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun lizing to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq 600 mln so'mdan oshmaydigan summada beriladigan lizing;

lizing obyektlari — tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan, korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk (yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar, shuningdek muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo'lishi cheklangan boshqa mol-mulklar bundan mustasno);

lizing subyektlari — lizing beruvchi, lizing oluvchi hamda sotuvchi.

lizing beruvchi — lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga kelgusida topshirish maqsadida lizing obyektini mulk qilib oluvchi bank;

lizing oluvchi — lizing shartnomasi bo'yicha lizing obyektini egalik qilish va foydalanish uchun olayotgan shaxs;

sotuvchi — lizing obyektini lizing beruvchiga sotadigan shaxs;

lizing shartnomasi muddati — lizing shartnomasi bo'yicha tomonlar majburiyatlarining to'la bajarilgungacha bo'lgan davr;

lizing muddatining boshlanishi — lizing shartnomasiga muvofiq lizing oluvchining lizing obyektiga egalik qilish va foydalanish huquqini amalga oshirishni boshlagan sana, ya'ni lizing obyektini dastlabki (boshlang'ich) tan olish sanasi;

lizing to'lovlari — lizing beruvchining lizing obyektini olish uchun qilgan xarajatlarining hammasi yoki ko'p qismi, shuningdek lizing obyektini etkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarining

lizingga oluvchi tomonidan qoplanishi hamda lizing beruvchi daromadi yig'indisi.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni, 5,7-moddalar.

2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 11 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi (O'RQ-582-sonli) Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 apreldagi «Lizing to'g'risida»gi (O'RQ-756-I-sonli) Qonuni, 2-modda.

4. O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 15 sentyabrdagi «Mikromoliyalash to'g'risida»gi (O'RQ-50-sonli) Qonuni, 6-modda

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi (PQ-3066-sonli) Qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi (PQ-3620-sonli) Qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2006 yil 27 dekabrdagi “Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida”gi (1648-sonli) Nizomi

MAVZUGA OID MASALALAR

17.1-masala. Korxonada 4.0 million so'm miqdoridagi uskunani lizingga oldi, lizing muddati 4 yil. Amortizatsiya stavkasi yiliga 13%ni, lizing beruvchi tomonidan beriladigan kredit bo'yicha foiz stavkasi yillik 25% ni tashkil etadi. Komission to'lovlar yillik 3%. Qo'shimcha xizmatlar (yuridik maslahat, xodimlarni o'qitish) uchun to'lanadigan haq miqdori 0,12 million so'mni tashkil etadi. Butun davr uchun. QQS - 16%. Lizing shartnomasining yakuni bo'yicha uskunani qoldiq qiymatda sotib olish mumkin. Agar lizing to'lovlari har yili teng miqdorda to'lanadigan bo'lsa, lizing to'lovlari miqdorini va uskunaning qoldiq qiymatini aniqlash talab qilinadi. To'lovlar jadvalini tuzing.

17.2-masala. Lizing miqdori 40,000 ming so‘mni tashkil qiladi. Ijara muddati - uch yil. Kredit bo‘yicha foizlar (yillik) - 20%. Kreditni qaytarish muddati: 1-yil - 30%, 2-yil - 30%, 3-yil - 40%. Bankning operatsion xarajatlari 1,5%, daromad solig‘i stavkasi 4%. Amortizatsiya darajasi yiliga 16% ni tashkil qiladi. QQS stavkasi - 15%. Qaysi biri foydaliroq ekanligini aniqlang: uskunani keyinchalik sotib olish bilan ijaraga olish yoki darhol bank krediti hisobidan sotib olish.

17.3-masala. Lizing shartnomasi bo‘yicha, ijaraga olingan obyektning qiymati 150 000 ming so‘mni tashkil qiladi. Lizingga berilgan uskunalarining amortizatsiyasi tezkor hisobdan chiqarish usuli bilan hisoblanadi va yiliga 10 foizdan 20 foizgacha oshiriladi. Lizing muddati 5 yil. Kredit bo‘yicha foiz stavkasi yiliga 16 foizni tashkil etadi. Lizing beruvchi va lizing oluvchi foiz stavkasini yiliga 2,5 punktga yuqoriga ko‘tarishga kelishib oldilar. Lizing komissiyasining foizlari yil davomida yiliga 6 foizni tashkil etadi. QQS stavkasi 15%. Uskunaning o‘rtacha yillik narxini va ijaraga to‘lovlarining umumiy miqdorini hisoblang.

17.4-masala. Kompaniya 2,0 mln. so‘mlik uskunani lizingga oldi, lizing muddati - 3 yil. Amortizatsiya stavkasi yiliga 12%, lizing beruvchidan olingan kredit bo‘yicha foiz stavkasi yiliga 24% ni tashkil qiladi. Lizing beruvchining komissiyasi yillik 4 foiz. Qo‘shimcha xizmatlar (yuridik maslahat, xodimlarni o‘qitish) uchun to‘lanadigan haq miqdori 0,08 million so‘mni tashkil etadi. Lizing shartnomasining yakuni bo‘yicha uskunani qoldiq qiymatda sotib olish mumkin. Agar lizing to‘lovlari har chorakda teng miqdorda to‘lanadigan bo‘lsa, lizing to‘lovlari miqdorini va uskunaning qoldiq qiymatini aniqlash talab qilinadi.

MAVZUGA OID TESTLAR

.1-testlar

1. Faoliyati lizingga asoslangan kompaniya qachon va qayerda tashkil etilgan?

- A. 1936-yil, Nyu-York
- B. 1946-yil, London
- C. 1952-yil, San-Fransisko
- D. 1949-yil, Tokyo

2. Lizingning asosiy funksiyalari berilgan qatorni belgilang.

- A. Ishlab chiqarishni kengaytirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, to'lovlilikni oshirish
- B. Moliyaviy, ishlab chiqarish, sotish
- C. Ishlab chiqarish, Kapital, daromad olish
- D. Qo'llab quvvatlash, rivojlantirish, to'lovlilikni oshirish

3. Sof lizingga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni belgilang.

- A. Bunda lizing kompaniyasi mijoz uchun, uning buyurtmasi asosida, mashina va uskunalarni ularni ishlab chiqarayotgan korxonadan sotib oladi
- B. Bunda ijaraga berilayotgan mulk va ularni ishlatishga sarflanadigan barcha qo'shimcha xarajatlar ijarachi zimmasiga yuklatiladi
- C. Ijarachining lizingga olingan obyektini lizing shartnomasi asosida boshqa ijarachi-lizing oluvchiga berishi
- D. Bunda ijaraga berilayotgan uskuna va jihozlar narxining katta miqdori uchinchi tomondan, ya'ni investordan qarzga olinadi

4. Bevosita lizingga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni belgilang

- A. Bunda ijaraga berilayotgan mulk va ularni ishlatishga sarflanadigan barcha qo'shimcha xarajatlar ijarachi zimmasiga yuklatiladi
- B. Ijarachining lizingga olingan obyektini lizing shartnomasi asosida boshqa ijarachi-lizing oluvchiga berishi
- C. Bunda lizing kompaniyasi mijoz uchun, uning buyurtmasi asosida, mashina va uskunalarni ularni ishlab chiqarayotgan korxonadan sotib oladi
- D. Bunda ijaraga berilayotgan uskuna va jihozlar narxining katta miqdori uchinchi tomondan, ya'ni investordan qarzga olinadi

5. Mikrolizing summasi miqdorining yuqori chegarasi to'g'ri berilgan qatorni belgilang?

- A. EKIHning 2000 baravarigacha
- B. EKIHning 1000 baravarigacha
- C. EKIHning 200 baravarigacha
- D. EKIHning 100 baravarigacha

6. *Lizing oluvchning buyurtmasi bo'yicha lizing beruvch bank tomonidan lizing operatsiyasini amalga oshirish yoki oshirmaslik to'g'risida qaror necha kungacha qabul qilinishi kerak?*

- A. 3 kun
- B. 7 kun
- C. 30 kun
- D. 10 kun

7. *Fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi texnikalarini lizingga berish borasidagi lizing shartnomalari necha yilgacha tuzilishi mumkin?*

- A. 5 yil
- B. 10 yil
- C. 4 yil
- D. 8 yil

8. *Lizing shartnomasi amal qiladigan davr uchun lizing to'lovlarining umumiy summasi lizing obyektini qiymatining necha foizidan ortiq bo'lishi kerak?*

- A. 75
- B. 80
- C. 85
- D. 90

9. ... - *lizing beruvchiga lizing obyektining qiymatining lizing oluvchi tomonidan qoplanishidan, shuningdek, lizing beruvchining foizli daromadidan iborat bo'ladi.*

- A. Lizing foiz stavkasi
- B. Garov miqdori
- C. Kredit to'lovi
- D. Lizing to'lovi

10. *Lizing oluvchi lizing obyektini garov sifatida ishlatishi mumkinmi?*

- A. Yo'q, mumkin emas
- B. Ha, mumkin
- C. Faqat mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga
- D. Faqat transport vositalarini

11. *"Sublizing"-bu:*
- A. asosiy lizing turidir
 - B. lizing obyektining boshqa uchinchi lizing oluvchiga topshirishni bildiradi
 - C. uchinchi shaxs tomonidan lizingdan foylanish huquqini ko'zda tutmaydigan lizing turidir
 - D. aralash lizing turidir

12. *Tijorat banklarida bir insayderga yoki daxldor shaxslar guruhiga berilgan ta'minlanmagan kredit/lizinglarning maksimal miqdori qancha?*

- A. birinchi darajali bank kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak
- B. birinchi darajali bank kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak
- C. birinchi darajali bank kapitalining 5 foizidan oshmasligi kerak
- D. birinchi darajali bank kapitalining 10 foizidan oshmasligi kerak

13. *Moliyaviy lizing-bu*

- A. ijaraga olingan mulkning to'la qiymatini va ijarachi foydasini qoplashni nazarda tutadi
- B. ko'proq ishlab chiqarish davri bilan bog'liq bo'lgan lizing bo'lib, obyekt qisqa davrga, ya'ni uning yaroqli davrdan kam davrga, qisqaroq vaqtga ijaraga beriladi
- C. lizing oluvchiga uskunalarni damba-dam almashib turish zaruriyati tug'ilgan hollarda qo'llaniladi
- D. mamlakatlararo lizing munosabatini ifodalaydi

14. *Bank tomonidan ko'rsatilgan jami lizing xizmatlari miqdori maksimal summasi qancha?*

- A. birinchi darajali bank kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak
- B. birinchi darajali bank kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak
- C. birinchi darajali bank kapitalining 50 foizidan oshmasligi kerak

D. birinchi darajali bank kapitalining 26 foizidan oshmasligi kerak

15. *Quyidagilardan kimlar lizing subyektlariga kiradi?*

- A. lizing sotuvchi
- B. lizingni moliyaviy qo‘llab-quvvatlovchi
- C. moliya tashkilotlari
- D. lizing oluvchi, lizing beruvchi, lizing sotuvchi

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

17.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

- Lizing beruvchi -
- Lizing oluvchi -
- Sotuvchi -
- Lizing obykti -
- Mikrolizing -
- dastlabki bilvosita xarajatlar —
- dastlabki bevosita xarajatlar —
- Lizing —
- moliyaviy lizing -
- mikrolizing -
- lizing to‘lovi —
- Operativ (tezkor) lizing-
- Levedj – lizing -
- Bevosita lizing -
- O‘ziga qaytuvchi lizing-
- Sof lizing -

17.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar:


1. Lizing so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
2. Operativ lizing deganda nimani tushunasiz?
3. Moliyaviy lizing nima?
4. Qaytariladigan lizing deganda nimani tushunasiz?
5. Lizing obyektiga amortizatsiya qanday hisoblanadi?
6. Lizing to‘lovlari tarkibiga nimalar kiradi?
7. Tijorat banklari lizing operatsiyalarining qanday me‘yoriy-huquqiy asoslari mavjud?

8. Tijorat banklari lizing operatsiyalariga nisbatan Markaziy bank tomonidan oʻrnatilgan qanday cheklovlar mavjud?

9. Tijorat banklarining lizing operatsiyalari bilan bogʻliq boʻlgan qanday risklar mavjud?

MAVZUGA OID KROSSVORD

17.1-krossvord



Eniga:

7. Dunyodagi eng yirik lizing kompaniyalaridan biri.

8. Oʻzbekiston lizing bozorida ishtirok etadigan yirik tijorat banklaridan biri.

10. Ijara munosabatlarning alohida turi boʻlib, bunda bir tomon (lizing oluvchi)ning topshirigʻiga binoan uchinchi tomondan (sotuvchidan) mulk (lizing obyekti) ni lizing shartnomasida belgilangan shartlarda lizing oluvchiga tolov asosida foydalanish va egalik qilish uchun hamda keyinchalik lizing oluvchining xususiy mulkiga oʻtishi sharti bilan berish maqsadida sotib oladigan lizing turi.

12. Oʻzbekistondagi lizing kompaniyalaridan biri.

13. Mulknı bir kundan to bir yilgacha boʻlgan qisqa muddatga ijaraga berish.

14. Lizingning asosiy funksiyalaridan biri.

15. Odatdagi bank ssudasiga alternativ ravishda uzoq muddat xizmat qiladigan dastgohlar, mashina va boshqa texnika vositalarini olish uchun kredit berish shakli.

Bo'yiga:

1. Bir mamlakatdagi lizing beruvchi boshqa mamlakatdan kredit oladi yoki zarur bo'lgan uskunalarni sotib oladi va uchinchi bir mamlakatdagi ijarachiga etkazib beradigan lizing turi.

2. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun lizing to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq eng kam ish haqining ikki ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladigan lizing.

3. Mulkni 1 yildan 3 yilgacha muddatga ijaraga berish.

4. Lizingning bu turida ijaraga berilayotgan texnika uskunalarining ijara muddati ularning xizmat qilish muddatiga qaraganda qisqa bo'ladigan lizing turi

5. Ijaraga berilayotgan uskuna va jihozlar narxining katta miqdori uchinchi tomondan, ya'ni investordan qarzga olinadigan lizing turi

6. Lizingning alohida bir turi bo'lib, bunda tomonlarning hech bo'lmaganda birortasi (yoki hammasi) boshqa mamlakatga tegishli bo'ladi.

9. Ijarachining lizingga olingan obyektini lizing shartnomasi asosida boshqa ijarachi - lizing oluvchiga berishi.

11. Hozirgi davrda xalqaro lizing bozorining asosiy qismi uch yirik moliya markazidan biri

TIJORAT BANKLARINING YANGI XIZMAT TURLARI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo‘lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o‘rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma‘lumotlarni saqlaydi (asosan to‘lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko‘chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o‘rtasida modem orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan, plastik kartalarga ochilgan hisobqaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog‘langan holda real vaqt davomida to‘lovlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverda joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o‘z ma‘lumotlari(to‘lov hujjatlar va hisobvaraqlardan ko‘chirmalar)ni ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda plastik kartalarga ochilgan hisobqaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko‘rinishdagi ma‘lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag‘idan ma‘lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so‘rovni yuborish kerak.

Mobayl banking. Zamonaviy talablarga hozirda mavjud texnologiyalardan qaysi biri javob berishi mumkin va mobil banking modellarining qaysi biri afzal, degan savol tug‘iladi. Ko‘pchilik ekspertlar WAP-banking modelini mijozlar uchun afzalligini e‘tirof etishadi.

Forfeyting – bu tijorat banki tomonidan mol etkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan trattani regress huquqsiz sotib olinishidir.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi (O‘RQ-580-sonli) Qonuni, 5,7-moddalar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining

bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-3272-sonli) Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-3066-sonli) Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-3620-sonli) Qarori.

MAVZUGA OID MASALALAR

18.1-masala. Korxonaga bank bilan trust shartnomasini tuzmoqchi. Shartnoma shartlariga binoan 400 ming so‘m miqdoridagi qimmatli qog‘ozlar trustga topshiriladi. Jalb qilingan mablag‘lardan olinadigan bank daromadi oyiga 5000 so‘mni tashkil etadi. Menejerga komission to‘lov - daromadning 15%. Korxonaga 500 ming so‘mni bankga omonatga qo‘ysa yiliga 13% daromad oladi. Trust shartnomasini tuzish foydalimi?

18.2-masala. Korxonaga bank bilan trust shartnomasini tuzmoqchi. Shartnoma shartlariga binoan 600 ming so‘m miqdoridagi qimmatli qog‘ozlar trustga topshiriladi. E‘lon qilingan dividendlar - 30%. Bankning operatsiyalardan oladigan daromadi - oylik 12%. Trust bo‘yicha daromad - oyiga 6 ming so‘m. Qimmatli qog‘ozlarni trustga investitsiya qilish foydali yoki yo‘qligini aniqlang.

18.3-masala. “Desna” kompaniyasi “Vest” banki bilan trust shartnomasini tuzmoqda. Shartnoma shartlariga binoan 800 ming so‘m miqdoridagi pul mablag‘i trustga topshiriladi. “Vest” bankning jalb qilingan mablag‘lardan oladigan daromadi oyiga 3000 so‘mni tashkil etadi. Menejerga komission to‘lov - daromadning 15%. 800 ming so‘mni bankka omonatga qo‘ysa, “Desna” yillik 7% daromad oladi. Trust shartnomasini tuzish foydalimi?

18.4-masala. Forfeyter mijozdan har birining nominal qiymati 250 ming dollar bo‘lgan to‘rtta veksel partiyasini sotib oldi. Veksellar

bo'yicha to'lov yiliga ikki marta, ya'ni har 180 kunda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, forfeytor mijozga hisob-kitob qilish uchun 3 imtiyozli kunni taqdim etadi. Veksellar bo'yicha hisob stavkasi - yillik 5%. Diskont miqdori va forfeytor veksel uchun mijozga to'lashi kerak bo'lgan to'lov miqdorini forfeytinglashning o'rtacha davridan foydalanib hisoblang.

18.5-masala. Forfeytor mijozdan har birining nominal qiymati 750 ming dollar bo'lgan to'rtta veksel partiyasini sotib oldi. Veksellar bo'yicha to'lov yiliga ikki marta, ya'ni har 180 kunda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, forfeytor mijozga hisob-kitob qilish uchun uch imtiyozli kunni taqdim etadi. Veksellar bo'yicha hisob stavkasi - yillik 10%. Diskont miqdori va forfeytor veksel uchun mijozga to'lashi kerak bo'lgan to'lov miqdorini foizlar sonidan foydalanib hisoblang.

MAVZUGA OID TESTLAR

18.1-testlar

1. Bank mahsuloti nima?

- A. O'zaro bog'liq bank xizmatlari va operatsiyalari majmui
- B. Bank operatsiyasini o'tkazishni optimallashtiruvchi nazariy, texnologik, moliyaviy va professional bank faoliyati
- C. Mijozlarning bank moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talablarini qondiruvchi bank xizmatlari
- D. Bankning hisob-kitob va vositachilik operatsiyalari

2. Bank xizmatlari bozori yuridik maqomga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?

- A. Mahalliy, milliy va xalqaro bank xizmatlari bozori
- B. Yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan bank xizmatlari bozori
- C. Chakana va ulgurji bank xizmatlari bozori
- D. Depozit, kredit va investitsiya xizmatlari bozori

3. Yangi bank mahsulotining hayotiylik tsikli algoritmidagi 1-bosqichini ko'rsating

- A. bozorni mahsulot bilan boyitish nuqtasi
- B. mahsulotning kamayishi va savdoning pasayishi nuqtasi
- C. bozorga chiqish nuqtasi
- D. savdo ko'payishiga o'tish nuqtasi

4. Yangi bank mahsulotining hayotiylik tsikli algoritmidagi 2-bosqichini ko'rsating

- A. bozorga chiqish nuqtasi
- B. mahsulot kamayishi va savdoning pasayishi nuqtasi
- C. bozorni mahsulot bilan boyitish nuqtasi
- D. savdo ko'payishiga o'tish nuqtasi

5. Yangi bank mahsulotining hayotiylik tsikli algoritmidagi 3-bosqichini ko'rsating

- A. bozorga chiqish nuqtasi
- B. bozorni mahsulot bilan boyitish nuqtasi
- C. savdo ko'payishiga o'tish nuqtasi
- D. mahsulotning kamayishi va savdoning pasayishi nuqtasi

6. Yangi bank mahsulotining hayotiylik tsikli algoritmidagi 4-bosqichini ko'rsating

- A. bozorga chiqish nuqtasi
- B. savdo ko'payishiga o'tish nuqtasi
- C. bozorni mahsulot bilan boyitish nuqtasi
- D. mahsulot kamayishi va savdoning pasayishi nuqtasi

7. Bankning asosiy bo'linmasi qanday strategiyani ishlab chiqadi?

- A. Moliyaviy strategiya
- B. Funktsional strategiya
- C. Marketing strategiyasi
- D. Rejalashtirish strategiya

8. SMS-banking – bu?

A. bu mijozlarning hisobvaraqlarini internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizim

B. bank mijozlarga ularning hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimi

C. kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarini saqlaydi

D. bank mijozlariga ularning kreditlarini so'ndirish uchun mo'ljallangan dastur

9. Skoring kartasi nima?

- A. Ballarda ifodalangan mijozning kreditga layoqatliligini ko'rsatuvchi koeffitsientlar, ko'rsatkichlar tizimi
- B. Qarzdorning reytingini aniqlaydigan maxsus shkala
- C. Kredit riski darajasini aniqlovchi asosiy omillar guruhi
- D. Mijozning kreditga layoqatliligini ko'rsatuvchi koeffitsientlar

10. Tijorat kreditining maqsadi:

- A. ssuda foizi olish
- B. foyda olish
- C. tovar sotib olish
- D. tovar sotishni tezlashtirish va foyda olish

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

18.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

- Bankomat –
- Biznes –
- Bek-ofis –
- Benefitsiar bank –
- Kliring –
- Kredit kartochkalari –
- Internet-banking –
- «hisob rakamni boshqarish» –
- «Moliyaviy boshqarish» –
- SMS-banking –
- MMS-banking –

18.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Plastik karta nima va uning qanday turlari mavjud?
2. O'zbekistonda plastik kartalar muomalasi qachon joriy etilgan va uning qanday me'yoriy-huquqiy asoslari mavjud?
3. Debetli plastik kartalar bilan kreditli kartalar o'rtasida qanday farqli jihatlar mavjud?
4. "Bank-Mijoz" tizimi nima va u orqali operatsiyalar qanday amalga oshiriladi?
5. Internet-banking nima va u orqali to'lovlar qanday tartibda amalga oshiriladi?

6. SMS-banking nima va u qaysi amallarni amalga oshirish imkonini beradi?


6. Mobayl banking qanday xizmat turi hisoblanadi?

7. Bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish qanday amalga oshiriladi?

8. Forfeyting operatsiyasi qanday amalga oshiriladi va uning afzalliklari nimada?

MAVZUGA OID KROSSVORD

18.1-krossvord



Eniga:

1. Plastik kartalarni qo‘llash mexanizmiga ko‘ra turi

4. Masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni bo‘yicha 2020 yil 1 yanvar holatiga mamlakatimizdagi yetakchi tijorat banki

6. O‘zaro talab va majburiyatlarni hisobga olib, amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitob tizimi

7. Xalqaro hisob-kitoblarning shakllaridan biri

8. Tashqi savdoda transport hujjatlaridan biri

10. Plastik kartalarning funktsional belgilariga ko‘ra turlaridan biri

11. To‘lov operatsiyasini yakunlovchi bank

12. Tijorat banki tomonidan mol etkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan trattani regress huquqsiz sotib olinishi

13. Dunyoda Smart kartalarni ishlab chiqaruvchi asosiy kompaniyalardan biri

14. Ma'lumotlarni shifrlash yo'li bilan tranzaksiyalarni yuqori xavfsizlik darajasida amalga oshirishni ta'minlovchi xalqaro banklararo axborot uzatish va to'lovlarni amalga oshirish tizimi

Bo'yiga:

2. Qarz qimmatli qog'ozining nominal qiymati bilan har qanday sotib olingan, olinishi lozim bo'lgan foizlarning qarz qimmatli qog'ozini uchun to'langan miqdordan (sotib olishdagi xarajatlar hisobisiz) oshgan summasi

3. O'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni bo'yicha 2020 yil 1 yanvar holatiga mamlakatimizdagi etakchi tijorat banki

5. Plastik kartalarning qo'llash mexanizmiga ko'ra turi

7.-banking – bu mijozni o'z hisob raqamini Internet orqali boshqarib borishga imkon beradigan xizmatdir

9. Mijozning bankdagi hisob raqami bilan kompyuter tizimi orqali bog'langan naqd pul beruvchi elektron moslama.

19-MAVZU

TIJORAT BANKLARINING BALANS DAN TASHQARI OPERATSIYALARI

bank kafolati — bank (kafil) boshqa shaxs (printsipal) ning buyurtmasiga ko‘ra kafil o‘z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq printsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to‘lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to‘lash haqida printsipalga beradigan yozma majburiyat (keyingi o‘rinlarda kafolat deb yuritiladi);

kafil — o‘z mijoz (printsipal) ning yozma arizasiga ko‘ra, printsipal benefitsiar oldidagi majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kafolatga muvofiq ushbu majburiyatlarning bajarilishini o‘z zimmasiga oluvchi bank;

printsipal — bankka o‘zining uchinchi shaxs (benefitsiar) oldidagi majburiyatlari bajarilishining ta‘minoti sifatida kafolat berish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilgan shaxs;

benefitsiar — printsipalning majburiyati bo‘yicha kafolatni qabul qiluvchi kreditor.

MAVZUGA OID ME‘YORIY HUJJATLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi (O‘RQ-580-sonli) Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-3272-sonli) Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallasuvi darajasini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-3066-sonli) Qarori.

MAVZUGA OID MASALALAR

19.1-masala. Forfeytor mijozdan har birining nominal qiymati 250 ming dollar bo‘lgan to‘rtta veksel partiyasini sotib oldi. Veksellar

bo'yicha to'lov yiliga ikki marta, ya'ni har 180 kunda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, forfeytor mijozga hisob-kitob qilish uchun uch imtiyozli kunni taqdim etadi. Veksellar bo'yicha hisob stavkasi - yillik 5%. Diskont miqdori va forfeytor veksel uchun mijozga to'lashi kerak bo'lgan to'lov miqdorini foizlar sonidan foydalanib hisoblang.

19.2-masala. Forfeyter mijozdan har birining nominal qiymati 5000 dollar bo'lgan to'rtta veksel partiyasini sotib oldi. Veksellar bo'yicha to'lov yiliga ikki marta, ya'ni har 180 kunda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, forfeytor mijozga hisob-kitob qilish uchun 3 imtiyozli kunni taqdim etadi. Veksellar bo'yicha hisob stavkasi - yillik 7%. Diskont miqdori va forfeytor veksel uchun mijozga to'lashi kerak bo'lgan to'lov miqdorini forfeytinglashning o'rtacha davridan foydalanib hisoblang.

19.3-masala. Korxonaga bank bilan trust shartnomasini tuzmoqchi. Shartnoma shartlariga binoan 100 ming so'm miqdoridagi qimmatli qog'ozlar trustga topshiriladi. E'lon qilingan dividendlar - 40%. Bankning operatsiyalardan oladigan daromadi - oylik 15%. Trust bo'yicha daromad - oyiga 3 ming so'm. Qimmatli qog'ozlarni trustga investitsiya qilish foydali yoki yo'qligini aniqlang.

19.4-masala. Korxonaga bank bilan trust shartnomasini tuzmoqchi. Shartnoma shartlariga binoan 400 ming so'm miqdoridagi qimmatli qog'ozlar trustga topshiriladi. E'lon qilingan dividendlar - 20%. Bankning operatsiyalardan oladigan daromadi - oylik 10%. Trust bo'yicha daromad - oyiga 5 ming so'm. Qimmatli qog'ozlarni trustga investitsiya qilish foydali yoki yo'qligini aniqlang.

MAVZUGA OID TESTLAR

19.1-testlar

1. *Balansdan tashqari operatsiyalar tarkibiga qaysilar kiradi?*

- A. Kafolatlar berish
- B. Hujjatlashtirilgan akkreditivlar qo'yish
- C. Forvard operatsiyalari
- D. Barchasi to'g'ri

2. *Balansdan tashqari operatsiyalarning risk darajasi Bazel Qo'mitasi bo'yicha necha foiz qilib belgilangan?*

- A. 20 %
- B. 70 %
- C. 100 %
- D. 0 %

3. *Quyidagilarning qaysilari balansdan tashqari operatsiyalarga kirmaydi?*

- A. Kafolatlar berish
- B. Kredit operatsiyalari
- C. Forvard operatsiyalari
- D. Fyuchers operatsiyalari

4. *Kafolatlar kimlar tomonidan berilishi mumkin?*

- A. Davlat
- B. Banklar
- C. Sug`urta tashkilotlari
- D. Barchasi to`g`ri

5. *Kreditlarning kafolatlar bilan ta`minlanishi qayerda aks ettiriladi?*

- A. Aktivlarda
- B. Balansdan tashqarida
- C. Majburiyatlarda
- D. Kapitalda

6. *Faktoring operatsiyalari qanday operatsiyalarga kiradi?*

- A. Bunday operatsiyalar yo`q
- B. Aktiv operatsiyalar
- C. Balansdan tashqari operatsiyalar
- D. Passiv operatsiyalar

7. *O`zbekiston Respublikasida qanday tashkilotlar faktoring operatsiyalarini amalga oshirishlari mumkin?*

- A. Tijorat banklari
- B. Faktoring uylari
- C. Davlat
- D. Mikrocredit tashkilotlari

8. *O'zga bir shaxsning qarz majburiyatlarini sotib olish bilan bog'liq bank xizmati qanday ataladi?*

- A. Faktoring
- B. Lizing
- C. Kredit
- D. Depozit

9. *Bir shaxsning boshqa shxsga mol mulkni yoki unga bo'lgan huquqniy majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi nima deyiladi?*

- A. Sertifikat
- B. Litsenziya
- C. Kafolat
- D. Garov

10. *Kreditlar ta'minoti uchun qabul qilib olingan garov narsasi qayerda aks ettiriladi?*

- A. Balansda
- B. Balansdan tashqarida
- C. Kartoteka-1 da
- D. Kartoteka-2 da

11. *Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, kafil qarzdorga ko'rsatgan xizmatlari uchun ... olish huquqiga ega.*

- A. Tovon
- B. Haq
- C. Qarz
- D. Litsenziya

12. *Kafolat pritsipalning (kredit olgan shaxs)... oldidagi o'z majburiyatini lozim darajada bajarishini ta'minlaydi.*

- A. Benefitsiar
- B. Advokat
- C. Lombard tashkiloti
- D. Norezident sugurta kompaniyasi

13. *Tijorat banklari hosilaviy qimmatli qog'ozlar bilan qanday operatsiyalar tarkibiga kiradi?*

- A. Akseptli operatsiyalar

- B. Passiv operatsiyalar
- C. Aktiv operatsiyalar
- D. Balansdan tashqari operatsiyalar

14. Hosilaviy qimmatli qogʻozlar yana qanday ataladi?

- A. Leveraj
- B. Derivativ
- C. Benefitsiar
- D. Subsidiya

15. Quyidagilarning qaysilari hosilaviy qimmatli qoʻgozlarga kirmaydi?

- A. Fyuchers
- B. Optsion
- C. Forvard
- D. Aksiya

16. Odatda ... bazaviy aktivni sotib olish maqsadida emas, balki narxlarning oʻzgarishidan foyda olish maqsadida sotib olinadi.

- A. Aksiyalar
- B. Drivativlar
- C. Obligatsiyalar
- D. Veksellar

17. Hosilaviy qimmatli qogʻozlar bozori bevosita ... bozori bilan bogʻliq.

- A. Kredit
- B. Qimmatli qogʻozlar
- C. Isteʼmol tovarlari
- D. Mehnat

18. ... – optsiyonning bir turi boʻlib, egasiga belgilangan muddat ichida emitentdan imtiyozli sharoitda maʼlum bir miktordagi aksiyalarni sotib olish imkonini beradi.

- A. Spot
- B. Svop
- C. Fyuchers
- D. Varrant

19. ... - *shartnoma (qimmatbaho qog‘oz) bo‘lib, xaridorga ma‘lum bir qimmatbaho qog‘oz yoki tovarni belgilangan muddatdan sung yoki ma‘lum bir davr ichida qat‘iy belgilangan narxlarda sotib olish yoki sotish huquqini beradi.*

- A. Optsion
- B. Forvard
- C. Fyuchers
- D. Svop

20. ... – *qimmatbaho qog‘ozlarni belgilangan narx va kelajakdagi belgilangan muddatda sotish yoki sotib olish borasidagi bajarilishi majbur bo‘lgan qisqa muddatli standart shartnomalardir.*

- A. Varrant
- B. Svop
- C. Optsion
- D. Fyuchers

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

19.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

- Bank kafolati –
- Inkasso –
- muddatli majburiyat –
- mol etkazib beruvchi –
- opsion –
- printsipal –
- realizatsiya qilinmagan foyda –
- realizatsiya qilinmagan zarar –
- hujjatlashtirilgan akkreditiv –
- forvard –
- fyuchers –
- qimmatli qog‘oz blanklari –

19.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat banklariga balansdan tashqari operatsiyalar nima uchun zarur?
2. Tijorat banklari tomonidan kafolatlar qaysi maqsadlar uchun beriladi?
3. Bank tomonidan berilgan kafolatlar qanday rasmiylashtiriladi?

4. Hujjatlashtirilgan akkreditiv nima va uning qanday turlari, shakllari mavjud?

5. Bank tomonidan ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar qanday rasmiylashtiriladi?

6. Inkasso nima va u qanday rasmiylashtiriladi?

7. Kreditlar bo'yicha muddatli majburiyatlar nima va u qanday rasmiylashtiriladi?

8. Qimmatli qog'ozlar blanklari va qimmatliklar qay tartibda bank tomonidan saqlash uchun qabul qilinadi?

MAVZUGA OID KROSSVORD

19.1-krossvord

Eniga:

9. hujjatlashtirilgan akkreditiv shakllaridan biri

10. valyutalar va qimmatli qog'ozlarni belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish huquqini beradigan opsiya turi

11. xalqaro amaliyotda foydalaniladigan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning shakllaridan biri

13. mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini olingan daromadlari qoplamaydigan korxonaga ushbu xarajatlarni qoplash, shuningdek, aholiga sotiladigan ayrim tovarlarning chakana narxini nisbatan past darajada ushlab turish uchun byudjetdan ajratiladigan pul mablag'lari summasi

14. Tijorat banklarining bankka daromad keltiruvchi balansdan tashqari operatsiyalaridan biri

Bo'yiga:

1. xalqaro amaliyotda foydalaniladigan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning shakllaridan biri

2. oferta yuborilgan shaxsning uni qabul qilganligi haqidagi javobi

3. tovarlarni tashqi bozorlarda ishlab chiqarish narxidan past narxlarda sotish

4. xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi

5. bir mamlakat milliy valyutasining mamlakat tashqarisidagi qismi.


6. qimmatli qog'ozlarni saqlash va ularga bo'lgan huquqni hisobga olish bo'yicha faoliyat yurituvchi qimmatli qog'ozlar bozori

7. sug'urta qildiruvchining sug'urtalangan kema yoki yukka bo'lgan huquqlaridan sug'urta pulini to'liq qoplash evaziga voz kechishi

8. ishlab chiqarish vositasidan foydalanish jarayonida uning emirilishi, jismoniy va ma'naviy eskirishi

10. Banklarning balansdan tashqari operatsiya turlaridan biri

12. ma'lum bir valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish yoki sotish operatsiyasi



20-MAVZU

TIJORAT BANKLARI DAROMADLARI, XARAJATLARI VA FOYDASI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Bank daromadlarini shakliga ko'ra quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

* foizli daromad;

* foizsiz daromadlar.

Tijort banklari foizli daromadlari:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha daromadlar

Kreditlardan olingan foizli daromadlar

Davlat obligatsiyalaridan olingan daromadlar

Boshqa qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalardan olingan daromadlar

Faktoring operatsiyalaridan olingan daromadlar

Lizing operatsiyalaridan olingan daromadlar.

Tijort banklari foizsiz daromadlari:

Vositachilik va boshqa xizmatlardan olingan daromadlar

Valyuta operatsiyalaridan ko'rilgan daromadlar

Boshqa operatsiyalardan olingan foizsiz daromadlar

Foizli xarajatlar-barcha majburiyatlar bo'yicha to'plangan foiz summasi demakdir.

Foizsiz xarajatlarga maoshlar va qo'shimcha to'lovlar, uskuna yoki binolarni ijaraga olish, xarid qilish va boshqa operatsion xarajatlar kiradi.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi (PF-5992-sonli) Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-3272-sonli) Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-3066-sonli) Qarori

MAVZUGA OID MASALALAR

20.1-masala. Quyida bank daromadlarining turlari aralash tarzda keltirilgan. Ushbu daromadlar elementlarini foizli va foizsiz bank daromadlariga ajrating.

1. Valyuta transaksiyalari bo‘yicha marja
2. Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha tijorat operatsiyalaridan olingan foyda
3. Davlat obligatsiyalari bo‘yicha daromadlar
4. Sotib olingan hujjatsiz mahalliy veksellar bo‘yicha daromadlar
5. Menejment xizmati bo‘yicha daromadlar
6. Mahalliy to‘lovlar bo‘yicha vositachilik xizmatlari uchun olingan daromadlar
7. Kafolatlar va kafilliklar bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar
8. Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli ssudalar bo‘yicha daromadlar
9. Hukumatga berilgan qisqa muddatli ssudalar bo‘yicha daromadlar
10. Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli ssudalar bo‘yicha daromadlar
11. Bank bo‘lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan qisqa muddatli ssudalar bo‘yicha daromadlar
12. Xususiy korxonalar, shirkatlar va korporatsiyalarga berilgan uzoq muddatli ssudalar bo‘yicha daromadlar
13. Bankning trast operatsiyalari bo‘yicha daromatlari
14. Hukumatga berilgan shartlari qayta ko‘rib chiqilgan uzoq muddatli ssudalar bo‘yicha daromadlar
15. Qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshirilgan brokerlik operatsiyalari bo‘yicha daromadlar
16. Qo‘shma korxonalariga berilgan uzoq muddatli ssudalar bo‘yicha daromadlar

17. Davlat obligatsiyalariga investitsiya qilingan mablag'lar bo'yicha daromadlar

18. Hukumatdan sotib olingan qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha daromadlar

19. Overdraft bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun daromadlar

20. Obligatsiya va boshqa qarz vositalariga qilingan investitsiyalarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda

21. Davlat korxonalar va tashkilotlaridan sotib olingan qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha daromadlar

22. Mijozlarning inkasso operatsiyalari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar

23. Evroobligatsiyalarga investitsiya qilingan mablag'lar bo'yicha daromadlar

24. Jamoat tashkilotlariga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan uzoq muddatli O'zR TB hisobvaraqlar rejasi ssudalar bo'yicha daromadlar

25. "Spot" bitimi bo'yicha xorijiy valyutalardagi foyda

26. Bank mulklarining ijarasidan olingan daromadlar

27. O'zRMBiga ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlar

28. Boshqa banklarga ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlar

Foizli daromadlar	Foizsiz daromadlar

Bajaring: Tijorat banki daromadlarini mos ravishda guruhlariga ajrating va jadvalni to'ldiring.

20.2-masala. Quyida bank xarajatlarining turlari aralash tarzda keltirilgan. Ushbu xarajatlar elementlarini foizli, foizsiz va operatsion bank xarajatlari bo'yicha turkumlang.

1. Jarima va penya xarajatlari
2. Hukumatning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha xarajatlar
3. Sud jarayoni/aktivni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar
4. Respublika qaramog'idagi byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari asosidagi jamg'arma depozitlari bo'yicha xarajatlar
5. Forvard/Optsion/Fyuchers bitimlari bo'yicha xorijiy valyutalarda ko'rilgan zararlar
6. Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarning jamg'arma depozitlari bo'yicha xarajatlar
7. O'zRMBiga to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari
8. Respublika qaramog'idagi byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari asosidagi muddatli depozitlari bo'yicha xarajatlar
9. Hujjat markalari uchun xarajatlar
10. Markaziy bankning vakillik hisobvarag'i bo'yicha xarajatlar
11. Boshqa banklarning vakillik hisobvaraqlari bo'yicha xarajatlar
12. Reklama va e'lon xarajatlari
13. To'lanmagan mahalliy aktseptlar bo'yicha xarajatlar
14. O'zRMBidan olingan uzoq muddatli ssudalar bo'yicha xarajatlar
15. Qimmatbaho metallar bo'yicha tijorat operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar
16. Chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha xarajatlar
17. Ijtimoiy himoya bo'yicha xarajatlar
18. Xorijiy to'lovlar bo'yicha vositachilik xarajatlari
19. REPO bitimlari bo'yicha O'zRMBiga sotilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha xarajatlar
20. Soliq(daromad solig'idan tashqari) va litsenziyalar
21. REPO bitimlari bo'yicha boshqa kreditorlarga sotilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha xarajatlar
22. Bandlik fondi va boshqa fondlar uchun badallar
23. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha badallar
24. Devonxona, ofis va boshqa buyumlar xarajatlari
25. Qimmatbaho metallarning oldi-sotdi operatsiyalari bo'yicha to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari

26. Ssudalar bo'yicha vositachilik xarajatlari
27. Mahalliy to'lovlar bo'yicha vositachilik xarajatlari
28. Pochta, telefon, faks bo'yicha xarajatlar
29. Vositachilik va inkasso operatsiyalari bo'yicha xarajatlar
30. "Spot" bitimlari bo'yicha xorijiy valyutalarda ko'rilgan zararlar
31. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha tijorat operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar
32. Obligatsiya va boshqa qarz vositalariga qilingan investitsiyani sotish yoki almashtirishdan ko'rilgan zararlar
33. Investitsiya qilingan xususiy kapitalni sotish yoki almashtirishdan ko'rilgan zararlar
34. Bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar
35. Bank xizmatchilariga ko'rsatiladigan tibbiy yordam xarajatlari

Foizli xarajatlar	Foizsiz xarajatlar	Operatsion xarajatlar

Bajaring: Tijorat banki xarajatlarini mos ravishda guruhlariga ajrating va jadvalni to'ldiring.

20.3-masala. Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi bank tizimining daromadlilik ko'rsatkichlari keltirilgan.

Bank tizimi daromad va xarajatlari	01.01.2017 y.	01.01.2018 y.	O'zgarishi (mlrd so'm)	
			so'mda	foizda
Foizli daromadlar	5 293,1	7 960,4		
Foizli xarajatlar	3 075,4	4 623,1		
Foizli marja	XXX	XXX		
Foizsiz daromadlar	3 403,8	6 916,8		
Foizsiz xarajatlar	629,3	1 942,7		
Operatsion xarajatlar	3 014,4	4 137,7		
Foizsiz daromad (zarar)	XXX	XXX		

Kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	438,9	1 631,7		
Boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	73,7	279,0		
Soliq to'langunga qadar sof foyda (zarar)	1 465,2	2 263,0		
Foyda solig'ini to'lash xarajatlari	311,3	379,7		
Foyda bo'yicha tuzatishlar	1,1	2,3		
Sof foyda (zarar)	XXX	XXX		

Aniqlang:

Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi bank tizimining quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblang.

1. Foizli marja;
2. Foizsiz daromad;
3. Sof foyda;
4. Bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlarining o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi dinamikasi.

20.4-masala. Quyida tijorat banklarining jamlanma balansi ma'lumotlari va bank tizimining daromadlari hamda xarajatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ko'rsatkichlar nomi	01.08.2017 y.		01.08.2018 y.	
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda
Aktivlar				
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	1 882	1,8%	3 557	1,9%
Markaziy bankdagi mablag'lar	9 842	9,3%	14 413	7,7%
Boshqa banklardagi mablag'lar-rezident	4 702	4,4%	6 261	3,3%
Boshqa banklardagi mablag'lar-norezident	9 152	8,7%	15 427	8,2%

Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar*	2 819	2,7%	3 718	2,0%
Kredit qo'yilmalari, (sof)	71 112	67,3%	135 466	72,4%
Asosiy vositalar, (sof)	1 976	1,9%	2 887	1,5%
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	796	0,8%	2 152	1,2%
Bankning boshqa xususiy mulklari	332	0,3%	303	0,2%
Boshqa aktivlar	3 117	2,9%	2 898	1,5%
Jami aktivlar	105 729	100,0%	187 083	100,0%
Majburiyatlar				
Depozitlar	42 218	44%	65 230	39,9%
Markaziy bankning vakillik hisobvarag'i	532	0,6%	334	0,20%
Boshqa banklarning mablag'lari-rezident	3 728	4%	6 198	3,8%
Boshqa banklarning mablag'lari-norezident	46	0,05%	209	0,1%
Olingan kreditlar va lizing operatsiyalari	37 774	40%	86 252	53%
Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	213	0%	85	0,1%
To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	486	0,5%	1 485	0,9%
Boshqa majburiyatlar	9 877	10%	3 623	2,2%
Jami majburiyatlar	94 875	100,0%	163 415	100,0%
Kapital				
Ustav kapitali	7 079	65,2%	18 073	76,4%
Qo'shimcha kapital	41	0,4%	68	0,3%
Zaxira kapitali	1 728	15,9%	2 752	11,6%
Taqsimlanmagan foyda	2 006	18,5%	2 774	11,7%
Jami kapital	10 854	100,0%	23 668	100,0%

Bank tizimi daromad va xarajatlari	01.08.2017 y.	01.08.2018 y.
Foizli daromadlar	4 040,7	7 305,2
Foizli xarajatlar	2 290,2	4 209,9
Foizli marja	1 750,5	3 095,2
Foizsiz daromadlar	2 664,8	3 502,9
Foizsiz xarajatlar	578,5	779,1
Operatsion xarajatlar	2 065,2	2 871,4
Foizsiz daromad (zarar)	21,1	-147,6
Kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	473,9	1 013,3
Boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	25,5	115,5
Soliq to'langunga qadar sof foyda (zarar)	1 272,2	1 818,8
Foyda solig'ini to'lash xarajatlari	278,9	354,3
Foyda bo'yicha tuzatishlar	-1,6	0,0
Sof foyda (zarar)	991,7	1 464,5
Bank tizimi daromadlik ko'rsatkichlari		
Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA)	XXX	XXX
Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE)	XXX	XXX
Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati	XXX	XXX
Kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati	XXX	XXX
Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati	XXX	XXX
Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati	XXX	XXX

Topshiriq:

Ushbu ko'rsatkichlardan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi bank tizimining quyidagi rentabellik ko'rsatkichlarini aniqlang.

1. Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA);
2. Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE);
3. Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati;
4. Kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati;
5. Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati;
6. Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati.

20.5-masala. Quyidagi jadvalda tijorat bankining 01.01.2020 yil holatiga daromadlari, xarajatlari va foydasi keltirilgan. ming so'mda

№	Toifalar	Jami	milliy valyutada	xorijiy valyutada (so'mdagi ekvivalenti)
1.	FOIZLI DAROMAD			
a.	O'zRMB hisobvaraqlari- dagi foizli daromadlar		0	0
b.	Boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlar		12 718 532	37 696 543
v.	Xarid qilingan veksellar bo'yicha foiz daromadlari		0	0
g.	Investitsiyalar bo'yicha foizli daromad		0	0
d.	Qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish hisobvaraqlaridagi foizli daromadlar		8 990 451	0
e.	Mijozning majburiyatlari bo'yicha foizli daromad		0	0

j.	Mijozlaringizni Bankning qabul qilinmagan qarz majburiyatlari bilan bog'lash bo'yicha foizli daromad		0	0
z.	Kredit va lizing operatsiyalari bo'yicha foizlar, chegirmalar (chegirmalar) va to'lovlar		1 092 275 615	1 016 543 846
i.	Qayta sotib olish shartnomalari bo'yicha foizli daromadlar		0	0
k.	Boshqa foiz daromadlari		267 506 568	80 372 641
l.	Umumiy foizli daromadlari		1 381 491 166	1 134 613 030
2.	FOIZLI XARAJATLAR			
a.	Talab qilib olinadigan depozitlar bo'yicha foiz xarajatlari		747 257	607 676
b.	Muddatli omonatlar bo'yicha foizlar bilan bog'liq xarajatlar		223 182 972	66 412 444
v.	O'zRMBga kreditorlik qarzlari bo'yicha foiz xarajatlari		0	0
g.	Boshqa banklarga kreditorlik qarzlari bo'yicha foiz xarajatlari		89 975 999	4 996 960
d.	Omonatlar bo'yicha foizli xarajatlari		313 906 228	72 017 080
e.	To'lanishi kerak bo'lgan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlari		73 562 972	653 372 766
j.	Keyingi sotib olish bilan sotish shartnomalari bo'yicha foiz xarajatlari		0	0
z.	Boshqa foiz xarajatlari		267 085 957	78 783 378

i.	Kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar		340 648 929	732 156 144
l.	Umumiy foiz xarajatlari		654 555 157	804 173 224
3.	AKTIVLAR BO'YICHA MUMKIN BO'LGAN YO'QOTISHLARNI HISOBLASHDAN OLDIN SOF FOIZLI DAROMAD		726 936 009	330 439 806
a.	Minus: Kreditlar va lizing bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlarni baholash		81 991 949	699 669 987
b.	Minus: qimmatli qog'ozlar bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlarni baholash		0	0
v.	Minus: Investitsiyalar bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlarni baholash		85 188	
g.	Minus: Boshqa aktivlar bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlarni baholash		14 074 509	231 908
d.	Kreditlar va lizing bo'yicha yo'qotishlarni baholashdan keyin sof foizli daromad		630 784 363	-369 462 089
4.	FOIZSIZ DAROMAD			
a.	Komissiya va xizmat haqidan olinadigan daromad		309 645 315	50 714 682
b.	Xorijiy valyutadagi foyda		13 140 360	136 407 842
v.	Tijorat operatsiyalaridan olingan foyda		0	0
g.	Investitsiyalardan olinadigan foyda va dividendlar		11 573 186	153 480

d.	Boshqa foizsiz daromadlar		140 933 646	759 560 515
e.	Jami foizsiz daromad		475 292 507	946 836 519
5.	FOIZSIZ XARAJATLAR			
a.	Komissiya va xizmat haqi		81 474 765	28 371 875
b.	Xorijiy valyutadagi zararlar		2 453 230	70 122 893
v.	Xarid va sotish hisobidagi yo'qotishlar		0	0
g.	Investitsion yo'qotishlar		0	0
d.	Boshqa foizsiz xarajatlar		2 245 050	
e.	Jami foizsiz xarajatlar		86 173 045	98 494 768
6.	OPERATSION XARAJATLARDAN OLDINGI SOF DAROMAD		1 019 903 825	478 879 662
7.	Operatsion xarajatlar			
a.	Ishchilarga ish haqi va boshqa xarajatlar		475 763 658	
a1)	shundan asosiy boshqaruv xodimlariga to'lovlar		16 214 437	
b.	Ijaraga olish va texnik xizmat ko'rsatish		40 913 716	
v.	Xizmat safari va transport xarajatlari		7 487 905	
g.	Ma'muriy xarajatlar		28 435 297	
d.	Vakillik va xayriya		22 513 350	
e.	Amortizatsiya xarajatlari		26 638 543	
j.	Sug'urta		921 243	
z.	Soliqlar		8 127 218	
i.	Jarimalar va penyalar		3 651 298	
k.	Boshqa operatsion xarajatlar		43 829 919	

1.	Umumiy operatsion xarajatlar		658 282 147	
8.	SOLIQLAR VA BOSHQA TUZATISHLARDAN OLDINGI SOF FOYDA		361 621 678	478 879 662
a.	Foyda solig'ini hisoblash		135 975 267	
9.	TUZATISHDAN OLDINGI DAROMAD		225 646 411	478 879 662
a.	Kutilmagan foyda yoki yo'qotishlar, sof		0	0
b.	Boshqa foyda tuzatishlari, sof		0	0
10.	SOF FOYDA (ZARAR)		225 646 411	478 879 662

Topshiriq bo'yicha quyidagilarni aniqlang:

1. Bankning barcha moliyaviy ko'rsatkichlarining umumiy natijasini;
2. Umumiy foizli daromadlari;
3. Omonatlar bo'yicha foizli xarajatlari, Kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar va Umumiy foizli xarajatlar;
4. Aktivlar bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlarni hisoblashdan oldingi sof foizli daromad va kreditlar va lizing bo'yicha yo'qotishlarni baholashdan keyin sof foizli daromadlar;
5. Jami foizsiz daromadlar
6. Jami foizsiz xarajatlar
7. Operatsion xarajatlardan oldingi sof daromad va Umumiy operatsion xarajatlar;
8. Soliqlar va boshqa tuzatishlardan oldingi sof foyda
9. Tuzatishdan oldingi daromad
10. Sof foyda (zarar)

MAVZUGA OID TESTLAR

20.1-testlar

1. *Tijorat banklari aktivlari daromadlilikini ifodalaydigan koeffitsent qanday aniqlanadi?*

- A. Bank xarajatlari/passivlar
- B. Bank daromadlari/aktivlar
- C. Bank daromadlari/passivlar
- D. Bank xarajatlari/aktivlar

2. *Tijorat banklari jalb qilingan resurslarining samarali ishlatilishini ifodalaydigan ko'rsatkich qanday aniqlanadi?*

- A. Harakatdagi aktivlar/kapital
- B. Depozitlar/jami jalb qilingan mablag'lar
- C. Kapital/jami jalb qilingan mablag'lar
- D. Harakatdagi aktivlar/jami jalb qilingan mablag'lar

3. *Quyidagilardan qaysi biri operatsion xarajatlar tarkibiga kiradi?*

- A. ijara va ta'minot xarajatlari
- B. tijorat operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar
- C. chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha
- D. REPO bitimlari bo'yicha

4. *Banklarda emission daromad deganda nima tushuniladi?*

- A. qimmatli qog'ozlarning bozor bahosi
- B. qimmatli qog'ozlar real qiymatining nominal qiymatidan oshgan qismi
- C. taqsimlanmagan foydadan ajratilgan dividendlarning bir qismi
- D. aksiyadan olingan dividend

5. *Banklarda quyidagilardan qaysi biri foizli daromad tarkibiga kirmaydi?*

- A. REPO operatsiyalaridan olingan daromadlar
- B. lizing operatsiyalaridan olingan daromadlar
- C. kredit operatsiyalaridan olingan daromadlar
- D. forvard operatsiyalaridan olingan daromad

6. *Quyidagilardan qaysi biri foizsiz xarajatlar tarkibiga kirmaydi?*

- A. ish haqi
- B. chet el valyutasidan ko'rilgan zarar
- C. barcha komission xarajatlar

D. investitsiyalar bo'yicha zararlar

7. *Quyidagilardan qaysi biri uchun bank foydasidan foydalanilmaydi?*

- A. turli fondlarni shakllantirish
- B. depozitlarga foizli to'lovlar
- C. kapitallashuvni oshirish
- D. soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar

8. *Quyidagilardan qaysi biri bankning daromad keltirmaydigan aktivlariga kiradi?*

- A. kreditlar, investitsiyalar
- B. ssudalar va investitsiyalar
- C. kassa, korschyot, asosiy vositalar
- D. davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari

9. *Bankning emission daromadi nimani bildiradi?*

- A. aksiyaning bozor bahosi
- B. taqsimlanmagan foydaning bir qismi
- C. aksiya real qiymatining nominal qiymatidan oshgan qismi
- D. aksiyadan olingan dividend

10. *Quyidagilardan qaysi biri foizli daromad tarkibiga kirmaydi?*

- A. valyuta operatsiyalaridan olingan daromad
- B. REPO operatsiyalaridan olingan daromadlar
- C. lizing operatsiyalaridan olingan daromadlar
- D. kredit operatsiyalaridan olingan daromadlar

11. *Quyidagilardan qaysi biri tijorat banklari likvidligini samarali boshqarishning omili hisoblanmaydi?*

- A. moliyaviy jihatdan barqaror mijozlarning mavjudligi va ularning moliyaviy holati
- B. bankning turli bo'linmalarining muvofiqlashtirilganligi
- C. bank aktivlari va passivlarining muddatlari o'rtasidagi mutanosiblikning ta'minlanganligi
- D. bank likvidlik holatining monitoringi vazifalari yuklangan tarkibiy bo'linmaning mavjudligi

12. Bazel III standartiga asosan barqaror moliyalashtirishning mavjud summasiga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

- A. bank kapitali summasi
- B. bankning amaldagi so'ndirish muddati 365 kun va undan ortiq bo'lgan majburiyatlari
- C. sudda ko'rib chiqilayotgan va (yoki) belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar
- D. so'ndirish muddati bo'lmagan va (yoki) so'ndirish muddati 365 kundan kam bo'lgan boshqa depozitlar hamda qarz mablag'lari summasining 30 foizi

13. Bazel III standartiga asosan barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

- A. bank kapitali summasi
- B. bankning so'ndirishgacha 365 kun va undan ortiq muddat qolgan barcha aktivlari
- C. sudda ko'rib chiqilayotgan va (yoki) belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar
- D. so'ndirish muddati 365 kundan kam bo'lgan boshqa aktivlar summasining 30 foizi, likvid aktivlar bundan mustasno

14. Aktivlarning o'rtacha rentabelligi qanday aniqlanadi?

- A. foydaning o'rtacha tortilgan xususiy kapitalga nisbati orqali aniqlanadi
- B. olingan foizli daromadlarning kredit portfeliga nisbatining foizdagi ifodasidan to'langan foizli xarajatlarning foiz to'lanadigan depozitlar summasiga nisbatining foizdagi ifodasini ayirish orqali aniqlanadi
- C. daromad keltiradigan aktivlarning umumiy aktivlarga nisbati orqali aniqlanadi
- D. foydaning o'rtacha tortilgan aktivlarga nisbati orqali aniqlanadi

15. Tijorat banklarining yirik hamkorlari kimlar?

- A. bank jami aktivlarining 1 foizidan ortiq miqdorda moliyalashtirish manbasini ta'minlab beradigan hamkor
- B. bank jami aktivlarining 0,1 foizidan ortiq miqdorda moliyalashtirish manbasini ta'minlab beradigan hamkor
- C. bank jami aktivlarining 5 foizidan ortiq miqdorda moliyalashtirish manbasini ta'minlab beradigan hamkor

D. bank jami aktivlarining 10 foizidan ortiq miqdorda moliyalashtirish manbasini ta'minlab beradigan hamkor

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

20.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:


- Daromad –
- Dividend –
- Zarar –
- operatsion xarajat –
- sof foyda –
- soliq –
- taqsimlanmagan foyda –
- xarajat –
- foyda –
- foizli daromad –
- foizsiz daromad –
- foizli xarajat –
- foizsiz xarajat –

20.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat bankining daromadi nima va u qaysi manbalardan tashkil topadi?
2. Banklarning foizli daromadlari tarkibiga nimalar kiradi?
3. Tijorat banklarining foizsiz daromadlari tarkibiga nimalar kiradi?
4. Tijorat banklari xarajatlari qanday turlarga bo'linadi?
5. Banklarning foizli xarajatlari tarkibiga nimalar kiradi?
6. Tijorat banklarning foizsiz xarajatlari tarkibiga nimalar kiradi?
7. Banklarning operatsion xarajatlari tarkibiga nimalar kiradi?
8. Tijorat banklari foydasi qanday tartibda shakllanadi?
9. Banklarning foydasi qanday taqsimlanadi?
10. Tijorat banklarida taqsimlanmagan foyda qanday yuzaga keladi?
11. Tijorat banklarini soliqqa tortish tartibi qanday?
12. Tijorat banklarining foydasiga qaysi omillar ta'sir qiladi?

MAVZUGA OID KROSSVORD

20.1-krossvord



Eniga:

3. Hozirda amaldagi soliq qonunchiligiga asosan tijorat banklaridan undiriladigan soliq turi

4. maoshlar va qo‘shimcha to‘lovlar, uskuna yoki binolarni ijaraga olish, xarid qilish qaysi xarajatlar turkumiga kiradi

6. Mulklar va qimmatliklarni boshqarish biznesi tijorat banklarining qaysi operatsiyalari orqali amalga oshiriladi

7. bankka daromad keltiradigan va bank likvidligini ta‘minlashga xizmat qiladigan operatsiyalar

10. aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra aksionerlar o‘rtasida taqsimlanadigan foydaning bir qismi

11. bank biznesining turlaridan biri

13. eskirish bilan bog‘liq xarajatlar qanday xarajatlar deyiladi

14. Tijorat banklarining foizsiz daromad turlaridan biri

15. Sof foydaning dividendlar to‘langandan keyin qolgan qismi qanday foyda deyiladi

Bo'yiga:

1. bankning o'z mablag'larini ko'paytirishning eng ishonchli manbai
2. bank tomonidan tijorat veksellarini, to'lanmagan talablarni chegirma hisobiga sotib olinadigan biznes
5. Ma'muriy xarajatlar guruhiga mansub xarajatlardan biri
8. Bank xarajatining hisobga olinishi bo'yicha turi
9. barcha majburiyatlar bo'yicha to'plangan foiz summasi qanday xarajatlar deyiladi
12. bank faoliyati natijasida tushgan umumiy tushum miqdori

TIJORAT BANKLARINING TO'LOVGA LAYOQATLIGI VA LIKVIDLIGI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

Bankning likvidliligi — bank aktivlar o'sishini moliyalashtirishi va ko'zda tutilmagan (nomaqbul) yo'qotishlarsiz majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash imkoniyati;

Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (bundan buyon matnda LQMK deb yuritiladi) yuqori likvidli aktivlarning keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqimga nisbati sifatida aniqlanadi ($LQMK = \text{yuqori likvidli aktivlar} / \text{keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqim}$).

Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti (SBMMK) barqaror moliyalashtirishning mavjud summasini barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga nisbati sifatida aniqlanadi ($SBMMK = \text{barqaror moliyalashtirishning mavjud summasi} / \text{barqaror moliyalashtirishning zarur summasi}$).

doimiy bo'lmagan majburiyatlar — istalgan vaqtda bankdan chiqib ketishi ehtimoli yuqori bo'lgan yirik depozitlar yoki yirik qarzarlar;

nolikvidli aktivlar — bozor narxini kotirovka bo'yicha aniqlash mumkin bo'lmagan yoki bu turdagi aktivlarning xarid narxi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi kelishuv natijasida alohida tarzda aniqlanadigan, qiymati katta miqdordagi o'zgarishlarga uchrab turishi mumkin bo'lgan va taqqoslashni qiyinlashtiradigan aktivlar;

likvidli aktivlar — qiymati bozorda shakllanadigan, bozor qiymati bo'yicha qisqa muddat ichida ularni sotib olishga osonlik bilan xaridor topiladigan, doimiy ravishda ko'zda tutilmagan (nomaqbul) yo'qotishlarsiz sotiluvchi va sotib olinuvchi aktivlar;

tavakkalchilik darajasi past bo'lgan mamlakatlar — «Standard & Poor's», «Fitch Ratings» va «Moody's Investors Service» reyting kompaniyalarining investitsion reyting baholariga yoki O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tan olinadigan boshqa reyting kompaniyalarining ushbu baholarga teng bo'lgan reyting baholariga ega mamlakatlar.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi (PF-5992-sonli) Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-3272-sonli) Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallasuvi darajasini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-3066-sonli) Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015 yil 13 avgustdagi “Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 2709-sonli Nizomi

MAVZUGA OID MASALALAR

21.1-masala. Quyida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari uchun normativlar keltirilgan.

№	Iqtisodiy normativning nomi	Formulasi	Normativ darajasi
	A	B	G
1	Kapital etarlilik koeffitsienti		
2	Birinchi darajadagi kapitalning yetarlilik darajasi		
3	1-darajali asosiy kapitalning yetarlilik darajasi		
4	Leveraj		
5	Joriy likvidlilik koeffitsienti		
6	Likvidlilikni qoplash koeffitsienti		
7	Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti		
8	Bir qarzdorga yoki o‘zaro bog‘liq qarzdorlar guruhiga to‘g‘ri keladigan riskning maksimal darajasi, ta‘minlangan aktivlar		
9	Bir qarzdorga yoki o‘zaro bog‘liq qarzdorlar guruhiga to‘g‘ri keladigan riskning maksimal darajasi, ta‘minlanmagan aktivlar		

10	Barcha yirik aktivlarning maksimal darajasi		
11	Bitta emitentning qimmatli qog'ozlariga investitsiyalarning maksimal hajmi		
12	Sotish va sotib olish uchun qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarning maksimal hajmi		
13	Barcha emitentlarning ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog'ozlariga investitsiyalarning maksimal hajmi		
14	Bitta insayderga yoki o'zaro bog'liq tomonlar guruhiga berilgan aktivlar, ta'minlangan aktivlar		
15	Bank tomonidan barcha insayderlarga berilgan aktivlarning umumiy miqdori		

Topshiriq bo'yicha quyidagilarni aniqlang:

1. O'zR MBning tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlari asosida har bir normativning formulasini yozing.

2. O'zR MBning tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlari asosida har bir normativning belgilangan darajasini aniqlang.

21.2-masala. Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi bank tizimining likvidlilik dinamikasi keltirilgan.

№	Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2019 y.	01.01.2020 y.	O'zgarishi
1	Yuqori likvidli aktivlar (mlrd. co'm)	20 202	30 874	
2	Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati, foizda	9,4%	11,3%	

3	Joriy likvidlilik me'yori (<i>min. talab 30%</i>)	81,5%	89,1%	
4	Likvidlilikni qoplash me'yori (<i>min. talab 100%</i>)	170,7%	208,5%	
5	Sof barqaror moliyalashtirish me'yori (<i>min. talab 100%</i>)	107,9%	112,8%	
6	Lahzali likvidlilik me'yori (<i>min. talab 10%</i>)	30,9%	47,8%	

Aniqlang: ushbu jadval asosida joriy yilda o'tgan yilga nisbatan likvidlilik ko'rsatkichlarining o'zgarishini hisoblang va xulosa bering.

21.3-masala. Quyidagi jadvalda 2017-2019 yillardagi O'zbekiston Respublikasi bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari keltirilgan (mlrd. so'm).

Mazkur hisobot Xalqaro valyuta jamg'armasining Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini tuzish bo'yicha qo'llanmasiga muvofiq tayyorlangan.

№	Asosiy ko'rsatkichlar	2017 yil	2018 yil	2019 yil
1	Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati, %			
	Jami regulyativ kapital	19 992,8	24 231,1	52 467
	Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi	106 510,9	154 965,5	223 041

2	I darajali kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati, %			
	I darajali kapital	17 627,1	22 146,3	43 659
	Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi	106 510,9	154 965,5	223 041
3	Zaxiralar chegirilgan holda harakatsiz kreditlar/jami kapital, %			
	Zaxiralar chegirilgan holda harakatsiz kreditlar miqdori	609,6	1 140,4	1 374
	Jami kapital	20 676,1	26 578,9	51 031
4	Harakatsiz kreditlar/jami kreditlar miqdori, %			
	Harakatsiz kreditlar	1 324,4	2 140,5	3 169
	Jami kreditlar miqdori	110 572,1	167 390,6	211 581
5	Aktivlar rentabelligi, %			
	Soliq to‘langunga qadar sof foyda	2 263,0	3 858,4	5 693
	Jami aktivlar (mazkur davr uchun o‘rtacha)	121 197,4	188 546,0	254 943
6	Kapital rentabelligi, %			
	Soliq to‘langunga qadar sof foyda	2 263,0	3 858,4	5 693
	Jami kapital hajmi (mazkur davr uchun o‘rtacha)	13 208,5	23 816,1	34 039
7	Foizli marja/yalpi daromad, %			
	Foizli marja	3 337,3	6 161,9	9 898
	Yalpi daromad	10 254,1	12 726,0	19 518
8	Foizsiz xarajatlar/yalpi daromad, %			
	Foizsiz xarajatlar	6 080,4	6 925,6	9 670
	Yalpi daromad	10 254,1	12 726,0	19 518

9	Likvid aktivlar/jami aktivlar, %			
	Likvid aktivlar	39 374,9	29 252,6	37 887
	Jami aktivlar	166 631,8	214 319,6	272 727
10	Likvid aktivlar/qisqa muddatli majburiyatlar, %			
	Likvid aktivlar	39 374,9	29 252,6	37 887
	Qisqa muddatli majburiyatlar	70 748,6	71 050,6	93 962
11	Jami kapital/jami aktivlar, %	12,41%	12,40%	18,71%
	Jami kapital	20 676,1	26 578,9	51 031
	Jami aktivlar	166 631,8	214 319,6	272 727

Ushbu jadval ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblang:

1. Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati

2. I darajali kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati

3. Zaxiralar chegirilgan holda harakatsiz kreditlar/jami kapital

4. Harakatsiz kreditlar/jami kreditlar miqdori

5. Aktivlar rentabelligi

6. Kapital rentabelligi

7. Foizli marja/yalpi daromad

8. Foizsiz xarajatlar/yalpi daromad

9. Likvid aktivlar/jami aktivlar

10. Likvid aktivlar/qisqa muddatli majburiyatlar

11. Jami kapital/jami aktivlar

12. O'tgan yillarga nisbatan o'zgarishini hisoblang va xulosa bering. O'zgarish sabablarini izohlang.

MAVZUGA OID TESTLAR

21.1-testlar

1. Tijorat banklari resurs bazasini samarali boshqarishni ifodalaydigan ko'rsatkich to'g'ri keltirilgan qatorni aniqlang?

A. Kredit potentsiali

B. Daromadlar rentabelligi

C. Likvidlilik

D. Ustav kapitali

2. *Tijorat banklari resurslarining joylashtirilishini ifodalaydigan ko'rsatkich to'g'ri keltirilgan qatorni aniqlang?*

A. Markaziy bankdan olingan mablag'lar

B. Soy foyda

C. Aktivlar sifati

D. Bozor riski

3. *Tijorat banklari likvidlikni boshqarish siyosati tasdiqlanishining oxirgi muddati*

A. 31 dekabr

B. 15 may

C. 1 mart

D. 1 fevral

4. *Tijorat banklarida doimiy bo'lmagan majburiyatlar deb nimaga aytiladi?*

A. istalgan vaqtda bankdan chiqib ketishi ehtimoli yuqori bo'lgan yirik depozitlar yoki yirik qarzarlar

B. bank kapitalining 50 foizdan oshgan qismi

C. bank depozitlarining 50 foizdan oshgan qismi

D. talab qilib olinguncha depozitlar summasining 60 foizidan oshgan qismi

5. *Tijorat banklarida yirik qarzar deb nimaga aytiladi?*

A. hajmi bank I darajali kapitalining 5 foizidan yuqori bo'lgan bir shaxs yoki bir-biriga daxldor shaxslar guruhiga tegishli qarzar

B. hajmi bank regulyativ kapitalining 5 foizidan yuqori bo'lgan bir shaxs yoki bir-biriga daxldor shaxslar guruhiga tegishli qarzar

C. hajmi bank ikkinchi darajali kapitalining 5 foizidan yuqori bo'lgan bir shaxs yoki bir-biriga daxldor shaxslar guruhiga tegishli qarzar

D. hajmi bank birinchi darajali asosiy kapitalining 5 foizidan yuqori bo'lgan bir shaxs yoki bir-biriga daxldor shaxslar guruhiga tegishli qarzar

6. *Tijorat banklarida asosiy valyuta deb nimaga aytiladi?*

A. bankning jami aktivlarining 5 foizi yoki undan ortiq miqdoriga teng bo'lgan aktivlar yoki majburiyatlar aks etgan valyuta

B. bankning jami kapitalining 5 foizi yoki undan ortiq miqdoriga teng bo'lgan aktivlar yoki majburiyatlar aks etgan valyuta

C. bankning birinchi darajali kapitalining 5 foizi yoki undan ortiq miqdoriga teng bo'lgan aktivlar yoki majburiyatlar aks etgan valyuta

D. bankning jami depozitlarining 5 foizi yoki undan ortiq miqdoriga teng bo'lgan aktivlar yoki majburiyatlar aks etgan valyuta

7. Likvidlilikni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishda quyidagilardan qaysi biri tahlil qilinmaydi?

A. resurslarga bo'lgan talabning davriy o'zgarib turishi

B. bankning mijozlar bazasi va ularga ajratilgan kreditlar

C. resurslar manbalari

D. bank kapitali va daromadligini hisobga olgan holda, bankning umumiy moliyaviy holati

8. Overnajt operatsiyalarining eng yuqori miqdori qancha?

A. bank II darajali kapitalining 25 foizidan oshmasligi lozim

B. bank I darajali kapitalining 25 foizidan oshmasligi lozim

C. bank regulyativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi lozim

D. bank depozitlarining 25 foizidan oshmasligi lozim

9. Banklarda Lahzali likvidlilik koeffitsientining me'yoriy darajasi qanday bo'lishi kerak?

A. 30 foizdan kam bo'lmasligi lozim

B. 10 foizdan kam bo'lmasligi lozim

C. 25 foizdan kam bo'lmasligi lozim

D. 100 foizdan kam bo'lmasligi lozim

10. Quyidagilardan qaysi biri balansdan tashqari moddalar tarkibiga kiradi?

A. akkreditiv bo'yicha to'lovlar

B. asosiy vositalarni sotib olish

C. boshqa tijorat banklardagi vakillik hisobvaraqlari

D. to'lov muddati kelgan kreditlar

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

21.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:


Likvidlilik koeffitsienti-
Likvidlilik-
Lahzalilik ko'rsatkichi-
Likvidlik riski-
Likvidlilik koeffitsienti-
Bank likvidligi -
Bankning to'lovga layoqatliligi –
Konservatsion bufer kapital –
Kontrsiklik bufer kapital –
GEP –
GEP konsepsiyasi –
Likvidlilik GEP tahlili –
Disbalansni boshqarish –
GEP tahlili
Manfiy GEP –
Nolli GEP –
Musbat GEP –

21.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat bankining likvidliligi deganda nimani tushunasiz?
2. Tijorat bankining to'lovga layoqatliligi deganda nimani tushunasiz?
3. Banklarning likvidliligi xususidagi qaysi nazariyalarni bilasiz?
4. Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi qanday baholanadi?
5. Banklarning likvidliligi qanday baholanadi?
6. Tijorat banklari likvidliligini boshqarishning qanday usullarini bilasiz?
7. Banklarning likvidliligi va to'lovga qobilligiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
8. Bazel qo'mitasining tijorat banklarining likvidliligi va to'lovga layoqatliligi bo'yicha qanday yangi talablarini bilasiz?

MAVZUGA OID KROSSVORD

21.1-krossvord



Eniga:

3. kassadagi naqd pul va vakillik hisob varaqalaridagi mablag'larning joriy majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadigan likvidlilik ko'effitsienti

6. Banklar likvidliligiga ta'sir etuvchi ichki omillardan biri

8. Tijorat banklari likvidlilik me'yorlari mavjudligiga ko'ra turlaridan biri

9. Bank likvidliligiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan biri

10. bank aktivlarining majburiyatlar summasiga nisbatini tavsiflaydigan likvidlilik ko'effitsienti

12. bankning o'z faoliyatiga ta'siri, ya'ni uning siyosati bilan bog'liq holatlarni aks ettiruvchi omil

14. tashqi muhitning bank faoliyati va uning likvidliligiga ta'sir etuvchi omil nomi

15. GEP - bankning aktiv va passivlarini muddatlar bo'yicha muvofiqligini anglatadi

Bo'yiga:

1. Tijorat banklari likvidlilik me'yorlari mavjudligiga ko'ra turlaridan biri

2.GEP – bankning foiz stavkalari o‘zgarishiga sezgir bo‘lgan aktivlari foiz stavkalar o‘zgarishiga sezgir passivlariga nisbatan ko‘proqligini anglatadi

4. tijorat banklari ishonchliligi va barqarorligining asosi

5. foiz stavkalari o‘zgarishiga sezgir bo‘lgan aktivlariga nisbatan foiz stavkalar o‘zgarishiga sezgir passivlar ko‘proqligini anglatuvchi GEP

7. Likvidlilikni boshqarish shakllaridan biri

11. likvidlilikning o‘zgarishini ta’minlaydigan omillardan biri

13. likvidlilikning o‘zgarishini ta’minlaydigan omillardan biri

TIJORAT BANKLARI RISKLARI VA ULARNI BOSHQARISH USULLARI

MAVZUGA OID ASOSIY TA'RIFLAR VA TUSHUNCHALAR

kredit tavakkalchiligi - qarzdorning shartnomada belgilangan shartlar bo'yicha bank oldidagi o'z moliyaviy majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik;

bozor tavakkalchiligi - bankning qimmatli qog'ozlar portfelidagi instrumentlari narxlarining, shuningdek, chet el valyutasi va qimmatbaho metallar kurslarining salbiy o'zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik. Bozor tavakkalchiligi fond, valyuta va foiz tavakkalchiliklarini o'z ichiga oladi, bunda:

- fond tavakkalchiligi - qimmatli qog'ozlar portfelidagi instrumentlarning bozor narxlaridagi salbiy o'zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik;

- valyuta tavakkalchiligi - chet el valyutasi va qimmatbaho metallarning ochiq pozitsiyalari bo'yicha shu chet el valyutalari kurslari va qimmatbaho metallar baholarining o'zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik;

- foiz tavakkalchiligi - aktivlar, passivlar va ko'zda tutilmagan holatlardagi instrumentlar bo'yicha foiz stavkalarining salbiy o'zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik;

likvidlilik tavakkalchiligi - bankning o'z moliyaviy majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik.

operatsion tavakkalchilik - bankning ichki tizimlari, jarayonlari, axborot texnologiyalari, xodimlar harakatlarida yo'l qo'yilgan xatoliklar yoki tashqi tabiiy jarayonlar, shu jumladan, tabiiy ofatlar natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik;

mamlakat tavakkalchiligi - bankning xorijiy hamkorlari tomonidan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlar sababli o'z moliyaviy majburiyatlarini bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik;

huquqiy tavakkalchilik - bank tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar va tuzilgan shartnomalarga rioya qilinmaslik, ish jarayonida huquqiy xatoliklarga (noto'g'ri yuridik maslahat yoki hujjatlarning noto'g'ri tuzilishi) yo'l qo'yilishi, huquq tizimidagi kamchiliklar, hamkorlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning buzilishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik;

biznesda obro'-e'tiborni yo'qotish tavakkalchiligi - bankning moliyaviy barqarorligi to'g'risida omma ichida salbiy tasavvur yuzaga kelishi sababli mijozlar sonining kamayishi, ko'rsatilayotgan xizmat sifatining tushishi natijasida bankda zararlar yuzaga kelishi tavakkalchiligi;

firibgarlik tavakkalchiligi - bankda xodimlar, mijozlar va boshqa hamkorlarning firibgarlik yoki boshqa jinoiy xatti-harakatlari oqibatida moliyaviy zararlar ko'rish xatari. Bankdan naqd pul va boshqa qimmatliklarning o'g'irlanishi hamda bank xodimlari tomonidan ataylab moliyaviy hisob va hisobotlarda zararlarni (vaqtincha yoki tekshirish orqali aniqlanguncha) yashirilishi natijasida bankning moliyaviy ziyon ko'rishi.

MAVZUGA OID ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-580-sonli) Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi «2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi (PF-5992-sonli) Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi «Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (PQ-3272-sonli) Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi (PQ-3066-sonli) Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2011 yil 25 maydagi «Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi (2229-sonli) Nizomi

MAVZUGA OID MASALALAR

22.1-masala. Quyidagi jadvalda tijorat bankining aktivlari tarkibi keltirilgan.

№	Aktivlar tarkibi*	Sifat darajasi				
		I	II	III	IV	V
A	B	G	D	E	J	Z
	JAMI AKTIVLAR	27 380 553 767	8 055 457 988	303 569 115	62 550 347	71 464 188
1.	Naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	671 573 889				
2.	O'zR MBidan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar	1 408 052 630				
3.	Boshqa banklardan olinadigan mablag'lar	2 799 499 874				
4.	Sotish va sotib olish uchun qimmatli qog'ozlar	81 918 413				
5.	Sotish uchun qimmatbaho metallar, toshlar va tangalar	875				

6.	Byudjet tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar	349 000 000	0	0	0	0
7.	Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar	247 462 560	8121717	262576	211158	114779
8.	Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar	10 284 287	345497	0	0	0
9.	Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar	374 180 712	34887999	0	8324921	0
10.	Tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan beriladigan qisqa muddatli kreditlar	212 259 809	24292060	0	0	0
11.	Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar	347 732 834	7724408	5944566	0	0
12.	Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar	129 373	0	0	0	0
13.	Xususiy korxonalar, xo'jalik sherikliklari va kompaniyalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar	1 756 572 227	66911231	384579	949620	862212

14.	Tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan berilgan uzoq muddatli kreditlar	1 103 422 203	117685989	4282367	200000	2000000
15.	Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar	2 779 122 475	95519211	7743881	4358138	2201455
16.	Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar	24 683 738	1992911	149981	200000	549660
17.	Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar	6 075 525 219	5927088253	83701261	328381	0
18.	Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar	99 920 585	34312649	3562250	1793486	6269377
19.	Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar	1 954 732 228	690924303	26923846	0	0
20.	Bankdan tashqari moliyaviy institutlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar	19 425 618	0	0	0	0

21.	Xususiy korxonalar, xo'jalik sherikliklari va kompaniyalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar	5 580 134 672	997503979	63425501	42769211	27439104
22.	Lizing (moliyaviy lizing)	167 794 484	25000000	0	0	0
23.	Kreditlar va lizing bo'yicha sud jarayonlaridagi aktivlar	0	0	0	0	12658509
24.	qo'shma korxonalar va sho'ba korxonalariga investitsiyalar	34 166 941	0	86716249	1592944	6248693
25.	Hisoblangan foizlar debitorlik qarzlari	405 151 403	0	0	0	0
26.	Hisoblangan foizsiz daromadlar	8 544 795	0	0	0	809939
27.	Asosiy vositalar	400 413 128	0	0	0	0
28.	Nomoddiy aktivlar	2 233 545	0	0	0	0

29.	Bankning boshqa mulki	58 118 436	1276674	792915	1692850	9149138
30.	Kechiktirilgan debitorlik qarzlari	24 968 046	20527463	19678202	0	0
31.	Mijozlarning plastik kartalaridan yechib olingan mablag'lar uchun tranzit hisobvaraqlar	58 830 574	0	0	0	0
32.	Boshqa aktivlar	324 698 194	1343644	941	129638	3161322

Topshiriq bo'yicha quyidagilarni aniqlang:

1. Har bir sifat darajasi bo'yicha aktivlar summasini;
2. Jami aktivlar tarkibidagi ulushini;
3. Aktivlarga tashkil etiladigan zaxiralar summasini hisoblang.

22.2-masala. Quyida tijorat bankining ma'lumotlari keltirilgan.

№	Ko'rsatkich nomi	Ming so'mda
1.	<u>Bankning 2016 yildagi yalpi daromadi</u>	
a.	foizli daromadlar	480 947 360
b.	foizli xarajatlar	287 119 038
v.	foizsiz daromadlar	291 936 956
g.	foizsiz xarajatlar	51 272 212
2.	<u>Bankning 2017 yildagi yalpi daromadi</u>	
a.	foizli daromadlar	751 017 383
b.	foizli xarajatlar	460 152 002

v.	foizsiz daromadlar	638 629 401
g.	foizsiz xarajatlar	67 026 914
3.	<u>Bankning 2018 yildagi yalpi daromadi</u>	
a.	foizli daromadlar	1 506 434 727
b.	foizli xarajatlar	858 326 973
v.	foizsiz daromadlar	579 890 138
g.	foizsiz xarajatlar	143 544 456
4.	Bankning o‘rtacha yalpi daromadi (so‘nggi uch yil uchun)	
5.	Operatsion risk summasi	
6.	Valyuta holati bo‘yicha hisobvaraqlar (17101 hisobvarag‘i (so‘m qismi))	1 045 395 634
7.	Svop va Forvard shartlarida sotish (92709, 92732 hisobvaraqlari)	
8.	Svop va Forvard shartlarida sotib olish (92716, 92736 hisobvaraqlari)	
9.	Ochiq valyuta pozitsiyasi, jami	
10.	Bozor riski summasi	

Topshiriq bo‘yicha quyidagilarni aniqlang

1. Bankning 2016, 2017 va 2018 yillardagi yalpi daromadi;
2. Bankning o‘rtacha yalpi daromadi (so‘nggi uch yil uchun);
3. Bankning Operatsion risk summasi;
4. Bankning Ochiq valyuta pozitsiyasi;
5. Bozor riski summasini toping.

MAVZUGA OID TESTLAR

22.1-testlar

1. Foiz riskini boshqarishning vazifasi nimadan iborat?

- A. Likvidlikka rioya qilgan holda, foyda va risk o‘rtasidagi optimal munosabatni topish
- B. Foyda va kredit riski o‘rtasidagi optimal nisbatni topish
- C. Bank operatsiyalarini amalga oshirishdagi xatolarni topish
- D. Foyda va reputatsiyani yo‘qotish riski o‘rtasidagi optimal nisbatni topish

2. *Valyuta riskining nechta kategoriyasi mavjud?*
- A. 3 ta: pul o'tkazishda yuzaga keladigan risk, tranzaksiya (bitimlar) riski va iqtisodiy risk
 - B. 2 ta: moliyaviy va bozor riski
 - C. 3 ta: valyuta munosabatlarida yuzaga keladigan foiz riski, siyosiy risk va bitim riski
 - D. 2 ta: valyuta ayriboshlash jarayonidagi risk va hisob-kitoblardagi risk
3. *Quyidagi risklardan qaysi biri bozor riski tarkibiga kirmaydi?*
- A. foiz riski
 - B. valyuta riski
 - C. reputatsiya riski
 - D. qimmatli qog'ozlar riski
4. *Operatsion risk qanday hollarda vujudga keladi?*
- A. amaldagi qonunchilik talablari va bank faoliyati tavsifiga ko'ra bank operatsiyalarining o'tkazilish tartibining buzilishi
 - B. bank tomonidan tuzilgan shartnomalar va huquqiy me'yorlar talablariga rioya qilmaslik
 - C. bankning moliyaviy holati haqidagi salbiy ko'rinishlar natijasida bank xodimlari sonining qisqarishi tufayli;
 - D. xorijiy kontragentlar o'z majburiyatlarini iqtisodiy siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar tufayli bajara olmasligi;
5. *Transformatsiya riskini kamaytirish uchun qanday choralarni ko'rish lozim?*
- A. Aktivlar zaxirasiga ega bo'lish
 - B. Aktivlar va passivlarning optimal tarkibini ta'minlash
 - C. Kreditlarning optimal tarkibini shakllantirish
 - D. Etarli darajadagi foydaga ega bo'lish
6. *Transformatsiya riski qachon yuzaga keladi?*
- A. Aktiv va passivlarning baholari o'rtasidagi nomuvofiqlik tufayli yuzaga keladi
 - B. Daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi nomuvofiqlik tufayli
 - C. Daromadlarning kamayishi natijasida yuzaga keladi
 - D. Aktiv va passivlarning muddatlari o'rtasidagi nomuvofiqlik tufayli yuzaga keladi

7. *Depozitlar bo'yicha foiz riski qachon yuzaga keladi?*
- A. Depozitlar bozorida noqulay vaziyat yuzaga kelganda
 - B. Kreditlar bozorida noqulay vaziyat yuzaga kelganda
 - C. Bankning xarajatlari ko'payganda
 - D. Bank tomonidan jalb qilinayotgan resurslar qimmatlashganda
8. *Qanday risk valyuta riski tarkibiga kirmaydi?*
- A. Qayta moliyalash foizining o'zgarishidan kutiladigan riski
 - B. Valyuta kursi o'zgarishidan kutiladigan
 - C. Milliy valyutaning devalvatsiyalanishidan kutiladigan risk
 - D. Valyuta nazorati bo'yicha talablarning o'zgarishidan kutiladigan risk
9. *Qanday risk mamlakat riski tarkibiga kirmaydi?*
- A. Qarz olgan mamlakatda makroiqtisodiy o'zgarishlardan kutiladigan risk
 - B. Qarz olgan firmaning milliylashuvi ehtimolidan kutiladigan risk
 - C. Bojxona ittifoqiga kirishdan kutiladigan risk
 - D. Qarz olgan mamlakatda harbiy to'qnashuvlar bo'lishidan kutiladigan risk
10. *Xalqaro kreditlash bilan bog'liq risklarni kamaytirishda qanday instrumentlardan foydalaniladi?*
- A. Garov va hukumat kafolati
 - B. Tijorat banklari korrespondentlik hisobraqamidagi qoldiq
 - C. Davlatning oltin rezervlari
 - D. Davlatning xorijda mavjud bo'lgan mulki

MAVZUGA OID TOPSHIRIQ

22.1-topshiriq. Mavzuga tegishli quyidagi atama va birikmalarga izoh yozing:

- Bank riski –
- Kredit riski
- Foiz riski,
- Likvidlilik riski
- Transformatsiya riski –
- Valyuta riski
- Hisob-kitob riski –
- Bozor riski-

Risk-
Noaniqlik-
Iqtisodiy risk-
Ijtimoiy-siyosiy risk-
Makro darajadagi iqtisodiy risk-
Mezo darajadagi iqtisodiy risk-
Mikro darajadagi iqtisodiy risk-

22.2-topshiriq. Takrorlash uchun savollar

- 1.Risk so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
- 2.Bank risklarining qanday turlari mavjud?
- 3.Kredit riski nima?
- 4.Kredit riskini baholash va boshqarishning qanday usullari mavjud?
- 5.Valyuta riski nima va uning qanday turlari mavjud?
- 6.Valyuta riskini boshqarishda qaysi usullardan foydalaniladi?
- 7.Foiz riski nima va uning darajasini qanday qilib pasaytirish mumkin?
- 8.Operatsion risk nima va uni qanday qilib o‘lchash mumkin?
- 9.Likvidlilik riski va uni boshqarishning qanday usullari mavjud?
- 10.Bozor riski nima va uning darajasini qanday qilib aniqlash mumkin?

MAVZUGA OID KROSSVORD

22.1-krossvord

Eniga:

5. Namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra bank risklaridan biri.
7. Ta’sir vaqti bo‘yicha bank risklaridan biri.
9. Risklilik darajasi 100 foiz bo‘lgan aktivlardan biri.
11. Tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimi elementlaridan biri.
12. Boshqarish imkoniyatlari bo‘yicha bank risklarining turlaridan biri.
13. Bazel Qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan risk turlaridjan biri.
14. Yuzaga kelish sabablari bo‘yicha bank risklarining turlaridan biri.


Bo‘yiga:

1. Bazel Qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan risk turlaridjan biri.

2. Tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimi elementlaridan biri.
3. Mamlakat iqtisodiy risklari hajmini belgilovchi indeks.
4. Qimmatli qog'ozlar narxining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan risk turi.

6.....risk-umuman yirik tizim va uning tarkibi rivojlanishida ishlab chiqarish shakllarining oqilona uyg'unlashuvini tanlashda yuzaga keladigan risklar majmui.

8. Ta'sir qilish darajasi bo'yicha bank risklaridan biri.
10. Yuzaga kelish sohasi bo'yicha bank risklarining turlaridan biri.
11. Hisoblash usuli bo'yicha bank risklarining turlaridan biri.



ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. T.: «Iqtisod-Moliya » nashriyoti, 2017. – 768 b.
2. Abdullaeva Sh.Z. va b. “Pul va banklar” Darslik. T.: - “Iqtisod-moliya”, 2019 y. – 628 b.
3. Abramova M.A. Dengi, kredit, banki. – M.:Knorus, 2017. – 312 s.
4. Andrew W. Mullineux., Victor Muride. Handbook of International Banking. – Norhtamton, 2003.
5. Azizov U.O‘ va boshqalar. Bank ishi. T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016. – 640 b.
6. Bobaqulov T.I., Abdullaev U.A. “Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari” Darslik. - «Iqtisod-Moliya» - Toshkent, 2019 yil , 232 b.
7. Bobaqulov T.I., Abdullaev U.A. Isakov J.YA. “Monetar siyosat” Darslik. – “Iqtisod-Moliya”, 2019. 274 b.
8. Bobaqulov T.I., Abdullaev U.A. Shomurodov R.T . “Monetar siyosat”. O‘quv qo‘llanma. T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. 236- b.
9. Болчаев А.И., Богачева М.Ю. Деньги. Кредит. Банки. Учебник. Infra. – М. 2017 г. – 591 с.
10. Catao L., Terrones M. Fiscal Deficits and Inflation//Working Paper. 65. IMF. – P. 63-67.
11. Comizio V. International Banking Law. West Academic Publishing; 1 edition, 2015. 696 p.
12. Edward F. Mannino Lender Liability and Banking Litigation (Banking LawCorporate Law Series) Law Journal Press; 2019. 800 p.
13. Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson education Limited. 2016. 695 pages.
14. Hess G., Morris C. The Long-Ruh Costs of Moderate Inflation // Federal Reserve Bank of Kansas City Economic Review. 1996. Second Quarter. – P. 71-88.
15. Jesus Huyerta de Soto. Money, bank credit, and economic cycles. Union editorial. 201yo7. 885 pages
16. Karaliyev T.M., Sattarov O.B. va boshqalar. “Tijorat banklari faoliyati tahlili”. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2018 y. – 192 bet.
17. Лаврушин О.И. Деньги. Кредит. Банки. Учебник. – М.: Knorus. 2018. – 448 с.

18. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
19. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
20. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
21. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
22. Mitra S., Beneš J., Iorgova S., Iund-Jensen K., Schmieder C., Severo T. Toward Operationalizing Macropudential Policies: When to Act?//Global Financial Stability Report. IMF. – Washington, 2011. – Chapter 3, Sept.– 45 p.
23. Mullajanov F.M. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi. – T.: O‘zbekiston, 2016 y. – 368 b.
24. Omonov A.A, Qoraliev T.M “Pul va banklar” Darslik. T.: - “Iqtisod-moliya”, 2019 y. – 461 b.
25. Rashidov O.Yu., Alimov I.I., Toymuhamedov I.R., Tojiyev R.R. Pul, kredit va banklar. Darslik. – T.: TDIU. 2018 y. – 428 b.
26. Saidov D.A., Qulliyev I.Ya. Pul muomalasi va kredit. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2017 y. - 263 b.
27. Рождественская Т.Э., Гузнов А.Г., Шамраев А.В. Банковское право 2-е изд., пер. и доп. Учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры.- — Москва : Издательство Юрайт, 2018. — 371 с.
28. Деньги, кредит, банки : учеб. / под ред. Г. Н. Белоглазовой. – М.: Высшее образование, 2018.- 245с.
29. Кузнецова, Е.И. Деньги, кредит, банки: Учебное пособие / Е.И. Кузнецова. - М.: ЮНИТИ, 2019. - 567 с.
30. Банковское дело. Операции, технологии, управление. Учебник / Турбанов А., Тютюнник А. – М.: Альпина, 2010. – 682с.
31. Банковские риски. Учебник / Лаврушин О.И., Валенцова Н.И. и др. – М.: Кнорус, 2010. – 232с.
32. Банковские операции: Учебник/Под ред. Стародубцева Е.Б. –М.: Форум, Инфра-М, 2010. -128с.

33. Банковские системы стран мира. Учебник / Щенин Р. К. – М.: КноРус, 2010. – 400с.

34. Валютные риски: анализ и управление. Учебное пособие / Струченкова Т.В. – М.: КноРус, 2010. – 216с.

35. Глобализация мировых валютно-финансовых рынков. Монография / Хмыз О.В., Шмелев В.В. – М.: Проспект, 2010. – 200с.

36. Денежные переводы и прием платежей. Бизнес-энциклопедия / Букирь М.Я., Пухов А.В., Копытин В.Ю. – М.: Маркет ДС, 2010. – 512с.

37. Дух времени. Что осталось за кадром, или Как банки забирали, забирают и будут забирать наши деньги. Учебник / Грег Лоренс – М.: АСТ, 2010. – 288с.

38. Менеджмент. Учебник / Гончаров В.И. – М.: Современная Школа, 2010. – 640с.

39. Правовой статус конкурсных кредиторов в деле о банкротстве. Учебник / Кораев К.Б. – М.: Волтерс Клувер, 2010. – 208с.

MUNDARIJA:

1-mavzu	Bank ishi fanining predmeti va vazifalari.....	5
2-mavzu	O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi va boshqa kredit muassasalari	12
3-mavzu	Tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari	22
4-mavzu	Tijorat banklarining passiv operatsiyalari tarkibi va ularning joylashishi	32
5-mavzu	Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari tarkibi va ularning joylashishi	45
6-mavzu	Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari	58
7-mavzu	Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan ishlash operatsiyalari	68
8-mavzu	Kreditlashni tashkil etish asoslari	76
9-mavzu	Aylanma mablag‘lar va mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash usullari.....	84
10-mavzu	Kredit ta‘minoti va uning shakllari.....	103
11-mavzu	Kreditlash jarayonlari va ularning bosqichlari.....	112
12-mavzu	Tijorat banklarining foiz siyosati.....	121
13-mavzu	Alohida kredit turlari va usullari	128
14-mavzu	Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini kreditlash ..	135
15-mavzu	Tijorat banklari tomonidan qishloq xo‘jalik subyektlarini kreditlash	143
16-mavzu	Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari	149
17-mavzu	Tijorat banklarining lizing operatsiyalari	157
18-mavzu	Tijorat banklarining yangi xizmat turlari.....	166
19-mavzu	Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalari ..	173
20-mavzu	Tijorat banklari daromadlari, xarajatlari va foydalari	181
21-mavzu	Tijorat banklarining to‘lovga layoqatliligi va likvidligi...	200
22-mavzu	Tijorat banklari risklari va ularni boshqarish usullari	211

A.A. OMONOV,
F.K. XOLMAMATOV

BANK ISHI

(O'quv qo'llanma)

Toshkent – «NIHOL PRINT» OK – 2021

Muharrir: A.Tog'ayev
Tex. muharrir: F.Tog'ayeva
Musavvir: B.Esanov
Musahhiha: O.Muxammadiyeva
Kompyuterda
sahifalovchi: G.Tog'ayeva

9323



№ 7439-765f-47f1-7ea1-a683-4648-1314.
Bosishga ruxsat etildi: . Bichimi 60x841 /16.
Shartli bosma tabog'i 14,5. Nashr bosma tabog'i 14,25.
Adadi 100. Buyurtma № 76.

«Nihol print» Ok da chop etildi.
Toshkent sh., M. Ashrafiy ko‘chasi, 99/101.